ISSN: 2181-0796
DOI: 10.26739/2181-0796
www.tadqiqot.uz

TIL, TA'LIM, TARJIMA
XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД

INTERNATIONAL JOURNAL OF
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION



Alisher Navoi

VOLUME 4
ISSUE 5
2023

ISSN: 2181-0796

Doi Journal 10.26739/2181-0796

TIL, TA'LIM, TARJIMA

4-SON, 5-JILD

ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД

НОМЕР-4, ВЫПУСК-5

LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

VOLUME-5, ISSUE-5

TOSHKENT-2023

TIL, TA'LIM, TARJIMA XALQARO JURNALI

№4 (2023) DOI

Bosh muharrir:

Mirzayev Ibodulla
f.f.d., professor (O'zbekiston)

Bosh muharrir o'rinbosari:

Ismoilov Salohiddin
f.f.n., professor (O'zbekiston)

TAHRIR HAY'ATI:

Bakirov Poyon
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Boqiyeva Gulandom
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Dadaboyev Hamidulla
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Eltazarov Jo'liboy
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Isakova Nodira
PhD, dotsent
(O'zbekiston)

Kiselyov Dmitriy
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Labib Said Mohammad Alem
f.f.d., dotsent
(Afg'oniston)

Mamatov Abdi
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Mirzayev Rahmatulla
huquqshunos, dotsent
(O'zbekiston)

Mirzohidova Muyassar
f.f.d., professor
(Qirg'iziston)

Nadim Mohammad Humoyun
PhD
(Afg'oniston)

Pardayev Azamat
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Qodirova Barno
kotib, PhD, dotsent
(O'zbekiston)

Qulmamatov Do'smamat
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Rasulov Ravshanxo'ja
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Safarov Shahriyor
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Shahobiddinova Shohida
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Sobirov Anvar
PhD
(O'zbekiston)

Tagayeva Sayyora
PhD, dotsent
(O'zbekiston)

Ubaydullayeva Maftuna
PhD, dotsent
(O'zbekiston)

Uluqov Nosirjon
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Umurqulov Bekpo'lat
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Xasanov Axmad
mas'ul kotib, PhD
(O'zbekiston)

Xayrullayev Xurshid
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Yo'ldoshev Qozoqboy
p.f.d., professor
(O'zbekiston)

ILMIY MASLAHAT KENGASHI:

Abdiyev Murodqosim
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Baqoyeva Muhabbat
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Berdaliyev Abduvali
f.f.d., professor
(Tojikiston)

Jabborov Xo'jamurod
f.f.d., dotsent
(O'zbekiston)

Karimov Suyun
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Mamatov Abdug'ofur
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Mo'minov Siddiq
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Raximov G'anisher
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Sayfullayeva Ra'no
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Suvonova Nigorabonu
f.f.n., dotsent
(O'zbekiston)

To'xtasinov Ilhom
p.f.d.
(O'zbekiston)

Yoqubov Jmoliddin
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Sahifalovchi: Shakhram Fayziev

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/;
Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/;
Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД

№4 (2023)

Главный редактор:

Мирзаев Ибадулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Исмаилов Салахиддин
к.ф.н, доцент (Узбекистан)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бакиров Поён
д.ф.н., профессор
(Узбекистон)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Дадабаев Хамидулла
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Элтазаров Жулибай
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Исакова Нодира
PhD, доцент
(Узбекистан)

Киселев Дмитрий
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Лабиб Саид Моҳаммад Алем
д.ф.н.,доцент
(Афғонистон)

Маматов Абди
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Мирзаев Раҳматулла
юрист, доцент
(Узбекистан)

Мирзахидова Муяссар
д.ф.н., профессор
(Киргизистан)

Надим Моҳаммад Ҳумоюн
PhD
(Афғонистон)

Пардаев Азамат
д.ф.н., профессор
(Узбекистон)

Кадирова Барно
секретарь, PhD, доцент
(Узбекистан)

Кулмаматов Дусмамат
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Расулов Равшанҳужа
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Сафаров Шахриёр
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Шахабиддинова Шахида
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Собиров Анвар
PhD
(Узбекистан)

Тагаева Сайёра
PhD, доцент
(Узбекистан)

Убайдуллаева Мафтуна
PhD, доцент
(Узбекистан)

Улуков Насиржан
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Умуркулов Бекпулат
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Хасанов Ахмад
отв. секретарь PhD
(Узбекистан)

Хайруллаев Хуршид
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Йулдашев Казакбай
д.п.н., профессор
(Узбекистан)

НАУЧНЫЙ СОВЕТ:

Абдиев Мурадкасим
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Бакоева Мухаббат
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Бердалиев Абдували
д.ф.н., профессор
(Таджикистан)

Жаббаров Хужамурад
д.ф.н., доцент
(Узбекистан)

Каримов Суюн
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Маматов Абдугафур
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Муминов Сиддик
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Рахимов Ганишер
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Сайфуллаева Раъно
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Сувонова Нигорабону
к.ф.н., доцент
(Узбекистан)

Тухтасинов Илхам
д.п.н., профессор
(Узбекистан)

Якубов Жамалиддин
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Вёрстка: Шахрам Файзиев

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/;
Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/;
Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

№4 (2023)

Chief Editor:

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

Ismailov Salokhiddin
Cand.of phil.sciences, assistant professor (Uzbekistan)

EDITORIAL BOARD:

Bakirov Poyon
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Bakieva Gulandom
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Dadaboev Khamidulla
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Eltazarov Juliboy
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Isakova Nodira
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Kiselyov Dmitriy
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Habib Said Mohammad Alem
doc.of phil.scien. (Afg'oniston)

Mamatov Abdi
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Rahmatulla
lawyer, assoc.prof. (Uzbekistan)

Mirzokhidova Muyassar
Doc. of phil. scien., prof. (Kirghizistan)

Nadim Mohammad Humoyun
PhD (Afg'oniston)

Pardaev Azamat
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Kadirova Barno
Secretary, PhD, assoc.prof. (Uzbekistan)

Kulmamatov Dusmamat
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Rasulov Ravshankhuja
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Safarov Shakhriyor
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Shakhobiddinova Shokhida
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Sobirov Anvar
PhD (Uzbekistan)

Tagayeva Sayyora
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Ubaydullayeva Maftuna
PhD, assoc.prof. (Uzbekistan)

Ulukov Nosirjon
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Umurkulov Bekpulat
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Hasanov Ahmad
senior secretary, PhD (Uzbekistan)

Hayrullaev Hurshid
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Yuldashev Kazakbay
Doc. of ped. scien., prof. (Uzbekistan)

SCIENTIFIC ADVISORY COUNCIL:

Abdiev Murodkosim
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Bakaeva Mukhabbat
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Berdaliev Abduvali
Doc. of phil. scien., prof. (Tajikistan)

Jabborov Khojamurod
Doc. of phil. scien., assoc.prof. (Uzbekistan)

Karimov Suyun
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Mamatov Abdugafur
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Muminov Siddik
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Rakhimov Ganisher
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Sayfullaeva Rano
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Suvonova Nigorabonu
Cand. of phil. sciences, assoc.prof. (Uzbekistan)

Tukhtasinov Ilhom
doc.of ped. scien. (Uzbekistan)

Yakubov Jamoliddin
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Pagemaker: Shakhram Fayziev

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/;
Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/;
Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

MUNDARIJA\СОДЕРЖАНИЕ\CONTENT

T I L SH U N O S L I K

1.O.Shukurov
Zamonaviy o'zbek tili leksikasida o'zlashma so'zlar talqini.....7
2.M.Abjalova
UzNET - o'zbek tili leksikonini qamragan semantik tizim.....17
3.A.Faleeva
Theoretical and practical research of the formation of colloquialistics of the english language in level interpretation.....30
4.D.Mamirova
Reklama matnlarida parsellyatsiyaning o'rni.....39
5.Ш.Худайберганов
Об изучении идиоматических выражений в аспекте лингвокультурологической науки.....47
6.М.Зайниева
Матннинг глобал синтактик қурилма сифатидаги табиати ва унинг инглиз тилшунослигида ўрганилишига бир назар.....55
7.F.Xamrayev
Tilning o'zidagi nomlash an'anasi va uning tarixiy ildizlari xususida.....63
8.O.Matyakubov
Kognitiv lingvistikada modallik kategoriyasining talqin va tadqiqoti (fransuz va o'zbek ertaklari va naqllari namunasi asosida).....72
9.B.Nurmuxammedov
Toponimikaga oid termin va tushunchalar tavsifi.....86
10.M.Uliqova
"Qon-qarindosh"konseptini morfologik va sintaktik sathda ishlatilishi.....96

T A' L I M SH U N O S L I K

11.M.Ubaydullayeva
"Alpomish" dostonini o’qitishda talabalarni faollashtirish yo’llari.....106

T A R J I M A SH U N O S L I K

12.Д.Юлдашева
Эдуард сепир ва унинг "тил" асари ҳақида.....112
13. F.Ruzimurodova
Badiiy tarjimada dekonstruksiya.....119
14.A.To'xtamishev
Xitoy tilidagi 是shì unsurining bog'lovchi hamda ta'kid ma'nolarida muqobillashuvi xususida.....127

T A Q R I Z

Ф.Хаитова
Х.Абдураҳмоновнинг "Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар" асарига тақриз.....137

TIL, TA'LIM, TARJIMA
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

TILSHUNOSLIK

Shukurov Otabek
DSc, dotsent
Qarshi davlat universiteti,
Qarshi, Uzbekiston
otabekshukurov1@mail.ru

ZAMONAVIY O'ZBEK TILI LEKSIKASIDA O'ZLASHMA SO'ZLAR TALQINI

ANNOTATSIYA

Maqola globallashuv sharoitida tillarning xavfsizligi va rivojlanish tendensiyalari xususida bo'lib, o'zbek tilining istiqbol yo'nalishlarini belgilashda globallashuv jarayonining ta'sir etuvchi omillari o'rganilgan. Muhimi, o'zlashmalar orasidagi inglizcha birliklarga shakllanayotgan yangi qatlam sifatida baho berilgan. Maxsus kuzatishlar yangi davr o'zlashmalarining aniq misollari asosida ko'rsatib berilgan. Bundan tashqari, o'zlashmalar hamda semantika bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan tilshunoslarning fikrlariga tayanilgan va o'rni bilan munosabat bildirilgan. So'nggi yillarda paydo bo'layotgan hamda so'zlashuv jarayonida qo'llanayotgan neologizmlarning keng ommalashayotgani e'tirof etilgan. Ularning bu jarayonda tez ommalashishi adabiy tildan, o'zbek tilining lug'at fondidan munosib o'rin olish ehtimolini oshirishi bilan belgilangan.

Kalit so'zlar: so'z, neologizm, globallashuv, o'zbek tili, tillarning ta'siri, tilning boyishi, semantika.

Shukurov Otabek
DSc, Associate Professor
Karshi State University,
Karshi, Uzbekistan
otabekshukurov1@mail.ru

INTERPRETATION OF LOANWORDS IN THE VOCABULARY OF THE MODERN UZBEK LANGUAGE

ABSTRACT

The article discusses trends in the security and development of languages in the context of globalization, as well as factors influencing the process of globalization in determining the future direction of development of the Uzbek language. It is important to note that English units between borrowings were evaluated as a new layer being formed. Special observations are made on the basis of specific examples of borrowings from the new period. In addition, the opinions of linguists who carried out research work on borrowings and semantics were based on and commented on. It is recognized that neologisms that have emerged in recent years and are used in colloquial speech are becoming increasingly popular. Their rapid popularity in this process was seen as an increase in the likelihood of taking a worthy place in the literary language, in the vocabulary of the Uzbek language.

Keywords: lexis, loan word, neologism, globalization, Uzbek language, interaction of languages, language enrichment, semantics

Шукуров Отабек
DSc, доцент
Каршинского государственного университета,
Карши, Узбекистон
otabekshukurov1@mail.ru

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЗАИМСТВОВАННЫХ СЛОВ В ЛЕКСИКЕ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются тенденции безопасности и развития языков в условиях глобализации, а также факторы, влияющие на процесс глобализации в определении будущего направления развития узбекского языка. Важно отметить, что английские единицы между заимствованиями оценивались как формирующийся новый слой. Специальные наблюдения сделаны на основе конкретных примеров заимствований нового периода. Кроме того, опирались и комментировали мнения лингвистов, проводивших научно-исследовательскую работу по заимствованиям и семантике. Признано, что неологизмы, возникшие в последние годы и употребляемые в разговорной речи, становятся все более популярными. Их стремительная популярность в этом процессе рассматривалась как увеличение вероятности занять достойное место в литературном языке, в словарном фонде узбекского языка.

Ключевые слова: лексика, заимствованое слово, неологизм, глобализация, узбекский язык, взаимодействие языков, обогащение языка, семантика

Jahon tilshunosligida yigirmanchi asr oxirlaridan boshlab o'z ona tilini va uning milliy tabiatini saqlab qolishga intilayotgan har bir xalq uchun zamonaviy o'zlashmalar masalasi alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Xalqaro miqyosdagi globallashuv jarayonida Internet fenomenining sezilarli kuchga ega bo'lishi, o'z navbatida, tillararo so'z o'zlashtirishning faollashuvi va zamonaviy o'zlashmalarning tillararo xaotik yoyilishi bilan bog'liq dolzarb muammolarni yuzagachiqarmoqda.Shu sababli dunyo tilshunosligidaretsipiyent tildagi zamonaviy o'zlashmalarning muqobillarini to'g'ri aniqlash, tavsiflash va ularning izohli lug'atini yaratish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda yangi o'zlashayotgan birliklarni tarkibiy-mazmuniy tahlillar asosida o'rganish va o'zlashtirishda tilning milliy tabiatiga muvofiqligi, assimilyatsiyasi hisobga olinishi muhimligini talab etmoqda.

Dunyo tillarining madaniyatlararo globallashuvi sharoitida ularning o'z ontologik tabiatini saqlab qolishi, aktual leksikada o'z qatlam so'zlari faolligini ta'minlab borish, takomillashayotgan sun'iy intellektga tilning algoritmik dasturini tayyorlash ishlari doirasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, so'z o'zlashtirish masalasi yangi soha bo'lgan neologiya va neografiyaning istiqbolli yo'nalishlari doirasida til sistemasidagi leksika, lug'atchilik, lingvomadaniyatshunoslik hamda chog'ishtirma tilshunoslik sohalari bilan bog'liq holda tadqiq etilyapti.

O'zbek tili leksikasiga aksariyat zamonaviy o'zlashmalar raqamli media orqali kirib kelmoqda. Muhimi, istiqlolgacha bo'lgan davr so'z o'zlashtirilishida rus tilining vositachilik roli yetakchilik qilgan bo'lsa, yangi davr o'zlashmalarining esa yevropa tillaridan to'g'ridan-to'g'ri so'z olish asosida barqarorlashishi kuzatilyapti. So'z o'zlashtirish jarayoni jiddiy faollashgani sababli o'zbek tilining ontologik xususiyatlarini ko'proq hisobga olish, o'zlashmalarni tilning milliy tabiatiga muvofiq holda qabul qilish ehtiyoji ham ortib boryapti. "Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir" [1, 49]. Mazkur vazifalardan kelib chiqqan holda, xususan, mustaqillik davri o'zlashma so'zlarining talqini, adabiy til leksik qatlamining genetik manbalari, leksik fondga ta'sir etuvchi omillar, o'zlashmalarning leksikografik tavsifi, semantik taraqqiyoti va transformatsiyasi kabi masalalarning o'rganilish zaruratini taqozo etadi. Bu esa bevosita tanlangan mavzuning dolzarbligi va zaruratini belgilaydi.

O'zbek tilshunosligida o'zlashma so'zlar muammolari o'z davri ehtiyojiga ko'ra o'rganib kelindi. Ularning tadqiqi sohaning turli aspektiga muvofiq sobiq Sho'ro davrida tadrijan davom etdi. Shuningdek, mustaqillik yillarida T.Rahmonov, A.To'raxojayeva, U.Qo'ziyev, Sh.Jo'rayev, N.Isakova, E.Davlyatova kabi tilshunoslarning ishlari alohida e'tiborga loyiq. Bundan tashqari, leksikadagi o'zlashma so'zlarni tavsiflash alohida maqsad qilingan qator lug'atlar ham yaratildi.

Zamonaviy o'zbek tili leksikasi o'z taraqqiyot tendensiyalari va unga ta'sir etuvchi omillarga ega. Ayniqsa, globallashuv jarayonida tillar munosabati hamda leksik fondga ta'sir etuvchi omillar muhim ahamiyat kasb eta boshladi. So'nggi yillardagi globallashuv sharoiti, boshqa sohalar kabi, til fenomeniga ham o'zining sezilarli ta'sirini o'tkaza boshladi. Bu jarayonda tilning xavfsizligi, rivojlanish tendensiyalari va raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida tilshunoslar tomonidan hamda hukumat darajasida bajariladigan muayyan vazifalar ham belgilab olinishi talab etiladi. Albatta, bularning barchasi ta'lim jarayoni uzluksizligida davlat tili o'qitilishini pragmatik va antropotsentrik mazmunda tashkil etish, yoshlarga so'z o'zlashtirish va xorijiy so'zlarga bo'lgan munosabatning adekvat yo'llarini tushuntirish masalalari talqinida ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Sun'iy intellekt, Internet boshqaruvida yetakchilik qilayotgan va shu orqali o'z innovatsiyalari nomlarini retsipiyent tillarga muntazam ravishda singdirib borayotgan

nufuzli tillarning ta'siri qisqa vaqt ichida katta hajmdagi o'zlashmalar ko'lamini hosil qildi. Bunday konyunktura uchun tillarning o'zaro aloqasi, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, savdo-sotiq, madaniy aloqa, migratsiya, urbanizatsiya, fan-texnikaning rivojlanishi, Internet diskursi, raqamli media va ijtimoiy tarmoq kabilar kuchli ta'sir vositalar hisoblanadi. Ayni paytda bunday omillar leksikaga jiddiy ta'sir o'tkazuvchi ahamiyatga ega.

So'z o'zlashishining o'rganilish tarixi jiddiy tadqiq etilar ekan, ular asosida chiqarilgan umumiy xulosalar yakunida ayni bir muammo va vazifalar ham yuzaga chiqadi. Jahon tilshunosligida o'zlashma so'zlarning o'rganilishi I.A.Boduen de Kurtene, V.Bets, U.Vaynrayx, L.P.Yefremov, N.S.Avilova, E.Xaugen, B.N.Zabavnikov, V.V.Vinogradov, G.G.Timofeyeva kabi tilshunoslarning ishlari bilan bog'liq. O'zlashmalar haqidagi dastlabki fikrlar uzoq davrlarga borib taqaladi. Jumladan, Platonning "Kratil yoki ismlarning to'g'riligi haqida"[2, 49]gi dialogda ham so'z o'zlashtirish haqida ma'lumotlar mavjud.

Rus tilida esa bu mavzu tarixi haqida tugal fikr-mulohazalarni L.P.Yefremovning nomzodlik dissertatsiyasida uchratish mumkin. U so'z o'zlashtirishning asosiy belgilarini tahlil qilgan, so'z o'zlashtirish va kalkalash hodisalarini farqlashga uringan tadqiqotchi hisoblanadi [3, 18]. O'tgan asrning 60-yillardagi tadqiqotlarida "so'z o'zlashtirish", "o'zlashma" terminlarining ishlatilishi o'ziga xos pallaga kirdi. Bu bilan bog'liq masalalar L.P.Krisin [4, 39], A.V.Shcherba [5, 44], V.M.Aristova [6, 58]ning ilmiy tadqiqotlarida ham tahlilga tortilgan.

Turli olimlarning o'zlashmalar mavzusida olib borilgan uzoq yillik tadqiqotlari A.Kazkenovaning "O'zlashma so'z ontologiyasi" nomli monografiyasida jamlanib o'rganildi. Unda so'z o'zlashtirish jarayonining rivojlanish tarixi ko'rsatib berildi va xronologik tartibda davrlashtirildi [7, 9].

Turkiy tilshunoslikda ham o'zlashma so'zlarning o'rganilishi uzoq tarixga ega. Jumladan, Mahmud Koshg'ariy "...tilda mavjud so'zlar o'rnida boshqa til so'zini qo'llashni zararli deb hisoblaydi" [8, 36]. "Shajarai tarokima" asarida esa "...bizdin burun turkiy tarix aytqanlar. Arabiy lafzlarini ... va forsiyni ham qo'shub tururlar, ... o'zlarining hunarlarin va ustodliqlarini xalqg'a ma'lum qilmaq uchun" [9, 37], deya ta'kidlanadi.

O'tgan asrning 40-yillariga kelib o'zlashmalar masalasi o'zbek tilshunosligining o'ziga xos ilmiy muammosi sifatida tadqiq etila boshlandi. Xususan, arabcha, fors-tojikcha, ruscha va boshqa tillar kesimida F.Abdullayev, T.I.Rahmonov B.Eshonqulov, J.Hamdamov I.Asfandiyorov, E.Begmatov, A.Hojiyev kabilarning ishlarida tadrijiy ravishda tadqiq etildi.

O'zlashma so'zlar lug'at sifatida ilk bor O.Usmonovning "Qisqacha internatsional so'zlar lug'ati" (1959), keyinchalik O.Usmonov, R.Doniyorovlar hammuallifligidagi "O'zbek tilidagi ruscha-internatsional o'zlashtirma so'zlar izohli lug'ati" (1965), Y.Hamrayevaning "O'zbek tilining o'zlashma so'zlar o'quv izohli lug'ati" (2007), M.Qurbonova, M.Abjalova, N.Axmedova, R.To'laboyevalarning "O'zbek tili o'zlashma so'zlarining urg'uli lug'ati" (2021) kabilarda jamlanib nashr etildi. E.Begmatovning "Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari", A.Hojiyevning "Sovet davrida o'zbek adabiy tilining taraqqiyoti" (3-jild) asarlarida o'zlashma so'zlar tadqiqiga keng o'rin ajratildi. Shu bilan birgalikda, D.Hasanova, A.To'raxojayeva, U.Qo'ziyev, Sh.Jo'rayev, A.Xudoykulov, N.Isakova, E.Davlyatova, S.Ruzmetov kabilarning tadqiqotlari bevosita yoki bilvosita holda mustaqillik davri o'zlashmalarini o'rganishga qaratilgani bilan ahamiyatli hisoblanadi. Istiqloldan so'ng yevropa tillaridan to'g'ridan-to'g'ri so'z olish jarayoni jadallashdi. Bu o'zlashmalar ko'proq inglizcha so'zlar misolida namoyon bo'lyapti. Shunday bo'lsa-da, "O'zbek tilidagi xorijiy o'zlashmalarning meyori va milliyligi masalasi ma'naviy-madaniy sohalar doirasida favqulodda ahamiyatga molik ekanligini hamisha yodda tutish lozim" [10, 8].

Tadqiqotchilarning ishlariga umumiy jihatdan yondashib aytish mumkinki, so'z o'zlashtirish bilan bog'liq muammolarning zamirida leksikaga ko'proq kalkalash usuli

asosida so'z qabul qilish, imkoni topilmaganda tilning o'ziga xos tabiati asosida o'zlashtirish yo'li ustuvor sanaladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili leksik qatlamining genetik manbalari rang-barang. Shuningdek, leksikadagi o'z va o'zlashma qatlam so'zlarining ulushi ham leksikani tadqiq etuvchi mutaxassislarning diqqatini tortishi tabiiy.

"O'zbek tili izohli lug'ati" [11]ning 2020-yil nashridagi jami so'zliklar soni 32549 ta bo'lib, o'z qatlam 20437, o'zlashma qatlam esa 12112 leksemadan iborat. Lug'atda 29 manba til birliklari asosida shakllangan o'zlashtirmalar leksikaga to'g'ridan to'g'ri yoki vosita til orqali o'zlashgan.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da 3549 ta forscha, 3473 ta arabcha so'z izohlangan. Forscha so'zlarning o'zbek tili lug'at boyligiga kirib kelish davri arabcha so'zlarga qaraganda ilgariroq bo'lib, ko'pchiligi xalq turmush tarzi bilan bog'liq kundalik muloqot so'zlariga aylanib ulgurgan. Arabcha o'zlashmalarning salmoqli qismi ta'lim-tarbiya va madaniy-ma'rifiy mazmundagi birliklardir. Leksikadagi arabcha so'zlarning boshqalaridan farqli xususiyati ularda barqarorlashgan "algoritmik" tuzilishning mavjudligidir. Ayniqsa, ularning manba til jihatidan ko'proq uch undoshdan iborat bo'lishi hisobga olinsa, muayyan qoliplar muntazamligida arabcha asosdosh o'zlashmalar assotsiatsiyasi paydo bo'ladi: nur, anvar, tanovar, munavvar. Bu esa leksikografiyada arabcha genetik asosli o'zlashma so'zlar lug'atini tuzish mumkinligini asoslaydi. Arabcha asosdosh so'zlarning semantik aloqasi muayyan paradigma sifatida kuzatilganda yaqqol seziladi. Albatta, bunday lug'atning yaratilishi mumtoz adabiyotni o'rganuvchi maktab o'quvchilari hamda matnshunoslik bilan shug'ullanuvchi talabalar uchun muhim manba hisoblanadi.

Akademik A.Hojiyev sobiq sovet davri o'zbek adabiy tilining taraqqiyoti bilan bog'liq hodisalarga baho berar ekan, "semantik kalkalash yo'li bilan yangi ma'no hosil bo'lishi yangi ma'no hosil qilishning eng asosiy yo'li hisoblanadi", - deya ta'kidlaydi [12, 172]. E.Begmatov o'zbek tili leksikasining o'z baza, o'zga baza, kalkalash bazasi [13, 103] kabi uch lug'aviy bazaga tayanishini, shunga ko'ra o'zbek tili lug'at boyligidagi so'zlarni o'z qatlam so'zlar, o'zlashma qatlam so'zlar va leksik kalkalar kabi sektorga bo'lish o'rinliligini yozadi. Keyingi davr manbalarida ham aynan shunday yondashuv ommalashgani kuzatiladi.

XX asrning oxirlaridan boshlab nafaqat o'zbek tiliga, balki sobiq ittifoq tarkibidagi turkiy tillarga so'z o'zlashtirishda ham rus tilining vositachilik roli passivlashib, to'g'ridan-to'g'ri so'z o'zlashtirish jarayoni faollashdi [14, 71]. Shunga muvofiq globallashuv sharoitidagi virtual makon ta'sirida inglizcha so'zlar bilan "to'yingan" Internet fenomeni motivlovchi omil vazifasini bajaryapti.

O'zlashma neologizmlar zamonaviy tilshunoslikning o'rganish obyekti sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Obyektiv borliqdagi yangi narsa-hodisa, ya'ni referent kishilik ongida aks etar ekan, paydo bo'lgan tushuncha fonetik jihatdan shakllanib, ma'no hosil qiladi va so'z maqomiga ega bo'ladi. Yangi so'z - neologizm hisoblansa-da, leksikada mustahkam o'rin olgan til birligi emas. U tilning zaxira boyligidan o'rin olishi uchun ma'lum muddat davomida lisoniylashish bosqichida bo'ladi. Bunday tadrijiylik jarayoni yangilik bo'yog'ining yo'qolishigacha bardavom bo'ladi. Dastlab yangi o'ylab topilgan yoki kashf etilgan so'z protologizm, matbuot, veb-sayt, kitoblarda paydo bo'lish, nashr etilish davridagi so'z prelogizm, ommaga yoyilgan, kishilarning ongida umumiy tushuncha sifatida shakllangan so'z neologism [15, 59] sanaladi. Biroq barcha yangi birliklar ham bu bosqichlarni to'la-to'kis bosib o'tib, leksikada muqimlasha olmaydi. Ayrim mutaxassislarning fikricha, tilshunoslikda leksik innovatsiyalarni aniqlashning mukammal mezoni ishlab chiqilmagan. Bu holat neologizmlarni leksikaga saralash imkoniyatini to'g'ri belgilash uchun lug'at tuzuvchi va tadqiqotchilar orasida turlicha va ziddiyatli yondashuvlar yuzaga kelishiga sabab bo'lyapti [16, 222].

Neologizmlarni o'rganadigan soha neologiya, lug'at sifatida jamlash ishlari bilan

shug'ullanuvchi soha esa neografiya [17, 11] nomi bilan shakllanyapti. Rus tilida mazkur mavzu borasida qilingan ishlar tahlilida neologizm termini dastlab yangi so'z, keyinchalik esa yangi shakldagi turg'un birikma, erkin birikma va kalkalab olingan birliklarni ham atay boshladi. Keyingi tadqiqotlarda ularni farqlashga urinishlar natijasida variantdosh terminlar paydo bo'ldi va ularni tartibga solish va unifikatsiya qilish [18, 170] muammosi yuzaga keldi.

XX asr boshlarida ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar o'laroq so'z o'zlashtirish jarayoni jadallashdi va tilga e'tiborli jadid ziyolilar esa bunga o'z vaqtida faol munosabatda bo'ldi. Jumladan, Elbek tomonidan matbuotda 550 ta turkiy so'z o'z muqobillari bilan birga e'lon qilindi [19, 15]. Bundan ko'zlangan maqsad arab, fors va rus tillaridan kirib kelgan o'zlashma so'z, terminlarga adekvat o'zbekcha muqobil topish edi [20, 15]. A.Fitrat ham boshqa tillardan so'z olish uslubning sofligiga zarar berishini e'tirof etdi [21, 47]. Mavzu haqidagi yangicha ilmiy qarashlar yaratilgan o'quv adabiyotlarida ham aks etib bordi. O'zbek tilida neologizmlarni ilmiy planda o'rganish asosan XX asrning 60-yillaridan boshlandi. Keyingi davrlarda mavzu bilan aloqador maqola, dissertatsiyalar ko'zga tashlansa-da, o'zbek tilshunosligida bevosita neologizmlar masalasini o'rganishga bag'ishlangan maxsus ilmiy tadqiqot ishi yaratilmadi.

O'zlashmaso'zlarning muhim bir xususiyati retsipiyent tildao'zaro aloqadorlik asosida guruh-guruh yoki muayyan sistema - butunlik doirasida leksikadan o'rin olishidir. Tizim tarkibidagi birgina so'zning yangi lug'at boyligida muqimlashishi shu sistema ichidagi boshqa so'zlarning o'z atrofida o'rinlashishi uchun ehtiyoj yaratadi. Masalan, reyting so'zi o'zi bilan bog'liq assotsiatsiyahosil qiladigan antireyting, top so'zlari bilan; kriptovalyuta so'zi, blokcheyn, forjing, bitkoin, mayning, mayner (shuningdek, kalkalab olingan raqamli valyuta, elektron hamyon) kabilar bilan bog'lanadi.

Zamonaviy o'zbek tili leksikasida o'zlashma so'zlar talqini o'ziga xos bo'lib, ularni o'zbek tili leksikasiga o'zlashtirish bilan bog'liq ayrim tavsiyalarni keltirib o'tish mumkin.

1. Bugungi kun globallashuv sharoitining leksikaga kuchli ta'siri va so'z o'zlashtirishning faollashuvi jarayonidan kelib chiqib kalkalash usuli so'z o'zlashtirishdagi ustuvor yo'l sifatida tanlanishi lozim.

2. O'zlashmalarni qabul qilishda rus tilining vositachiligidan uzoqlashish masalasi ham vazifa sifatida belgilanishi kerak. Leksikaga to'g'ridan-to'g'ri so'z o'zlashtirishda o'zbek tilining imkoniyatlari vositachi tilga qaraganda kengroq.

3. O'zlashayotgan so'zlar o'rniga sheva imkoniyatlaridan foydalanishning nazariy asoslarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

4. O'zlashma neologizmlarni to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirishga qaraganda yangi so'z yasash usullariga tayanish hamda tilning zaxira boyligidagi birliklarga ma'no yuklash usuli ham istiqbolli yo'l sanaladi.

5. O'zbek tilshunosligida o'zlashma so'zlarning imlosi muammosi maxsus tadqiq qilinmog'i lozim.

6. Kalkalab olinayotgan zamonaviy o'zlashmalar yoki tilning milliy tabiati asosida qabul qilinayotgan muqobil birliklarni ta'lim usuli asosida - ona tili darsliklari mashqlari orqali semantik, imlo, talaffuz va boshqa jihatlari bilan bog'liq xususiyatlarini singdirib borish ijobiy natija beradi.

7. Leksikaga o'zlashmagan, biroq kundalik muloqotda faollashayotgan birliklarni neologizmlarning o'zaro aloqadorlikda yaratiladigan davriy (seriyali) lug'atlarida aks ettirib borish muhim hisoblanadi. Ularni bir butun keys holida to'plash leksikaning istiqbolli yo'lini belgilash uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, zamonaviy o'zlashmalarning tilga tez singishini bugungi dunyo innovatsiyalari neonominatsiyalarining leksikaga oson qabul qilish yo'li sifatida tushunish mumkin. O'zlashmalarning ortishi retsipiyent til leksikasining miqdor va sifatiga ko'ra

ta'sir etishi bilan xarakterlidir. Muhimi, aktual leksikaga ta'sir o'tkazish omili bilan belgilanadi.

O'zbek tili leksik qatlamining genetik manbalari izohli lug'atdagi leksemalarning umumiy hisobiga ko'ra statistik jihatdan tahlil etildi. Bunda o'z qatlam so'zlari ulush jihatidan yetarlicha miqdorga ega, o'zlashma qatlam so'zlarining unga nisbatan tashkil etish nisbati esa meyor darajasida saqlangandir. O'zlashmalar orasida forscha va arabcha so'zlar aktual leksikasida faolligi bilan ham salmoqli o'rin egallaydi.

Mustaqillik davri so'z o'zlashtirish jarayonida rus tilining vositachilik roli passivlashib, yevropa tillaridan to'g'ridan-to'g'ri so'z olish tendensiyasi faollashgani bilan xarakterli bo'ldi. Bunday o'zlashtirishlarda xalqaro kommunikatsiya va kompyuter terminlari uchun metatil vazifasini bajarayotgan inglizcha birliklarning nisbati sezilarli darajada o'sdi.

Tilda yangi paydo bo'lgan so'zlar lug'atlashishiga qadar o'z bosqichiga ega: protologizm - yangi o'ylab topilgan/kashf etilgan so'z; prelogizm - matbuot, veb-sayt, kitoblarda paydo bo'lish, nashr etilish davridagi so'z; neologizm - ommaga yoyilgan, ularning ongida umumiy tushuncha sifatida shakllangan so'z. Yakuniy bosqichdan so'ng ular lug'atlashgan so'z sifatida barqarorlashadi hamda yangilik bo'yog'ini yo'qotadi.

So'z o'zlashtirishda rus tilining vositachilik roli ayrim sohalarda barqaror ko'rinishda saqlanib qolyapti. Imkon qadar bilvosita jarayondan uzoqlashish, to'g'ridan-to'g'ri manba til so'zlarini qabul qilishga o'tish til manfaatiga qaratilgan adekvat yo'l sifatida qaraladi.

O'zlashma atama neologizmlarning leksikadagi hissasi salmoqli bo'lib, bir necha lug'aviy-ma'noviy guruhlar yuzaga kelgan. Paydo bo'layotgan neym neologizmlarni ko'proq o'z qatlam zaxira so'zlari asosida shakllantirish, zarur o'rinlarda dunyo madaniyati nomlash modellari tajribasiga tayanish ham muhim rol o'ynaydi.

Leksikadagi o'zlashmalarning semantik transformatsiyasi mustaqillikkacha va mustaqillikdan so'ng yaratilgan izohli lug'at birliklari qiyosida farqlanadi. O'zlashmalardagi bunday o'zgarishlar nom ko'chish usullari, asosan, metafora bilan bog'liq.

Yangi davr o'zlashmalarining transformatsion darajalanishi asos ma'nosida qo'llanuvchi, asos ma'nosi qisman o'zgargan, asos ma'nosidan uzilgan leksemalar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Yangi o'zlashmalarni umumiy izohli yoki imlo lug'atlarida aks ettirib borish Internet va ijtimoiy tarmoq muntazam foydalanuvchilarining so'z o'zlashtirish sur'atidan sezilarli darajada ortda qolayotgani bilan ham xarakterlidir. Ularga tayanch manba sifatida seriyali o'zlashma neologizmlar lug'atini nashr etib borish ishlari ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Shuningdek, mustaqillik davri o'zlashmalari izohli lug'atini yaratish ham bugungi kun uchun dolzarb hisoblanadi.

Sinergetik jarayonda lug'at zaxira boyligida yangi o'zlashma so'zlar leksemalashuvining barqarorligi assotsiatsiyadagi xorijiy til birliklarining o'z atrofida birlashishini mustahkamlaydi.Natijadaretsi piyent tildao'zlashmalarning assotsiatsiyaviy sistemasi tashkil topadi. Ularning shakllanish meyori o'ziga xos, sifat va miqdor belgilari davriylik jihatidan farqlanadi.

Lisoniy jihatdan barqarorlashgan zamonaviy o'zlashmalarning leksikografik jihati bilan bog'liq ayrim muammoli masalalar ko'zga tashlanadi. Ular qatoriga barqarorlashgan istiqlol davri o'zlashmalarini o'quv va umumiy izohli lug'atlarda aks ettirish, lug'atlarda mavjudlarini esa ma'no hajmi kengayishi yoki torayishiga muvofiq leksikografik tavsiflash kabilar kiradi.

Tilning lug'at boyligida o'zlashma so'zlar ortishi bilan uning milliy tabiatida ayrim o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu o'zgarishlar ko'proq leksik, fonetik va uslubiy sathlar bilan aloqador, umuman olganda, yaxlit til sistemasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bundan tashqari, ular tilga singishar ekan, til ham, o'z navbatida, shu millatning madaniyatiga ta'sir etishi bilan xarakterlanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, zamonaviy o'zbek tili leksikasi taraqqiyotida yangi o'zlashma so'zlarning o'rni alohida e'tiborga olinishi kerak. Globallashuv sharoitida tillarning xavfsizligi va rivojlanish tendensiyalari masalasi muhim bo'lib, o'zlashma so'zlar fenomeni o'zbek tilining istiqbol yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сон "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони. // www.lex.uz (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. // www.lex.uz)
2.Античные теории языка и стиля (антология текстов) / Под ред. О.М. Фрейденберг. - СПб.: Алетейа, 1996. - С. 364. (Antichniye teorii yazika i stilya (antologiya tekstov) / Pod red. O.M. Freydenberg. - SPb.: Aleteya, 1996. - S. 364.)
3.Ефремов Л.П. Сущность лексического заимствования и основные признаки освоения заимствованных слов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Алма-Ата, 1959. - С. 22. (Yefremov L.P. Sushnost leksicheskogo zaimstvovaniya i osnovniye priznaki osvoyeniya zaimstvovannix slov: Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. - Alma-Ata, 1959. - S. 22.)
4.Крысин Л.П. Иноязычные слова в современном русском языке. - М.: Наука. 1968. - С. 208. (Krisin L.P. Inoyazichniye slova v sovremennom russkom yazike. - M.: Nauka. 1968. - S. 208.)
5.Щерба Л.В. О понятии смешения языков // Избранные работы по языкознанию и фонетике. Т. 1. - Л., 1958. - С. 40-53. (Sherba L.V. O ponyatii smesheniya yazikov // Izbranniye raboti po yazikoznaniyu i fonetike. T. 1. - L., 1958. - S. 40-53.)
6.Аристова В.М. О лексических заимствованиях из английского языка в русский язык в XVII-XVIII вв. - М.: Высшая школа. - 1978. - С. 113. (Aristova V.M. O leksicheskix zaimstvovaniyax iz angliyskogo yazika v russkiy yazik v XVII-XVIII vv. - M.: Visshaya shkola. - 1978. - S. 113)
7.Казкенова А.К. Онтология заимствованного слова. - М.: Флинта, 2013. - С. 248. (Kazkenova A.K. Ontologiya zaimstvovannogo slova. - M.: Flinta, 2013. - S. 248.)
8.Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. - Тошкент: Ўқитувчи, 1982. - 176 б. (Tursunov U., O'rinboyev B. O'zbek adabiy tili tarixi. - Toshkent: O'qituvchi, 1982. - 176 b.)
9.Баҳодирхон А. Шажарайи тарокима (Нашрга тайёрловчи Қ.Маҳмудов). - Тошкент: Чўлпон, 1995. - 48 б. (Bahodirxon A. Shajarayi tarokima (Nashrga tayyorlovchi Q.Mahmudov). - Toshkent: Cho'lpon, 1995. - 48 b.)
10.Маҳмудов Н. Ўзбек тилида ўзлашма сўзлар: меъёр ва миллийлик // Ўзбек тили ва адабиёти. 2010. 6-сон. - Б. 3-10. (Mahmudov N. O'zbek tilida o'zlashma so'zlar: meyor va milliylik // O'zbek tili va adabiyoti. 2010. 6-son. - B. 3-10.)
11.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. - Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2020. (O'zbek tilining izohli lug'ati. V jildli. - Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2020.)
12.Ҳожиев А. Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти. III жилдли. III жилд. Сўз ясалиши ва лексика. -Тошкент: Фан, 1988. - 172 б. (Hojiyev A. Sovet davrida o'zbek adabiy tilining taraqqiyoti. III jildli. III jild. So'z yasalishi va leksika. - Toshkent: Fan, 1988. - 172 b.)
13.Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари, - Тошкент: Фан, 1985. - 200 б. (Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari, - Toshkent: Fan, 1985. - 200 b.)
14.Мирзоева Г. Английские заимствования в тюркских языках // Молодий вчений. Херсон. №12 (88) 2020. - С. 69-72. (Mirzoyeva G. Angliyskiye zaimstvovaniya v tyurkskix yazikax // Molodiy vcheniy. Xerson. №12 (88) 2020. - S. 69-72.)
15.Patrizia A. Lexical Innovation in World Englishes: Cross-fertilization and Evolving Paradigms. - London: Routledge, 2018. - 174 pp.

16.Smyk-Bhattacharjee D. Lexical Innovation on the Internet - neologisms in blogs: - Diss. Doctor of Philosophy. - Zurich, 2009. - 225 p.
17.ПоповаТ.В. Русская неология инеография. - Екатеринбург: ГОУВПОУГТУ-УПИ, 2005. - С. 96. (PopovaT.V. Russkaya neologiya ineografiya. - Yekaterinburg: GOUVPOUGTU-UPI, 2005. - S. 96.)
18.Костомаров В.Г. Языковой вкус эпохи. Из наблюдений над речевой практикой масс-медиа. - М.: Златоуст, 1994. - С. 293. (Kostomarov V.G. Yazikovoy vkus epoxi. Iz nablyudeniy nad rechevoy praktikoy mass-media. - M.: Zlatoust, 1994. - S. 293.)
19.Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожида Элбекнинг роли: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. - Тошкент: 2002. - 71 б. (Bobomurodova Sh. O'zbek tilshunosligi rivojida Elbekning roli: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. - Toshkent: 2002. - 71 b.)
20.Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожида Элбекнинг роли: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. - Тошкент: 2002. - 71 б. (Bobomurodova Sh. O'zbek tilshunosligi rivojida Elbekning roli: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. - Toshkent: 2002. - 71 b.)
21.Фитрат А. Танланган асарлар. V жилдли. IV жилд: дарслик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар. - Тошкент: Маънавият, 2006. - 366 б. (Fitrat A. Tanlangan asarlar. V jildli. IV jild: darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar. - Toshkent: Ma'naviyat, 2006. - 366 b.)

ТИЛ, ТАЪЛИМ, ТАРЖИМА
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Manzura Abjalova
Dotsent, filologiya fanlari doktori (DSc)
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Toshkent, O'zbekiston
abjalova.manzura@gmail.com

UzNET - O'ZBEK TILI LEKSIKONINI QAMRAGAN SEMANTIK TIZIM

ANNOTATSIYA

Hozirgi vaqtda bilim bazalarining eng keng tarqalgan shakli ontologik turdagi leksik bilimlar bazasi hisoblanadi. Lingvistik ontologiya axborot qidirish, matnni tahlil qilish, avtomatik tarjima, bilimlarni yig?ish kabi jarayonlar uchun yirik semantik tizim hisoblanadi. Hozirda o'zbek tilida so'zlashuvchilar soni 40 mln.ga yaqin, o'zbek tilidan foydalanuvchilar esa 50 mln.dan ortiq sonni tashkil etadi. Bundan ayon bo'ladiki, raqamlashtirilgan texnologiyalar asrida o'zbek tili doirasida ko'plab texnologik ishlarni amalga oshirish uchun WordNet tipidagi UzNet ontologiyasini yaratishni taqozo etadi.Shu bois mazkur maqolada lingvistik ontologiya terminining mohiyati va uning zaruriy ahamiyati, o'zbek tili ontologiyasini yaratish tamoyillari, UzNet xususiyatlari, UzNetni WordNet bazasi asosida emas, balki alohida yaxlit tizim tarzida yaratish sabablari, uning biznes-protses jarayoni (BPMN) haqida batafsil ma'lumot berildi.

Kalit so'zlar: lingvistik ontologiya, tezaurus, semantik munosabatlar, WordNet, tamoyil.

Manzura Abjalova
Doctor of Philology (DSc),
Associate Professor of Tashkent State University
of Uzbek Language and Literature
Tashkent, Uzbekistan
abjalova.manzura@gmail.com

UzNET is a SEMANTIC SYSTEM COVERING THE LEXICON OF THE UZBEK LANGUAGE

ABSTRACT

Currently, the most common form of knowledge bases is the lexical knowledge base of the ontological type. Linguistic ontology is a large semantic system for processes such as information search, text analysis, automatic translation, and knowledge gathering. Currently, the number of Uzbek speakers is large. It is clear from this that in the age of digitized technologies, it is necessary to create UzNet ontology in order to implement many technological works within the framework of the Uzbek language. Therefore, in this article, the meaning of the term linguistic ontology and its essential importance, the principles of creating an ontology of the Uzbek language, the characteristics of UzNet, the reasons for creating UzNet not on the basis of the WordNet database, but as a separate integrated system, and its business process (BPMN) are detailed. information was provided.

Keywords: linguistic ontology, UzNet, semantic relations, WordNet, principle.

Манзура Абжалова
Доцент, доктор филологических наук (DSc)
Ташкентский государственный университет
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои
Ташкент, Узбекистан
abjalova.manzura@gmail.com

UzNET - СЕМАНТИЧЕСКАЯ СИСТЕМА, ОХВАТЫВАЮЩАЯ ЛЕКСИКОН УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

АННОТАЦИЯ

В настоящее время наиболее распространенной формой баз знаний являются лексические базы знаний онтологического типа. Лингвистическая онтология - это большая семантическая система для таких процессов, как поиск информации, анализ текста, автоматический перевод и сбор знаний. В настоящее время число носителей узбекского языка составляет около 40 миллионов, а количество пользователей узбекского языка - более 50 миллионов. Очевидно, что в век цифровых технологий необходимо создание онтологии UzNet для реализации многих технологических работ в рамках узбекского языка. Поэтому в данной статье рассмотрены значение термина лингвистическая онтология и его существенное значение, принципы создания онтологии узбекского языка, характеристики УзНет, причины создания УзНет не на основе базы данных WordNet, а как Подробно представлена отдельная интегрированная система и ее

бизнес-процесс (BPMN).

Ключевые слова: лингвистическая онтология, тезаурус, семантические отношения, WordNet, принцип.

KIRISh

Jahonda inson faoliyatining bilim talab qiladigan zamonaviy sohalari rivojlanishi kompyuter texnologiyalari rolining oshishi bilan belgilanadi. Bugungi kunda axborot oqimi sezilarli darajada ko'paymoqda, endi ularni saqlash, taqdim etish, formallashtirish va tartibga solish, shuningdek, avtomatik qayta ishlashning yangi usullarini izlash zarurati yuzaga kelmoqda. Shu bois turli amaliy maqsadlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan keng qamrovli bilim bazalariga qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, inson omilisiz matndan har qanday ma'lumotni oluvchi neyro-to'rlarga asoslangan semantik tizimlarga ehtiyoj katta. XX asr yarimida butunjahon tarmog'i bilan bir qatorda Semantik veblar paydo bo'ldi. Semantik vebning ajralmas qismi ontologiya tushunchasi bo'lib, u so'zlar tarmog'idan iborat leksik ma'lumotlar bazasi hisoblanadi.

Lingvistik ontologiyani yaratish, iyerarxiyali bazani shakllantirish, sohalar bo'yicha terminologik bazalarni yaratish, semantik munosabatlarni tadqiq etish, tezaurus lug'atlar asosida til ontologiyasini yuzaga keltirish borasida jahon kompyuter lingvistikasi va axborot texnologiyalari sohalarida J.Miller [14], K.Fellbaum [10] (Princeton WordNet mualliflari), A.Burgen, O.Bodenreider; K.Kunze, A.Vagner [6, 13] (nemis tili ontologistlari), L.Bentivogli, E.Pianta (hind tili ontologistlari), M.Buenaga Rodriguez, J.Gomez-Hidalgo [5] (bolgar tili ontologistlari), N.Guarino [12], P.Guaretta (formal ontologiya va axborot tizimlari bo'yicha mutaxassis) samarali faoliyat olib borishgan.

Rus tilshunoslaridan N.V.Lukashevich, V.B.Dobrov (RuThez - rus tili ontologiyasini yaratish bo'yicha loyiha rahbari, ontologist) [19-21, 23], I.B.Azarova (RussNet lingvistik resursining asosiy yaratuvchisi va axborot-qidiruv tizimlari ontologiyasi bo'yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirgan) [16], O.A.Nevzorova (yangi fan sohalari ontologiyalarini ishlab chiqish texnologiyasi) [21], A.S.Narinyan (TEON: Tezaurus+Ontologiya loyihasi asosida ontologik tadqiqotlarni amalga oshirgan) [24], B.B.Morkovkin (ideografik lug'at tuzgan), shuningdek, Markaziy Osiyodan A.Sharipbayev (qozoq tilini qaytaishlash va turkiy tillar ontologiyasini yaratish bo'yicha izlanish olib bormoqda) faoliyat olib borishgan. O'zbek tilida esa monografik planda M. Abjalova tomonidan tadqiq etilgan [4].

Tilshunoslikda ontologiya masalasi.

Ontologiya tushunchasi uzoq vaqtdan beri ma'lum, ammo qayta ko'rib chiqilgan holda, u yaqin yillardan kompyuter texnologiyalarida faol qo'llanilmoqda. Ontologiyaga semantik tarmoq sifatidagi qarashlar XX asrning 90-yillar oxirlarida boshlangan.

Lingvistik ontologiya yoxud til ontologiyasi terminlari tilshunoslik faniga qaraganda, axborot texnologiyalari sohasida ko'proq qo'llaniladi, asosan, matnlarni avtomatik tarzda qayta ishlash uchun ixtisoslashtirilgan axborot qidirish tezaurusi, ya'ni tilning lug'at boyligini o'zida jamlagan, so'zlarning semantik munosabatlari o'rnatilgan (yoxud so'zlar tarmog'iga ega) turli maxsus lingvistik dasturiy ta'minotlarni anglatadi. Lingvistik ontologiya (LO) til borlig'i va mohiyati haqidagi fan sifatida kamdan-kam tilga olinadi. LO lisoniy borliqni tahlil qilish orqali tilning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. F. de Sossur ta'kidlaganidek, "... tilshunoslikning maqsadi tilning mohiyatini hech qanday cheklovlarsiz anglash, inson tilini uning paydo bo'lish tarixi va lingvistik xilma-xillik sabablari bilan birgalikda tilning barcha ko'rinishlari va aloqalarida hamda nutqda namoyon bo'lish shakllarida o'rganish hisoblanadi" [Соссюр, 2000. - С. 171]. Tilning mohiyatini esa, birinchi o'rinda, nutq, soz'lash tashkil etadi. Nemis faylasufi M.Xaydegger ta'biri bilan aytganda, tilning ekzistensial-ontologik asoslarini nutq tashkil etadi [Хайдеггер, 2003. - С. 187].

Borliqning asosiy sohalariga tabiat, jamiyat va ong kiradi. Lingvistik ontologiyalarda

ham tabiiy til boyligi, undan foydalanish imkoniyati va lison qamrab olinadi. Hozirgi vaqtda bilim bazalarining eng keng tarqalgan shakli ontologik tipdagi bilimlar bazasi hisoblanadi. Bugungi raqamli texnologiyalar davrida ontologiya termini bir muncha ommalashdi. Ontologiyalar - bu dunyo haqidagi bilimlarning rasmiylashtirilgan tavsifini o'z ichiga olgan kompyuter resurslari.

Resurslar tahlili

Ontologiya tushunchasiga turlicha ta'riflar beriladi. Xususan, ontologiya - bu kontseptuallashtirish (konseptualizatsiya) spetsifikatsiyasi, deydi rus tadqiqotchisi T.Gruber [Gruber, 1993. - pp. 199-220]. Kontseptuallashtirish esa narsa-predmet sohasining lug'at va aniq vaziyatga bog'liq bo'lmagan holda ko'rib chiqiladigan haqiqat tuzilishi. Masalan, stol ustidagi kubikning turishi mumkin bo'lgan o?rnilari to'plami - bu uning konseptuallashishi, muhimi kubikning ayni vaqtdagi turgan holati emas, balki u turishi mumkin bo'lgan holatlar to'plamidir.

Formal jihatdan ontologiya - tushunchalar to'plami va ushbu tushunchalar haqidagi tasdiqlar to'plamidan iborat tizim bo'lib, ular asosida sinflar, obyektlar, munosabatlar, funksiyalar va nazariyalarni qurilishi mumkin [Лукашевич, 2010. - С. 83].

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tildagi barcha so'zlarning semantik va pragmatik xususiyatlarini yoritib berish faqat o'lik tillar uchun to'liq bajarilishi mumkin. Boisi o'lik til statik holatda qolgan bo'lib, unda taraqqiyot nolga teng bo'ladi, ya'ni "o'lik til taraqqiyoti = 0". Natijada tilda o'zgarish bo'lmaydi, bunday til asosida qurilgan dasturiy ta'minot bazasini qayta yangilanishiga ehtiyoj bo'lmaydi.

Ko'plab manbalarda tezaurus va ontologiya terminlari qiyosiy tahlil qilinmaganligi va har ikki terminga berilgan ta'rifning o'xshashligi sababli bunday lug'atlar imkoniyati hamda ularni yaratish mezonlari o'z chegarasi va aniqligiga ega bo'lmagan. Ushbu terminlarning kompyuter lingvistikasi hamda sun'iy intellekt kesishmasida parallel ravishda faol qo'llanilishi ularning vazifalari va faoliyat yo'nalishlarini yanada aniqroq taqsimlashni talab qiladi.

Lingvistik ontologiya tushuncha (taksonomik tarmoqlangan termin)lar, ularning tavsiflari va qoidalardan iborat bo'ladi.

Ontologiyalar ko'plab kompyuter dasturlari uchun [Eiji Aramaki and other] ma'lumot manbasi sifatida qo'llaniladi (axborot qidirish, matnni tahlil qilish, avtomatik tarjima, bilimlarni yig'ish va boshqa axborot texnologiyalari uchun). Ontologiya murakkab va xilma-xil ma'lumotlarni samarali qayta ishlashda yordam beradi [Гладун и др.]. Ma'lumotlar bilan ishlashning bunday usuli dasturlar uchun insonga tushunarli bo'lgan, ammo kompyuterga ma'lum bo'lmagan semantik farqlarni tanib olishga imkon beradi.

Shunday qilib, lingvistik ontologiya yoxud til ontologiyasi terminlari tilshunoslik faniga qaraganda, axborot texnologiyalari sohasida ko'proq qo'llaniladi, asosan, matnlarni avtomatik tarzda qayta ishlash uchun ixtisoslashtirilgan axborot qidirish tezaurusi, ya'ni tilning lug'at boyligini o'zida jamlagan, so'zlarning semantik munosabatlari o'rnatilgan (yoxud so'zlar tarmog'iga ega) turli maxsus lingvistik dasturiy ta'minotlarni anglatadi.

"Ontologiya" terminining mohiyati va lingvistik ontologiya strukturasi

"Ontologiya" termini ko'plab sohalarda qo?llaniladi va ikki ma'noga ega:

The article discusses the concept of globalsyntactic structure and its components, which is one of the most problematic and controversial issues in twentieth-century linguistics, and its scientific research and description, the results are recorded. The author reacted to these views and comments from his own point of view and came to the appropriate conclusions.

The study describes the definition of language and speech units to date, and on this basis the specific views on the concept of global syntactic structure and its components. It is noted that the status of a global unit, which is a perfect and complex product of speech, is the text, and what its main features are manifested. It is noted that the status of a global unit, which is a perfect and complex product of speech, is the text, and what its main features are manifested. The wide range of current views on this subject has been proven to be a product of the dynamics of scientific development. In illuminating this, work has been done based on the phenomenon of predicative and its objects of expression. The text discusses the place of the sentence, its specific new aspects. On this basis, a peculiar relationship has been put forward in the question of the maximum global structure of speech and its smallest unity.

Keywords: text, micro text, macro text, text components linguistic unit, language, speech, linguistic units, linguistic units, phoneme, morpheme, complex syntactic structure, global syntactic structure.

Зайниева Мадина
докторант
Самаркандского государственного института иностранных языков,
Самарканд, Узбекистан
mukhammad-kh@mail.ru

ПРИРОДА ТЕКСТА КАК ГЛОБАЛЬНОГО СИНТАКСИЧЕСКОГО ПРИЕМА И ОБЗОР ЕГО ИЗУЧЕНИЯ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается понятие глобально-синтаксической структуры и ее компонентов, которое является одним из самых проблемных и дискуссионных вопросов в языкознании XX века, его научное исследование и описание, их результаты записываются. Автор отреагировал на эти взгляды и замечания со своей точки зрения и пришел к соответствующим выводам.

В исследовании описывается определение языковых и речевых единиц на сегодняшний день, и на этой основе формируются специфические взгляды на понятие глобальной синтаксической структуры и ее компонентов. Отмечается, что статус глобальной единицы, являющейся совершенным и сложным продуктом речи, имеет текст, и в чем проявляются его основные черты. Отмечается, что

статус глобальной единицы, являющейся совершенным и сложным продуктом речи, имеет текст, и в чем проявляются его основные черты. Доказано, что широкий спектр современных взглядов на эту тему является продуктом динамики научного развития. При освещении этого была проделана работа, основанная на феномене предикатива и его объектах выражения. В тексте обсуждается место предложения, его конкретные новые стороны. На этом основании в вопросе о максимальном глобальном строении речи и его наименьшем единстве выдвигается своеобразная взаимосвязь.

Ключевые слова: текст, микротекст, макротекст, компоненты текста, языковая единица, язык, речь, языковые единицы, языковые единицы, фонема, морфема, сложная синтаксическая структура, глобальная синтаксическая структура.

Тилшуносликда матн ва унинг тузилиши, намоён бўлиши, шаклланиши, ундаги коммуникатив хусусиятларнинг барчаси кенг кўламда ўрганиш объекти бўлиб келмоқда. Мазкур қизиқишлар асососида тадқиқотларда матннинг коммуникатив, прагмалингвистик, когнитив, лингвокультурологик, психолингвистик, социолингвистик, этнолингвистик, систем, структур, композицион ва бошқа жиҳатларига эътибор қаратиб келинмоқда.

Қайд этилган ёндашувларнинг ҳар бири ўзига хос бўлган принциплар асосида тадқиқот объекти бўлган матн тушунчасининг тавсифини беришга ҳаракат қилинганинг далили бўла олади. Кўринадики, матн том маънода юқоридаги ёндашувлар асосида турли фанлар ва бу фанларнинг тилшунослик билан кесишиш чорраҳасида вужудга келган лингвистиканинг тармоқ ва йўналишлари учун ягона текширув объекти бўлиб қолмоқда.

Шу боис ҳам матн ва унинг тавсифи жаҳон тилшунослигида, хусусан, инглиз тилшунослигида ҳам алоҳида тавсифларга эга эканини кузатиш имконини беради. Бу хусусда фикр билдирганида Д.Бартон ва Л.Кармен тилни илмий жиҳатдан тадқиқ этишда, ўрганишда матн тушунчаси марказий ўрин тутади ва аксарият ижтимоий соҳаларда тил ўрганиш объекти сифатида ҳизмат қилишини қайд этади. Уларнинг назарида матн атамаси сифатида қаралаётган ижтимоий тушунча турли билим соҳаларида турлича талқин қилинишини инобатга олиш алоҳида аҳамият касб этиши шубҳасиз. Бу мутахассисларнинг фикрига кўра, тилшунослик соҳасида матн муҳокама қилинаётган тилнинг ҳар қандай изчил қисми сифатида қаралади. Матн ва у билан боғлиқ тасаввурлар, одатда, ёзма нутқга ишора қилади, бошқача айтганда, матн ёзув орқали намоён бўлади. Д.Бартон ва Л.Кармен оғзаки нутқда баён қилинган фикрларнинг график тасвирланиши матн, деган қарашни илгари суришади [2: 25].

Д.Бартон ва Л.Кармен матн хусусида фикр билдирар экан, улар бир сўздан иборат сарлавҳа, абзац, боб, ҳаттоки, бутун бир китоб ҳам матн сифатида қаралиши мумкинлигини баён қиладилар. Уларнинг қарашларига кўра, матнлар макон ва замонда шаклланади, намоён бўлади ва муайян маконда жойлашади, ўрин топади. Бу тилшуносларнинг қарашларида акс этган илмий қарашларнинг мазмуни шуни кўрсатадики, матнлар яратилиши ва ёзилиши мумкин. Улар деворларга пуркалиши, газеталарда чоп этилиши ёки кундаликларда ёзилиши мумкин. Шу билан бир қаторда, матнларнинг маълум мақсадда ишлатилиши, ўқилиши, шу асосда унга мунособат берилиши ва уларга амал қилиниши мумкинлиги Д.Бартон ва Л.Кармен қарашларида алоҳида ўрин тутади [2: 26].

Бундан ташқари, Д.Бартон ва Л.Кармен матнга кўпинча тилнинг маҳсули сифатида қаралишини, унда барқарорлик ва қатъийлик тушунчаси мавжудлигини кўрсатиб ўтишади. Уларнинг мавжуд қарашларида матн ўзаро мулоқот воситаси

ва таҳлилнинг бошлағич нуқтаси сифатида ҳам тадқиқ этилиши лозим. Чунки матн йўналтирувчи функциясига ҳам эга бўлиб, бунда хат, бадиий асар (роман ва бошқа шу кабилар) ёки газета матнлари кабилар ўз функцияси ва қийматини ўзгартириб, воқеликлар бўйлаб ҳаракатланиш ифодасини бериш вазифасини бажариб мақсад ва моҳиятга кўра, йўналтирилганлик белгиларига ҳам эга бўлади [2: 26].

Матн ва унинг илмий тавсифи хусусидаги қарашларда М.А.К.Ҳаллидай ва Ҳ.Руқайяларнинг қарашлари ҳам ўзига хосдир. Уларнинг фикрича, "Матн" атамаси мулоқот воситаси сифатида тилни билувчи шахс учун уни мантиқан тушунишга ёрдам берадиган ҳар қандай тил мисоли сифатида қаралади[4].

М.А.К.Ҳаллидай ва Х. Матчиессен қарашларида акс этган ҳақиқатга кўра, грамматика мутахассислари учун матн кўп қиррали муаммоларни ўзида мужассам этган мураккаб характерли, комплекс тадқиқни талаб этувчи кўп қиррали ҳодисадир. Шу боис, матнни турли ёндашув нуқтаи назардан ўрганиш мумкин. Бироқ, М.А.К.Ҳаллидай ва Х. Матчиессен ушбу ҳодисани илмий тавсифлашда иккита асосий ёндашувни ажратиб кўрсатишади. Бунда биринчи ёндашув - матнга мустақил объект сифатида қарашга асосланиши бўлса, иккинчисида унга қўшимча маълумот олиш воситаси, манбаси сифатида қарашдир.

Бизнингча, матн нафақат тил бирликларнинг қўлланиши макон, балки том маънода тил бирликларининг тил ситемассида яшаб қолиши, бу тизимда ўз ўрнини сақлаб қолиши учун ҳам мант заруратдир. Тилдан мақсад мулоқотни, коммуникацияни шакллантириш ва унга эришиш сифатида қараганимизда айни фикр исбот талаб қилмайди. Шунга ҳам эътибор қаратиш жоизки, матн шаклланиши, унинг замонавий тушунча ва қарашларнинг ифодаланишига қодир бўлиб бориши тил тараққиётининг асоси ҳамдир. Чунки тилнинг акуммилятив хусусияти айнан ушбу жараён билан боғлиқдир. Тилнинг бирлигига айланиш учун унинг лексик бирлиги сифатида ушбу қатламдан ўрин олиш учун кириб келган сўз ва ибора ва бошқа бирликлар, аввало нутқда қўлланади ва давр, ижтимоий муҳит ва тилнинг жамият билан боғлиқ томонларига кўра унинг системасидан қатъий ўрин олади. Албатта, матн шаклланиши учун грамматиканинг ўрни алоҳида аҳамият касб этади. Бироқ, грамматик қоидаларда шаклланган қарашлар ҳар доим ҳам матннинг асосий мезонларини тўла белгилаб беришга қодир бўлмаслиги ҳам мумкин. Бошқача айтганда, грамматика умумийликка асосланса, ҳар бир матн нутқ вазияти, сўзловчининг субъектив мақсад ва муддаосига кўра ўзига хосликларга эга бўлиши ҳам мумкин. Бу ўринда мавжуд грамматик қоидаларимиз матн тавсифига эмас, балки унинг бирликларидан бири бўлган гап тавсифига асосланганлигини қайд этиш лозимлигини тақазо қилишида намоён бўлади.

Тилнинг грамматикаси билан шуғулланган мутахассислар матнга объект сифатида эътибор қаратганида ундаги коммуникатив, номинатив, предикатив, дискурсив, прагматик жиҳатларни комплекс тарзда эътиборга олмайдилар. Бу матн билан боғлиқ назарий масалаларни ҳам, у билан боғлиқ бўлган амалий масалаларни ҳам мажмуавий тасаввур этишга, унинг мажмуавий хусусиятларини тўла англашга монелик қилади.

М.А.К.Ҳаллидай ва Х.Матчиессен юқоридаги масалалар билан боғлиқ ҳолда фикр билдирганида, матнга восита сифатида эътибор қаратиб, грамматика мутахассислари матнда айтилган ёки ёзилаётган маълумотни тил тизими ҳақидаги тасаввурларни конкретлаштириш, унинг ишлаш тамойилларини аниқлаш, у нимани англатишини тавсифлаш ва буларнинг барчаси қандай омиллар билан узвийликда ва изчилликда эканини кўрсатиб беришга оид факторлар нималардан

иборатлигига эътибор қаратишнинг муҳимлигини кўрсатиб ўтишган[3].

Қайд этилган муносабатлар асосида хулоса қилиш мумкинки, бир-бирини тўлдирадиган мазкур қарашлар матнни бутун тил тизимига боғлашдан ташқари, унинг нутқ билан боғлиқ томонлари ҳам устиворлик касб этишини назардан четда қолдирмаслигимиз муҳимлигининг далилидир. Матннинг бирликлари ва бу бирликларнинг парадигматик, синтагматик ва иерархик муносабатларини том маънода тавсифига эга бўлмай туриб, шунинг баробарида ундаги семантик, коммуникатив, номинатив белги, аломатларни тўла илмий асосда комплекс тасаввур этмай туриб биз матн нима учун у англатиши лозим бўлган маънони англатишини унга берилиши мумкин бўлган ҳар хил таърифлар билан изоҳлай олмаймиз. Шунингдек, биз матнни у нимани англатишини ва нима сабабли у шу маъно беришини илмий жиҳаттдан англамаганимизча матннинг мажмуавий характерини шаффоф тавсифлай олмаймиз. Бироқ ҳар бир ҳолатда матн ҳар хил мақомга эга эканини кўриш мумкин. Айрим ўринларда инсон томонидан яратилган мавжуд лингвистик артефакт сифатида ёки намуна сифатида қабул қилинади.

Матннинг ўзи доимий ёки вақтинчалик, муҳим ёки аҳамиятсиз, эсда қоладиган ёки тезда унутадиган бўлиши мумкин. Қуйида инглиз тилида учта матн мисол келтирилган.

Text 1. Today all of us do, by our presence here, and by our celebrations in other parts of our country and the world, confer glory and hope to newborn liberty.

Out of the experience of an extraordinary human disaster that lasted too long, must be born. a society of which all humanity will be proud. Our daily deeds as ordinary South Africans. must produce an actual South African reality that will reinforce humanity's belief in justice, strengthen its confidence in the nobility of the human soul and sustain all our hopes for a glorious life for all. All this we owe both to ourselves and to the peoples of the world who are so well represented here today.

Text 2. Cold power is the ideal brand for any family.

We understand that there is more than one thing you want to achieve out of every wash load.

As such, we have developed a formula capable of achieving a wide range of benefits for all types of wash loads.

Text 3. 'And we've been trying different places around the island that - em, a couple of years ago we got on to this place called the Surai in East Bali and we just go back there now every time. It is -'

'Oh I've heard about this.'

'Have you heard about it? Oh.'

'Friends have been there.'

'It is the most wonderful wonderful place. Fabulous.'

Матн ва унинг турлари хусусида фикр билдирилганида, энг аввало, унинг моҳиятида нима мужассамлиги билан бир қаторда, матннинг шаклланиши ҳолати, юзага келиш шакли ҳақидаги масалаларга ҳам эътибор қаратиш ўринли бўлади. Бу борада олимларнинг қарашларида турлича тавсифлар мавжуд эканини кузатиш мумкин.

Айни масала хусусида фикр билдирилганида, М.А.К.Ҳаллидай ва Ҳ.Руқайя уч хил матнни намуна сифатида келтирадилар ва уларни қуйидагича тавсифлайдилар. Учинчи матн тўсатдан айтилган матн бўлиб, уни ёзма шаклга ўтказиш мумкин, чунки у аудио тасмага ёзилган. Иккинчи матн ёзма матн бўлиб, агар лозим бўлса (агар хоҳласак) уни овоз чиқариб ўқишимиз мумкин бўлади. Биринчи матн анча мураккаб: у ёзма шаклда тузилган бўлган бўлиши, эҳтимол оғзаки машқлар билан ҳам мустаҳкалманган бўлиши ҳам мумкин. Бироқ мазкур матн оғзаки нутқда жуда

муҳим оммавий йиғилишда сўзлаш учун ёзилган (Нелсон Манделанинг президент сифатида инаугурация нутқи, 1994 йил 10-май) [3: 4].

Келтирилган матнлар грамматик нуқтаи назардан тенг деб баҳоланиши мумкин. Чунки грамматика мутахассислари М.А.К.Ҳаллидай ва Ҳ.Руқайялар қайд этганидек, матнлар тенг эканлигини таъкидлашганида, улар матнни намуна сифатида кўришади. Агар инглиз тили грамматикасини тушунтиришга мақсад қилинган бўлса, унда ушбу учта матн тилнинг кўплаб грамматик хусусиятларини мазмунли функционал контекстларда акс эттиришини кўришимиз ва уларни бир хил даражада эътиборга олишимиз керак бўлади. Бироқ, бошқа томондан, яъни матнга артефакт сифатида қаралганида бу матнлар ўзаро тенг эмаслиги кузатилиши мумкин. Жумладан, намунада келтирилган биринчи матн замонавий инсоният тарихидаги муҳим лаҳза бўлиб, тилда ўз изини қолдирган бўлиши мумкин бўлган жуда қимматли матн сифатида қаралиши мумкин. Аммо бу йерда ҳам бир-бирини тўлдириш мавжуд. Бунда матнни ташкил этувчи бирликлардан қандай шаклда ва қандай мақсадда фодаланиш билан боғлиқдир. Айни пайтда келтирилган матнларнинг ҳар учаласида ҳам гап ва жумлалардан фойдаланилмоқда. Бироқ ҳар қандай матнни ажратиб турадиган нарса бу манбалардан қандай фойдаланилишидадир[3: 4].

Матннинг маъноси ўта муҳим бўлган камида учта нарсага боғлиқдир. Биринчиси - бу матннинг тили, иккинчиси - уни ким яратгани ва учинчиси - унга ким жавоб бераётганидир [1: 6]. Матннинг тили дейилганида реалликда айтилган ёки ёзиладиган сўзлар, матндаги лексик бирикмалар, синтактик ва риторик тузилмалар назарда тутилади. Маънолар матн тилига боғлиқ ҳолда ҳар доим ҳам бир хил бўлавермайди. Баъзи маънолар сўзларнинг ўзи ва уларнинг кузатиладиган ўзаро боғлиқлиги орқали ҳосил бўлади. Бироқ, баъзи маънолар муаллифнинг нуқтаи назаридан келиб чиқиши, унга боғлиқ бўлиши ҳам мумкин. Бу борада муаллифнинг фикрини билиш муҳим ўрин тутади. Матннинг қачон, қайерда ва ким томонидан яратилганига қараб, бу билан боғлиқ ҳолда ҳамма нарсани бирини бошқасидан бошқача талқин қилишга тўғри келиши мумкин. Масалан, бунда маърузачи ёки ёзувчининг мақоми ёки ваколати қандай эканидан келиб чиққан ҳолда, кўчадаги одам, эксперт, ҳукумат вакили, мактаб дарслиги муаллифи, судда ҳукм чиқарувчи судя ва бошқалар бўлиши мумкин. Матнга баъзи маънолари еса ўқувчилар ёки тингловчилар томонидан киритилади. Бу уларнинг махсус билимларига, маданий тахминларига ёки бошқа тегишли матнлар билан танишлигига асосан вужудга келиши мумкин. Ўқувчилар ва тингловчилар ҳам ўзлари эга бўлган турли нуқтаи назарлар асосида матнларга турлича жавоб бериши, муносабатда бўлиши мумкин.

Матннинг синтактикаси сўзлар ва унга тенг бўлган бошқа бирликларнинг синтактикасидан фарқ қилади. Зотан матн тил бирликларининг нутққа кўчирилиши доирасида содир бўлмайди. Унинг юзага келиши ва зоҳир бўлиши ўзгача хусусиятларга эга. Бу хусусиятлар унинг нутқ бирликларининг синтактикаси билан боғлиқдир. Матнни синтактик тавсифлашга ҳаракат қилар эканмиз, унинг айни хусусиятлари тил бирликларининг тилдан нутққа кўчиши билан муштарак эмаслигида кўзга ташланади. Бошқача айтганда, нутқнинг минимал бирлиги сифатида гап ва, умуман, жумлалар назарда тутилар экан, уларнинг синтактик қурилма сифатида шаклланиши тил бирликларининг актуаллашувини тақазо этаётгани шубҳасиз [5]. Бироқ, матннинг синтактик жиҳатдан шаклланишида қурилиш материали сифатида унинг конститутив компонентлари сифатида нутқ бирликлари, хусусан, гаплар, мураккаб синтактик қурилмалар, абзацлар ташкил этади. Шуни ҳисобга олган ҳолда масала моҳиятига ёндашиш, шу асосда матнни тавсифлаш матннинг синтактикасида содда, мураккаб ва буларнинг реаллашуви

учун макон вазифасини бажараётган улардан катта ҳосила структура шаклланган кузатилади. Шундай экан, матн ўзининг мазкур табиати билан содда синтактик қурилмалардан ҳам, мураккаб синтактик қурилмалардан ҳам кескин фақ қилиши рўйи рост аён бўлади. Шу боис ҳам матн ўзида синтактик структура сифатида глобал синтактикани мужассам этаётганини қайд этиш имконини беради.

Албатта, юқоридаги фикримиз матннинг тўғридан-тўғри формал синтактик структурасига тегишли бўлса, бундан ташқари, унинг семантик, коммуникатив-прагматик, когнитив-дискурсив сингари бошқа хусусиятлари ҳам бир вақтнинг ўзида унда мужассамдир.

Шу боис, матн том маънода мажмуавий система ва структурани тақазо этишга қодирлиги шубҳасиз. Унинг бу хусусияти мазкур қурилмаларнинг синтактикаси орқали вужудга келади. Матннинг ушбу лингвистик табиати тилшуносликда уни глобал синтактик қурилма мақомида ўрганилишига асос бўла олади.

Iqtiboslar/ Сноски/ Referencis

1.Aarts B. & McMahon A. The handbook of English linguistics. Oxford: Blackwell. 1996. - 369 p.
2.Barton David and Carmen Lee. "Language Online: Investigating Digital Texts and Practices. " Routledge, 2013. - 216 p.)
3.M.A.K. Halliday and Christian Matthiessen. An Introduction to Functional Grammar. - Great Britain. Arnold, a member of the Hodder Headline Group. 2004. - 689 p.
4.M.A.K. Halliday, Ruqaiya Hasan. Cohesion in English. London. Routledge. 2013. - 392 p.
5.Xayrullayev X. Об особенностях изучения объекта речевой лингвистики. Иностранная филология: язык, литература, образование. 2019. (2 (71), 17-20. https://inlibrary.uz/index.php/foreign_philology/article/view/921

ТИЛ, ТАЪЛИМ, ТАРЖИМА
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Xamrayev Fozilbek
Doktorant,
Qarshi davlat universiteti,
Qarshi, Uzbekiston
xamrayev-fozil@mail.ru

TILNING O'ZIDAGI NOMLASH AN'ANASI VA UNING TARIXIY ILDIZLARI XUSUSIDA

ANNOTATSIYA

Maqolada tilning o'zidagi nomlash an'anasi va uning tarixiy ildizlari haqida fikr yuritilib, yangi nomlar yaratishda, avvalo, jonli xalq tiliga murojaat etish, shuningdek, tilning tarixiy nomlash an'analariga tayanish lozimligi asoslab berilgan. O'zbek tilining yangi tushunchalarni nomlash borasidagi imkoniyatlari juda yuqori bo'lib, o'zining kamida ming yillik tarixiy asoslariga ega. Turli davrlardagi ayrim ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar tufayli bir qancha o'zbekcha (turkiy) so'zlar va qo'shimchalar o'z o'rnini o'zga til birliklariga bo'shatib bergan. Ayniqsa, rus tilining kuchli ta'siri tufayli o'zbek tilining hozirgi so'z yasash imkoniyatlari biroz cheklanib qolgan. Shuning uchun o'zbek tilining o'ziga xos tarixiy nomlash an'anasini chuqur o'rganish va tahlil qilish bugungi tilshunoslikning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: nomlash an'anasi, til tarixi, o'z so'zlar, o'zlashma so'zlar, tillar aralashuvi, tilning boyishi, so'zlar etimologiyasi

Khamraev Fozilbek
Doctoral student,
Karshi State University,
Karshi, Uzbekistan
xamrayev-fozil@mail.ru

ON THE TRADITION OF NAMING ITSELF IN THE LANGUAGE AND ITS HISTORICAL ROOTS

ABSTRACT

The article reflects on the naming tradition of the language itself and its historical roots, and it is justified that in creating new names, first of all, it is necessary to refer to the living folk language, as well as to rely on the historical naming traditions of the language. The possibilities of the Uzbek language to name new concepts are very high, and it has its historical foundations of at least a thousand years. Due to some socio-political changes in different periods, a number of Uzbek (Turkic) words and suffixes

gave way to other language units. Especially, due to the strong influence of the Russian language, the current word-making possibilities of the Uzbek language are somewhat limited. Therefore, in-depth study and analysis of the unique historical naming tradition of the Uzbek language is one of the important issues of today's linguistics.

Keywords: naming tradition, language history, own words, borrowed words, language mixing, language enrichment, etymology of words

Хамраев Фозилбек
Докторант,
Каршинского государственного университета
Карши, Узбекистон
xamrayev-fozil@mail.ru

О ТРАДИЦИИ ИМЕНОВАНИЯ В САМОМ ЯЗЫКЕ И ЕЕ ИСТОРИЧЕСКИХ КОРНЯХ

АННОТАЦИЯ

В статье размышляют о традиции именования самого языка и его исторических корнях, а также обосновывается необходимость обращения к живому просторечию при создании новых названий, а также опора на исторические традиции именования языка. Возможности узбекского языка для обозначения новых понятий очень высоки, и он имеет свои исторические основы, насчитывающие не менее тысячи лет. Вследствие некоторых общественно-политических изменений в разные периоды ряд узбекских (тюркских) слов и суффиксов уступили место другим языковым единицам. Тем более, что из-за сильного влияния русского языка современные словообразовательные возможности узбекского языка несколько ограничены. Поэтому углубленное изучение и анализ уникальной исторической традиции именования узбекского языка является одним из важных вопросов современного языкознания.

Ключевые слова: традиция именования, история языка, собственные слова, заимствованные слова, языковое смешение, языковое обогащение, этимология слов

Til shunday ijtimoiy hodisaki, yaratuvchisi bo'lgan xalq unda paydo bo'layotgan yangi tushunchalarga o'zida nom topish uchun harakatda bo'lib keladi. Tildagi bunday nomlash an'anasining tadrijan uzoq o'tmishi mavjud bo'lib, uning tarixiy ildizlari til paydo bo'lgandan buyon bardavom bo'lib kelayotganini taxmin qilish qiyin emas.

Bir qancha rivojlangan tillar qatori turkiy tillar, xususan, o'zbek tili ham bir necha ming yilliklarga borib taqaluvchi o'zining mustahkam asosiga ega. Turkiy tilli xalqlarning XI asrgacha bo'lgan lug'at boyligini o'zida jamlagan "Devoni lug'ot at-turk" asari, shubhasizki, ushbu fikrni quvvatlovchi eng muhim manbalardan biridir. Asar yaratilish maqsadiga ko'ra lug'at maqomida bo'lsa-da, unda turkiy tillarning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini ko'rsatib beruvchi muhim ma'lumotlar keltirilgan, shu bilan birga bir qancha qabilalarning til xususiyatlari, geografiyasiga doir qimmatli ma'lumotlar aks etgan. Aytish mumkinki, ushbu noyob me'ros o'z davrining til xususiyatlari haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi manba sifatida e'tirof etilishi joiz.

Yana bir e'tiborli tomoni shundaki, Mahmud Koshg'ariyning ushbu asari yozma adabiy tilni emas, ko'proq o'sha davrdagi turli turkiy qavmlarning shevalaridan tarkib topgan dialektal leksikani ham o'zida jamlagan. Bu haqida adibning o'zi shunday yozadi: "Men turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirqizlarning shaharlarini, qishloq

va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarini to'pladim, turli xil so'z xususiyatlarini o'rganib, aniqlab chiqdim" [1, 14]. So'zlar izohidan so'ng keltilgan qadimgi xalq maqollari, xalq dostonlari va qo'shiqlaridan olingan parchalar, iboralar, shuningdek, sheva materiallari asarda illyustrativ misol vazifasini bajargan. Bundan tashqari izohlanayotgan so'zning ma'nosini aniqlashtirish uchun xalq ijodidan saralab olingan tarixiy va etnografik ma'lumotlar, so'z bilan bog'liq bo'lgan rivoyatlar ham keltirib o'tilgan. Shunga asoslanib aytish mumkinki, ushbu asar eski turkiy yozma adabiy til hamda jonli xalq tilini o'zida aks ettirgan.

Mazkur davr tilining mavzu doirasi xalqning turmush tarzi, urf-odatlari va madaniyatiga bog'liq holda rang-baranglik kasb etgan. Vaqt o'lchovlari, osmon jismlar, qarindoshlikni ifodalovchi nomlar, tana a'zolari, kiyimlar, o'simliklar, hayvonlar, ranglar - umuman, muloqoti uchun ahamiyatli hisoblangan har bir narsaga nom berishga harakat qilingan. Bunda ular o'zigacha mavjud bo'lgan nomlar va nomlash an'anasidan foydalangan. Masalan, hayvonlar turkiy qavm hayotida muhim o'ringa ega bo'lganligi tufayli muhim tarixiy voqealarni qayd etib borishda hayvonlardan yil nomlari sifatida foydalanishgan. Natijada o'n ikki yilni qamrab olgan, odatda 22-martdan boshlanadigan yil hisobi (muchal) paydo bo'lgan. Ular: sichg'an (sichqon), ud (sigir) bars (yo'lbars), tavishg'an (quyon), nek (timsoh), yilan (ilon), yund (ot), qo'y, bichin (maymun), taqag'u (tovuq), it va to'ng'uz (to'ng'iz).

Hozirda arabcha yoki yevropacha nomlar bilan ataluvchi yulduz (sayyora, yulduzlar turkumi)larning ham qadimda turkiy muqobillari mavjud bo'lgan. Jumladan, Erantuz (Yupiter), Qaraqush (Mezon), Ulkar/Hulkar (Surayyo), Yetikan (Yetti qaroqchi), Temurqazuq (Qutb yulduzi), Baqirsoqim (Mars/Mirrix) va boshqalar. Ularning barchasini etimologik jihatdan tadqiq qilish imkonsiz bo'lsa-da, ayrimlarining nomlanish tarixi haqida ma'lumotlar mavjud: Qutb yulduzining Temurqazuq (temir qoziq) deb nom olishiga uning doim bir nuqtada turishi, "osmon uning tevaragida aylanishi" sabab bo'lgan bo'lsa, Mars sayyorasining Baqirsoqim deb atalishiga uning "qizillikda mis (baqir)ga o'xshashligi" asos bo'lgan.

Diniy atamalar turkiy tilga, asosan, islom dini bilan birga arab tilidan (ayrimlari fors tilidan) kirib kelgan. Shunga qaramay, ichki imkoniyatlar asosida ham bir qator mazkur mavzudagi nomlar yaratilgan, shuningdek, islom dinidan oldin tilda mavjud bo'lgan so'zlardan ham foydalanilgan: Tangri (Olloh / Xudo; islom dinidan oldin ham mavjud bo'lgan), savchi / yalavach (nabiy, payg'ambar), tabug', (toat-ibodat qilish), yukunch (namoz), uchmaq (jannat) qarg'aq (qarg'ish), qabirchaq (tobut), qara o'run / tublu / yerchu (qabr, go'r) kabi.

Savchi so'zi sovchi ko'rinishida hozir ham o'zbek tilida faol qo'llanadi, lekin uning etimologiyasi allaqachon unutilgan. Bu so'z sav (so'z, xabar) + chi qismlaridan tarkib topib, "xabar yetkazuvchi shaxs", ya'ni forscha payg'ambar so'ziga turkiy muqobil sifatida qo'llangan. Uning "kuyov bilan kelin tomon orasida xat bilan yuruvchi elchi" ma'nosi dastlab o'g'uzlar tilida mavjud bo'lgan va o'g'uzlardan boshqa turkiy qavmlar tiliga, jumladan, o'zbek tiliga o'tgan.

Yalavach (yalavoch) so'zi ham "Tangri-taoloning elchisi" ma'nosida, payg'ambar so'ziga sinonim hisoblangan. "Shoh elchisi" ma'nosini ifodalash ehtiyoji bilan ushbu so'zning yalavar shaklidan foydalanilgan. Keyinchalik bu ikkala ma'no birgina yalavoch orqali ifodalangan. Shunga o'xshash holat qarg'aq so'zida ham kuzatiladi, ya'ni Xudo qarg'asa, qarg'adi, kishi qarg'asa, qirg'adi deyilgan va shu asosda qarg'aq (qarg'a+q: Xudo qarg'ishi) hamda qirg'ag' (qirg'a+g': kishi qarg'ishi) so'zlari yuzaga kelgan. Bundan ma'lum bo'ladiki, qadimda ajdodlarimiz Xudo - inson va inson - inson munosabatlarini bir-biridan farqlashga harakat qilishgan va bunga ayni bir so'zni ikki xil ko'rinishda ishlatish orqali erishishgan.

Kishilarning tana a'zolarini bildiruvchi so'zlarning deyarli barchasi sof turkiycha bo'lgan: bash (bosh), soch, engak, irin (lab), tish, til, qulaq (quloq), bug'az (bo'g'iz), tamg'aq (tomoq), egin (yelka, kift) ko'kuz (ko'krak, ko'ks), ko'sri (ko'krak qovurg'alari), bilak, qo'l, erngak (barmoq), suq erngak (ishorat barmoq), jijalaq (jimjiloq), talaq (taloq), qurug'saq (me'da), o'pka, bag'irsuq (ichak) bugur (buyrak), qavuq (qoviq) kabi.

Qizig'i, hatto hozirgi paytgacha "nomi yo'q barmoq" sifatida e'tirof etiladigan jimjiloq yonidagi barmoqqa bundan ming yillar oldin jijamuq deb nom berilgan, shuningdek, kamdan kam uchraydigan "olti barmoqli odam" uchun ham alohida nom - eringayu so'zidan foydalanilgan.

Kiyim-kechaklar bilan bog'liq nomlar ham turkiy tilda alohida o'ringa ega bo'lgan. "Devon"da kiyinish madaniyatiga oid 225 ta atamaning mavjud ekanligi [2, 81] turkiy xalqlarning mazkur sohaga naqadar jiddiy e'tibor qaratganini ko'rsatadi. Xususan, nikoh kechasi kelinga kiydiriladigan toj (qimmatbaho toshlar tog'nalgan bosh kiyimi) - didim, xotinlarning yengi yo'q ust kiyimi - terinchak, xotinlar kiyadigan etik, mahsi - bukum / bukum etuk, qo'zi terisidan qilingan po'stin - ichmak, burun artadigan dastro'mol - ulatu deb atalgan.

To'n so'zi keng ma'noda qo'llanib, umuman "kiyim" tushunchasini ifodalashga xizmat qilgan. Masalan, tikan to'nqa ilindi (tikan to'nga ilindi), chim o'l to'n (juda ho'l kiyim), kedindi to'n (ko'p kiyilgan kiyim), to'n kedildi (to'n va boshqa kiyimlar kiyildi), tikiglig to'n (tikilgan kiyim) kabi. Alisher Navoiy asarlarida ham ushbu so'zning turli ma'nolarda kelganini kuzatish mumkin. Xususan, quyidagi baytda "ochilgan gul barglari" ma'nosini ifodalagan:

Bulbul aning anduhidin dardnok,
Andin o'lub gul to'ni yuz yerda chok. [3, 269]

Ishton so'zining ham tarixan ichto'n ko'rinishida bo'lgani e'tiborga olinsa, uning ich va to'n so'zlarining qo'shiluvidan hosil bo'lganini sezish qiyin emas.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, hayvonlar qadimda turkiy xalqlar turmush tarzining ajralmas qismi hisoblangan. Xususan, otga bog'liq tushunchalarni ifodalovchi yuzlab atamalar mavjud bo'lgan. Bu esa turkiy xalqlarning nomlar yaratishga bo'lgan e'tibori va uquvinining naqadar yuksak bo'lganini yana bir bor isbotlaydi. Ulardan ayrim namunalar:

orat - to'q qizil va sariq ranglar orasidagi ot;
uluq - ot kuragining old qismi;
aran / atluq - otxona;
ichlik - egarning tagidan qo'yiladigan ichki to'qim;
arqun - yovvoyi otdan qochgan xonaki baytal bolasi;
ulag' - bekning buyrug'i bilan yuruvchi pochtachining ma'lum bekatlardan ayirboshlab miniladigan oti;
iqilach - sho'x, uchqur ot;
to'kuz at - peshonasida tangadek oqi bo'lgan ot, qashqa ot;
bulaq at - bo'yi qisqa, usti keng ot;
qulun - ayg'ir, toycha;
ko'mulduruk - otning ko'kragiga taqiladigan ziynat bezagi;
tug'rag' - shoh tomonidan jang vaqtida askarlarga berilib, tinchlikda qaytarib olinadigan ot;
yabitaq - ustida egari, to'qimi yo'q yaydoq ot.

O'z davrida Alisher Navoiy ham o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida fors tilidan farqli ravishda turkiy tilda otning yoshiga ko'ra farqlanuvchi toy, g'onan, do'nan, tulan, chirg'a, lang'a kabi nomlari mavjudligi, bundan tashqari ot anjomlarini ifodalovchi jibilgir, hano, to'qum, jazlig', o'lang, g'anjug'a, jilbur, qushqun, qantar, tufak, to'qa kabi so'zlarning ko'pini forslar turklardan olib ishlatishini, hatto turkiylar qamchining

qismlarini (dastasi va o'rilgan qayish qismi) buldurg'a va chubchurg'a tarzida alohida nomlar bilan atashini ta'kidlab o'tgan. [4, 522-523]

Bir qancha so'zlar borki, tarixning muayyan davridagi kuchli ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar oqibatida o'z o'rnini begona til so'zlariga bo'shatib bergan yoki ma'nosi torayib qolgan. Xususan, bilga (olim, oqil), erin (lab), ajud/ochun (dunyo), o'zlak (zamon, vaqt), esruk (mast, sarxush), endik (ahmoq, befahm), erdam (odob, axloq, tarbiya), sufra / tevchi (dasturxon) kabi yuzlab so'zlarda ayni holat kuzatiladi.

Eski turkiy tilda "shamol" ma'nosini ifodalaydigan yel, esin, tan, talg'ag', qasirqu, qad kabi nomlar mavjud bo'lgan va ular ayrim ma'no xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farqlangan: yel - eng faol qo'llanuvchi bosh (dominanta) so'z hisoblangan; esin - shabada, ya'ni yengil, mayin shamol (es fe'lidan -in qo'shimchasi orqali yasalgan); tan - tongdagi va kechki sovuq shamol; tupi - qor bo'roni, ya'ni qor yog'ayotgan paytdagi daraxtlarni yiqitadigan darajadagi kuchli shamol; qasirqu - quyun, aylanma shamol, talg'ag' - har yoqdan esgan qattiq, izg'irin shamol; qad - kishini o'ldiradigan qattiq bo'ron. Shamol (arabcha: shimoldan esgan shamol), shuningdek, nasim (arabcha), bod (forscha) kabi so'zlarning o'zlashishi natijasida yuqorida keltirilgan turkiy so'zlar iste'moldan chiqib ketgan. Birgina yel so'zi bugungacha saqlanib qolgan, lekin faolligini yo'qotgan.

"Devon"da "qarz" ma'nosini bildiruvchi kamida 6 ta so'z (shaxsiy kuzatishlarga ko'ra) mavjud:

1) Alim - al (ol) fe'lidan -im ot yasovchi qo'shimcha orqali yasalib, "kishilarda olinadigan qarz" ma'nosini bildirgan: Ol alimin aldi - u qarzini oldi.

2) Alg'u - al (ol) fe'lidan -g'u ot yasovchi qo'shimcha orqali yasalib, alim so'ziga sinonim hisoblangan: bizning anda bir chart alg'umiz bar - bizning undan biroz oladigan narsamiz (qarzimiz) bor.

3) Berim - ber fe'lidan -im ot yasovchi qo'shimcha orqali yasalib, "olingan qarz, beriladigan narsa" ma'nosini ifodalagan: Alimchi - arslan, berimchi - sichg'an - Oluvchi - arslon, beruvchi - sichqon (maqol).

4) Bergu - ber fe'lidan -gu ot yasovchi qo'shimcha orqali yasalib, "beriladigan qarz" ma'nosini ifodalagan, ya'ni berim so'ziga sinonim sifatida qo'llangan: Aning menga bir at bergusi bar - U mendan bir ot qarzdor.

5) O'tnu - qarz (umumiy ma'noda): Men yarmaq o'tnu berdim - Men tanga qarz berdim.

6) O'tunch - qarz (umumiy ma'noda): Men angar yarmaq o'tunch berdim - Men unga tanga qarz berdim.

O'tnu va o'tunch so'zlari tarixan bir asosdan kelib chiqqanini taxmin qilish, shuningdek, ularni hozirgi o'tinmoq va o'tinch so'zlari bilan bog'lash mumkin.

Keltirilgan misollardan ko'rish mumkinki, turkiy tilda o'z davrida "qarz" tushunchasini nomlashda o'zga tillarning "ko'magi"ga umuman ehtiyoj bo'lmagan, aksincha, arabcha qarz, nasiya so'zlarida to'la anglashilmaydigan "olinadigan qarz" va "beriladigan qarz" tushunchalari turkiy tilda yaqqolroq ifodalangan. Umuman, shu kabi tushunchalarni nomlashda turkiy til yetarlicha salohiyatga ega bo'lgan, ko'plab arabcha va forscha so'zlarining turkiy tilda o'rnashib qolishiga esa ko'proq ushbu tillarning o'sha davrlardagi nufuzi hamda qisman siyosiy bosim sabab bo'lgan, deb baholash mumkin.

Rus tilining o'zbek tiliga o'tkazgan ta'siri borasida ham shunga o'xshash to'xtamga kelish mumkin. Mustabid tuzum ta'siri ostida bo'lishganiga qaramay, XX asrning 30-yillariga qadar o'zbek ma'rifatparvarlari o'zbek tilining sofligi, milliylik me'zonlari asosida taraqqiy etishi yo'lida bor kuch-g'ayratlarini safarbar qilishgan.

30-yillarning boshiga kelib totalitar tuzum o'z mavqeini mutlaqo mustahkamlagan edi. Kimki millat, turk degan bo'lsa, "millatchi"ga, "panturkist"ga aylantirildi. Millat ma'naviyatining tayanchlari A.Qodiriy 1926-yilda hibsga olindi, Fitrat, Cho'lponlar o'z

"millatchiliklarini" e'tirof etdilar. Munavvarqori qatl qilindi. [5] Boshqacha aytganda, milliylik uchun qilingan sa'y-harakatlar kuch bilan bostirildi, ruscha so'z va andozalar kuch bilan singdirildi.

Tilning o'zidagi nomlash an'anasi hozirgacha muayyan darajada saqlanib qolgan. Xususan, adabiy tilda mavjud bo'lmagan, "bemorning vena tomirlari orqali yuborishga mo'ljallangan, shisha yoki plastik idishdagi kattaroq hajmdagi dori vositasi (ruscha kapelnitsa)" xalq tilida tomchi yoki osma deb ataladi. Har ikkala nom mazkur tibbiy dori vositasining mohiyatiga mos keladi. Uning tomchi deb atalishiga dori vositasining tomchilatib quyilishi asos bo'lgan bo'lsa, osma deb atalashiga uning bemor tanasidan balandroq nuqtaga osib qo'yilishi asos bo'lgan.

Hatto bolalar va o'smirlar tilida ham o'ziga xos nom yaratish usuli borligiga guvoh bo'lish mumkin. Masalan, bir so'zni takrorlash orqali hosil qilingan kichik yoshdagi bolalar o'yinlari ("Xola-xola", "Mehmon-mehmon" kabi) bolalar tasavvurida o'yin yaratish ko'nikmasini shakllantiradi va ular shu asosda keyinchalik "Poyezd-poyezd", "Askar-askar" kabi o'yinlarni mustaqil ravishda "kashf qilishadi". Shuningdek, taqlidga asoslangan "Poq-poq", "Daga-daga" (o'q ovozidan kelib chiqqan; o'g'il bolalarning odam yashamaydigan binolar atrofida o'ynaydigan harbiy o'yini) kabi o'yinlarning shunday nomlanishini bolalarning shaxsiy ijod mahsuli sifatida baholash mumkin.

Aslida o'yinlarga bunday usulda nom qo'yishning ham o'z tarixiy ildizlari mavjud bo'lib, ushbu an'ana ming yillardan beri bolalardan bolalarga o'tib kelyapti, deyish mumkin. Xususan, Mahmud Koshg'ariyning shunday o'yinlardan biri - "Mo'nguz-mo'nguz" (mo'nguz - hayvonlar shoxi) o'yini haqida ma'lumot berib o'tgani ushbu fikrning dalili bo'la oladi.

Muayyan bir tilning nufuzini, yashovchanligini belgilashda uning lingvistik imkoniyatlaridan tashqari, lug'at fondi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunos olimlarning qayd etishicha, "Devoni lug'ot at-turk" asarida 8,5 mingdan ortiq turkiy so'z arabcha izohlab berilgan. [6, 229] Lekin, tabiiyki, bu miqdor asar yozilgan davrdagi turkiy til egalarining lug'at boyligini to'la qamrab olmagan, chunki Xitoydan Xorazmga qadar yoyilgan turkiy qabila va urug'larning tilini bir butun holda tadqiq qilib, yagona kitob holida jamlash birgina ijodkor uchun deyarli imkonsiz. Qolaversa, adib o'z kitobida faqat iste'moldagi so'zlarnigina tahlil qilib, eskirgan so'zlarni unga kiritmagan: "Kitobni tuzish oldida Xalil ibni Ahmadning "Kitabu-l-'ayni" asarida tutgan tartibini qo'llash, iste'moldan chiqqan so'zlarni ham bera borish fikri menda tug'ilgan edi. Bu tartib arab tili bilan ikki uloqchi ot singari teng poyga qilib o'zib borayotgan turk tilini to'liqroq yoritish jihatdan ham yaxshi edi. Lekin men o'quvchilarning foydalanish masalasiga asoslandim. Men iste'moldagi so'zlarnigina berdim, iste'moldan chiqqanlarini tashladim. Men tutgan tartib to'g'riroqdir". [1, 15] Yana bir muhim jihat shuki, asar yozilgan davrda kitobiy adabiy tilga ko'plab forscha va arabcha so'zlar o'zlashib ulgurgani, shuningdek, asar arab tili lug'atchiligi qonuniyatlari asosida yozilib, so'zlarning izohi arab tilida keltirilganiga qaramay, lug'at so'zliklari (ya'ni 8,5 ming so'z) ichida arabcha va forscha so'zlar deyarli uchramaydi. "Devon" tarjimasi ustida ishlab, uni o'zbek tilida nashr ettirgan, asar leksikasini tadqiq qilgan olim S.Mutallibov ham buni e'tirof etgan: "Mahmud Koshg'ariy o'z asarida faqat turkiy tillar so'zlarinigina izohlashni o'z oldiga prinsip qilib qo'ygan. Shuning uchun u o'z asarida u davr tilidagi qo'shni xalqlar so'zlarini o'z prinsipiga muvofiq qastdan ko'rsatmagan". [7, 157] Bundan ma'lum bo'ladiki, "Devon" o'z davridagi turkiy til lug'at boyligining faqat faol iste'moldagi qismini, shuningdek, faqat o'z qatlam so'zlarinigina o'zida jamlagan. Agar muayyan bir til leksikasining umumiy hajmi shu tildagi barcha qatlam (eski, zamonaviy, yangi; o'z, o'zlashma) so'zlarini qamrab olishi e'tiborga olinsa, turkiy til bundan ming yillar avval ham leksik jihatdan katta salohiyatga ega bo'lganligi oydinlashadi.

Ushbu masalani Alisher Navoiy yashab ijod etgan XV asrdagi turkiy til leksikasi

bo'yicha tahliq qilish ham foydadan xoli bo'lmaydi. Navoiy ijodini leksik tadqiq etgan olim B.Bafoyev uning badiiy va ilmiy asarlari tili 26035 ta so'zni tashkil etishini qayd etadi. [8, 19] Albatta, keltirilgan bu ma'lumot Navoiyning faqat adib sifatidagi so'z boyligini aks ettiradi, uning umri davomida oddiy inson sifatida muloqot jarayonida ishlatgan so'zlari o'z ifodasini topmagan. Shuningdek, o'sha davrdagi umumturkiy leksika tarkibida Navoiy umuman foydalanmagan, uning uchun mutlaqo notanish so'zlarning ham mavjud bo'lganini tasavvur qilish qiyin emas. Masalan, chegaralangan leksika (ilmiy va kasbiy atamalar, shevalar va hokazo)ga oid so'zlar barchaga barobar xizmat qilmaydi. Bu esa Navoiy yashagan davr (XV asr)da turkiy tilning umumiy lug'at fondi yuqorida keltirilgan raqamlardan ancha ko'p bo'lgan deb xulosa qilish imkonini beradi.

Umuman, o'rganilayotgan davrlarda turkiy til ko'proq o'z ichki imkoniyatlarini ishga solgan holda taraqqiy etishida yetarlicha salohiyatga ega bo'lgan.

Yangi nomlar yaratish usullarining taraqqiy etganligi har bir tilning muttasil rivojlanib, mustahkamlanib borishini kafolatlaydi. Ko'pchilik tilshunoslarning e'tiroficha, o'zbekcha so'zlar azaldan boshqa turkiy tillardagi kabi, asosan, bir bo'g'inli bo'lib, ko'pincha uch tovushdan (til, ko'z, yoz kabi), kam hollarda ikki tovushdan (oy, ov, ot kabi) tashkil topgan. Bu esa o'z o'rnida affiksatsiya va kompozitsiya usulida yangi nomlar yaratishda tilga katta qulaylik bergan.

Tarixiy so'z yasashning eng dastlabki va ommaviy ko'rinishlaridan biri bu bir turkumga mansub so'zni boshqasiga ko'chirish asosida yangi so'z yaratishdir. Tarixda bu jarayon ko'proq fe'l va ot turkumi doirasida, kam miqdorda fe'l va sifat hamda ot va sifat turkumlari doirasida kuzatilgan. Masalan, o'y so'zi 1) "yerdagi chuqurlik" (ot) va 2) "narsalarni o'ymoq, teshmoq" (fe'l) ma'nolarida qo'llangan. Yoki to'qush so'zi 1) "urushdi, jang qildi" (fe'l) va 2) "jang" (ot) ma'nolarini ifodalagan.

Tuz so'zi fe'l ("to'g'rilamoq", "tekislamoq" ma'nosida) va sifat ("to'g'ri", "tekis" ma'nosida) vazifalarida qo'llangan. Bu holatni tik so'zi misolida ham kuzatish mumkin. Tilshunos olim M.Mirtojiyev bunday "yasalish" so'zlarning genetik ma'nosini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, buni o'ziga xos bir qonuniyat sifatida e'tirof etadi. Uningcha, ich, ket, tosh, ko'ch kabi so'zlarining fe'l va ot turkumi sifatidagi genetik ma'nolari o'zaro bog'liq, ya'ni biri ikkinchisidan kelib chiqqan. [9, 139] Bunda ko'proq fe'l turkumi sifatidagi ma'no asos vazifasini o'tagan, ot turkumi shunga tayanib hosil qilingan. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ko'ch(moq) fe'li va ko'ch otining dastlabki ma'nolari quyidagicha izohlangan:

KO'CHMOQ 1 Yashash joyidan ketmoq, boshqa joyga o'tmoq;

KO'CH I ko'chish paytida tashiladigan uy-ro'zg'or buyumlaridan iborat yuk. [10, 476-478]

O'zbek tili tarixida shu kabi fe'l va ot konversiyasi ancha faol bo'lgan. Hozirgi kunda bu jarayon deyarli to'xtagan. Buning asosiy sababi uzoq yillar davomida boshqa so'z yasash usullarining faollashuvi, shuningdek, tilga xorijiy so'z va qo'shimchalarning ko'p miqdorda o'zlashganidir. Faqat ot va sifat turkumlari orasida bunday aloqa hozirgacha davom etib kelmoqda. Cho'loq, chuqur, qahramon, sovuq kabi so'zlarni bunga misol sifatida keltirish mumkin. Lekin hozirgi o'zbek tilshunosligida bu kabi leksik birliklarning aniq bir maqomi belgilanmagan, ular turlicha nomlar bilan yuritiladi. Xususan, yuqorida keltirilgan ich, ko'ch, ket kabi so'zlar fe'l va ot omonimligi sifatida baholansa, cho'loq, chuqur, pakana kabi so'zlar ba'zi manbalarda ko'p ma'noli (polisemantik) so'zlar, boshqa o'rinlarda polifunksional yoki konversiya usulida hosil qilingan so'zlar, shuningdek, substantivatsiya [9, 78] nomlari bilan yuritiladi.

Ushbu masalaga boshqa tillarga qiyosan yondashish ham foydadan xoli bo'lmaydi. Hozirgi kunda dunyodagi eng nufuzli tillardan biri hisoblangan ingliz tilida ham ma'lum bir turkumdagi so'zni hech qanday qo'shimchalarsiz boshqa turkum vazifasida qo'llash hollari

mavjud va bu jarayon hozirgi paytda yanada faollashgan. Jumladan, show, water, park, picture, plant, e-mail, fax kabi so'zlarida ayni holat kuzatiladi. Quyida ulardan ayrimlari tahlil qilinadi.

Water so'zining dastlabki ma'nosi yomg'ir sifatida yog'adigan va ichish, yuvish uchun ishlatiladigan rangi, hidi va ta'mi bo'lmagan shaffof suyuqlikni atab kelgan, ya'ni ot turkumiga mansub bo'lgan, keyinchalik undan o'simliklarni yoki ular o'sayotgan yerni sug'orish, ularga suv quyish ma'nosini ifodalovchi fe'l turkumi hosil bo'lgan.

Yaqin o'tmishda ingliz tilida paydo bo'lgan e-mail (electronic mail) internetga aloqador ot turkumidagi atama bo'lib, dastlab "elektron pochta (manzil)" ma'nosini ifodalagan bo'lsa, oradan hech qancha vaqt o'tmasdan ushbu atama "elektron pochta orqali kimgadir xabar (ma'lumot) yuborish" ma'nosida fe'l turkumi sifatida qo'llana boshladi.

Umuman olganda, yuqoridagi kabi hech qanday shakliy o'zgarishsiz o'ziga xos yangi so'z yasash usuliga nisbatan tilshunoslikda qanday atamadan foydalanish yoki qaysi mavzu doirasidao'rganish masalasi u qadar muhim emas.Muhimi, bu qolip tilning o'z tabiatida tarixan mavjud va uni tilda doimiy yashab qolishini ta'minlash va rivojlantirish lozim. Shuningdek, uni eskirgan va yaroqsiz, deb ham bo'lmaydi. Yuqorida keltirilganidek, ingliz tilidabu qolip asosidaso'z yasashning yanadaommalashgani bungadalil bo'laoladi.

Turkiy tillarda yangi so'z yasashning barcha davrlarga xos bo'lgan asosiy turi, shubhasiz, qo'shimchalar orqali yasashdir va aytish mumkinki, o'tmishda bu usul hozirgiga qaraganda faolroq bo'lgan. Xususan, -sa qo'shimchasi hozirgi o'zbek tilida faqat suvsa so'zi tarkibida fe'l yasovchi qo'shimcha sifatida uchraydi, shuningdek, yangi so'z yasashdan to'xtagan. XI asrlarda esa uning harakat-holat yoki narsaga bo'lgan xohish-istakni ifodalovchi fe'l yasash vazifasi deyarli qonuniyat darajasida bo'lgan: baliqsadi (baliq tusadi), biligsadi (bilim olishga ishtiyoq tug'ildi), evsadi (uyini sog'indi), etsadi (go'shtsiradi, go'sht yegisi keldi) kabi.

O'rin-joy otlarini yasash vazifasida bugungi kunda ko'proq forscha -zor, -xona qo'shimchalaridan foydalanilayotgan bo'lsa, XI asrlarda bu vazifani asosan -turkiycha lik (-liq, -lig', -lug') qo'shimchasi bajargan: ashliq (hozirgi oshxona o'rnida), atluq (hozirgi otxona o'rnida), chechaklik (hozirgi gulzor o'rnida), o'rukluk (hozirgi o'rikzor o'rnida) kabi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilining uzoq o'tmishiga nazar tashlash uning bugungi kunda biroz shubxa ostida qaralayotgan nufuzi va imkoniyatlari haqidagi yanglish tasavvurlarni butunlay o'zgartirib yuborishi tayin. Shunga ko'ra o'zbek tilining tarixiy nomlash imkoniyatlari va an'analarini chuqur o'rganish, tahlil qilish hamda keng jamoatchilikka yetkazish tilshunoslar oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1.Девони луғот ат-турк. Маҳмуд Кошғарий. - Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. - Б. 14. (Devoni lug'ot at-turk. Mahmud Koshg'ariy. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. - B. 14.)
2.Назирова Ҳ. Маҳмуд Кошғарийнинг "Девону луғотит-турк" асарида кийим-кечаклар тавсифи // Марказий Осиёда анъанавий ва замонавий этномаданий жараёнлар. 2-қисм. Тошкент, 2005. - Б. 81. (Nazirova H. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida kiyim-kechaklar tavsifi // Markaziy Osiyoda an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar. 2-qism. Toshkent, 2005. - B. 81.)
3.Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. - Тошкент: Фан, 1984. - Б. 269. (Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. - Toshkent: Fan, 1984. - B. 269)
4.Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. O'ninchi jild. - Toshkent: G'afur G'ulom, 2011. - B. 522-523. (Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. O'ninchi jild. - Toshkent: G'afur G'ulom, 2011. - B. 522-523.)
5.Xudoybrdiyev J. O'zbek tilidan singarmonizmning chiqarilishi. Oyina. 17.11.2023.
6.Абдушукуров Б. Ўзбек тили тарихи. -Тошкент: Нодирабегим, 2021. -Б. 229. (Abdushukurov B. O'zbek tili tarixi. -Toshkent: Nodirabegim, 2021. -B. 229.)
7.Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан қичқача очерк (XИ аср ёзма ёдгорликлари асосида). -Тошкент: ЎзФан, 1959. -Б. 157. Mutallibov S. Morfologiya va leksika tarixidan qichqacha ocherk (XI asr yozma yodgorliklari asosida). -Toshkent: O'zFan, 1959. -B. 157.)
8.Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. - Тошкент: Фан, 1983. - Б. 19. (Bafoyev B. Navoiy asarlari leksikasi. - Toshkent: Fan, 1983. - B. 19.)
9.Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. - Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. - Б. 139. (Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. - B. 139.)
10.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. II жилд. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. - Б. 476, 478. (O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. II jild. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. - B. 476, 478.)

ТИЛ, ТАЪЛИМ, ТАРЖИМА
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Matyakubov Oybek
Urganch davlat universiteti akademik litseyi fransuz tili o?qituvchisi,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
Xorazm, O'zbekiston
matyakubov.o@mail.ru

KOGNITIV LINGVISTIKADA MODALLIK KATEGORIYASINING TALQIN VA TADQIQOTI (FRANSUZ VA O'ZBEK ERTAKLARI VA NAQLLARI NAMUNASI ASOSIDA)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tilshunoslikda modallik kategoriyasi qo'llanishi va ifodalanishi haqida fikr yuritiladi, nazariy asoslari tadqiq etiladi va ishning dolzarbligi o'rganiladi. Tilshunoslikda mavjud bo'lgan modallik kategoriyasiga oid ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinadi, olimlarning nazariy qarashlari bir tizimga solinadi, modallik kategoriyasi ta'riflanadi. Modallik funksional-semantik kategoriyasi o'zining ko'p qamrovli tadqiqot obyekti hisoblanib, uning asosiy mohiyati va vazifasi shaxs va zamon kategoriyasi bilan birga gapning asosiy bo'laklarini shakllantirib, so'zlovchining real borliqqa bo'lgan munosabatini ifodalashda muhim rol o'ynaydi, gap mazmunini baholashda subyektiv-modallik xususiyatlarini ochib berishda gapning emotsional-ekspressivlik mazmunini namoyon qilishda aksiologik modallik keng semantik maydonni egallaydi, matnlarni tahlil qilishda va ularning lingvokognitiv xususiyatlarini ochib berishda matn modalligi katta rol o'ynaydi va mazkur masalani o'rganish badiiy matn sharoitida o'ta dolzarbdir.

Kalit so'zlar: signifikativ, referensial, modus, diktum, lisoniy birlik, transliteratsiya, transkripsiya, tasviriy tarjima, imo-ishora tarjima, realiya, ekvivalent.

Matyakubov Oybek
Senior French language teacher of academic lyceum
under Urganch State of University
researcher of Bukhara State University
Khorezm, Uzbekistan
matyakubov.o@mail.ru

RESEARCH AND INTERPRETATION OF THE MODALITY CATEGORY IN COGNITIVE LINGUISTIC (BASED ON THE EXAMPLE OF FRENCH AND UZBEK FAIRY TALES AND SAYINGS)

ABSTRACT

This article highlights the use and expression of the modality category in linguistics,

Kosmografik toponimlarning turli tuman tiplari quyidagicha:

- asteroidonimlar - asteroidlarning atoqli nomlari;
- astronimlar - yulduzlar va yulduzlar to'dasining atoqli nomlari;

- kometonimlar - kometalarning atoqli nomlari;
- metereonimlar - meteorlarning atoqli nomlari;
- planetonimlar - planetalar va planetalar tizimining atoqli nomlari.

Fanda toponimlar makro- va mikrotoponimlar kategoriyalariga ajratilib tadqiq qilinadi.

Makrotoponimlar - bu geografik tizim (tog'li, suvlikga oid) yoki maxsus ajratilgan siyosiy-ma'muriy hududlarning (tuman, viloyat, davlat) individual nomlaridir. Ularning ko'pchiligi so'ngi vaqtlarda sun'iy yaratilgan. Makrotoponimlar o'z qo'llanish doirasiga ko'ra xalqaro sanaladi (Суперенская,1985:48).

Mikrotoponimlar - bu katta bo'lmagan tabiiy yoki sun'iy yaratilgan obyektlarning odatda, ularning tabiati va xususiyatlarini in'ikos etuvchi individual nomlari, ya'ni "bir til fakti va bir xalq ijodi mahsuli" sifatida tushuniladi, "katta bo'lmagan kam sonli aholiga ega obyektlar nomlari"dir. S.Qorayevga ko'ra, mikrotoponimlar geografik nomlarning eng harakatchan qismi bo'lib, ular toponimlarning paydo bo'lishi va shakllanish jarayonini o'zida aks ettiruvchi qismdir. Tilshunos olim mikrotoponimlarni tevarak-atrofda yashaydigan kishilargagina ma'lum bo'lgan quduqlar, qo'rg'ontepalar, tomorqalar, bog'lar, ko'priklar, qo'tonlar kabi kichik obyektlarning atoqli otlari sifatida ta'riflaydi. N.Begaliyev mikrotoponimlarning o'ziga xos xususiyatlari, geografik nomlar sistemasida tutgan o'rnini aniqlash ularni yozib olish, ilmiy tadqiq qilish obyekti sifatida o'rganish bilan bog'liqligi, o'zbek toponimiyasida mikrotoponimlar o'rganilishi talab va imkoniyat darajasida emasligi, mikrotoponimlar geografik nomlarning shakllanish jarayoni haqida qimmatli ma'lumotlar berishini ta'kidlaydi. Makrotoponimlar va mikrotoponimlar orasidagi quyidagi farqli holatlar mavjud:

1) mikrotoponimlar mayda, kichik geografik obyektlarning, makrotoponimlar esa yirik, ulkan obyektlarning nomlaridir;
2) mikrotoponimlar makrotoponimlarga nisbatan "yosh", ya'ni yangi bo'ladi;
3) mikrotoponimlar turdosh ot (apelyativ)ga yaqin turadi;
4) mikrotoponimlar kam ma'lum, makrotoponimlar esa keng ma'lum, ya'ni ko'pchilikka tushunarli bo'ladi;
5) mikrotoponimlarda apelyativlik xususiyati ma'lum darajada saqlangan bo'ladi;
6) mikrotoponimlar nomlanish asosiga ko'ra ko'proq tabiiydir;
7) mikrotoponimlar makrotoponimlarga nisbatan tez o'zgaruvchan bo'ladi;
8) mikrotoponimlar ko'proq aholi istiqomat qiluvchi hududlarda uchraydi;
9)mikrotoponimlarda kishi nomlaridan yasalgan toponimlar (antrotoponimlar) ko'p uchraydi;
10) mikrotoponimlar ba'zi hollarda boshqa tillarga tarjima qilinishi mumkin;
11) mikrotoponimlar makrotoponimlarga nisbatan miqdoran ko'pdir.

Biz Qo'shrabot tumani toponimlarining leksik-semantik tahliliga oid kuzatishlarimizda toponimlarni farqlashning yuqorida qayd etilgan belgilariga asoslanamiz. Mikrotoponimlar tegrasidagi xususiy/xos toponimlar tabiiy yoki sun'iy yaratilgan obyektlarning individual nomlaridir. Ular bir necha marta ma'no va shakl o'zgarishiga uchragan bo'lishi, nomli obyektning biron bir xususiyatini bevosita aks ettirmasligi mumkin. Masalan, "xotin qochdi" (Qiyqim q.). Mazkur tadqiqotda tuman hududidagi rasmiy huquqiy maqomga ega bo'lgan, nisbatan arealdagi ko'pchilikga ma'lum bo'lgan toponimlarni makrotoponimlar, har bir qishloq kesimdagi toponimlarni mikrotoponimlar sifatida qaraymiz.

Hozirgi zamon toponimistikasining asosiy muammolaridan biri geografik nomlarni tasniflashdir. O'tgan asrning 60-yillarida V.L.Jushkevish geografik nomlar tadqiqoti nazariyasini ilgari suradi. Mazkur nazariyaga ko'ra, nomlarning quyidagi parametrlariga e'tibor qaratish taklif etiladi:

- obyektning xususiyati (nima nomlangan)
- obyektni anglatuvchi vosita (qanday nomlangan)

- obyektning mansubligi (nima uchun nomlangan)

Biroq mazkur metod toponimik tadqiqotning birinchi bosqichini qanoatlantira oladi, geografik nomlarning barcha aspektlarini tadqiq etishga imkon bermaydi.

Insonning tabiatga va atrof borliqqa munosabat ko'rinishlarini geografik nomlar tegrasida hisobga olish yangicha yondashuvni va quyidagi parametrlarni ochib berishni taqoza qiladi:

a) tadqiq qilinayotgan hududdagi mavjud tillar va shevalar;

b) hududdagi tirik va o'lik tillarning adstrat, substrat va superstat ko'rinishlari;

c) toponimlar so'z shaklining an'anaviy shakllari va shablonlari;

d) hududning tabiiy sharoitlari va fizik-geografik o'ziga xos xususiyatlari, hududning o'simliklar va hayvanot dunyosi tavsifi;

e) turli tabiiy, tarixiy va ijtimoiy hodisalar;

f) an'anaviy din va e'tiqod, miflar va ularning mavjud til muhitiga ta'siri [qarang: Maxmadjanov, 2010:11].

Ma'lumki, toponimlarning salmoqli qismini atoqli otlar tashkil etadi va ularni tadqiq etishda quyidagi aspektlar o'rganiladi:

- nomlarning tarkibi va so'z shakli;
- nomlarning fonetik qurilishi;
- nomlarning sintaktik qurilishi;
- nomlar semantikasi va etimologiyasi;
- nomlarning tarixiy tegrasi;
- nomlarning tabiiy-tarixiy hodisalar bilan aloqasi;
- etnik guruhlar migratsiyasi bilan bog'langan nomlar aloqasi;
- miflar, din va e'tiqodlar bilan bog'langan nomlarning paydo bo'lishi va hayoti;
- nomlarning kam qo'llanishi va yo'qolishi sabablari;
- nomlarning o'zgarishi va qayta nomlanish sabablari [1, B.78.].

Toponimlar geografik xaritalar va planetalarning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda ko'pgina toponimlar qonuniy hujjatlarda, hukumat qarorlarida, ma'muriy boshqaruv organlarida, transport va aloqa, axborot-kommunikatsiya ishlarida, xilma-xil ma'lumotnomalarda, ilmiy-texnik, ta'limiy axborotga oid va boshqa bir qancha nashrlarda ko'plab uchraydi. Atoqli va turdosh otlarni bir-biridan farqlashga xizmat qiluvchi belgi va mezonlar faqatgina ular ma'nosi va atash xususiyatida emas, balki turdosh otlarning o'z mustaqil lisoniy materialiga egaligi, atoqli otlarning esa bunday materialga ega emasligida ham namoyon bo'ladi [2, B.66.].

Ma'lumki, atoqli va turdosh otlarni bir-biridan farqlashga xizmat qiluvchi belgi va mezonlar faqatgina ular ma'nosi va atash xususiyatida emas, balki turdosh otlarning o'z mustaqil lisoniy materialiga egaligi, atoqli otlarning esa bunday materialga ega emasligida ham namoyon bo'ladi [Никонов В.А, 1965: 66].

Tilshunoslikda atoqli otlar turdosh otlardan yasaladi, deyilgan mulohaza to'g'ri, chunki ko'pgina atoqli otlar negizida turdosh otlar yotadi. Ammo ikkinchi tomondan atoqli otlar faqat turdosh otlar yotadi, deyish chegarali va munozaralidir. Chunki, masalan, o'zbek tilida kishi ismlari, toponimlar, etnonimlar sifatlar (Alamli, Bolg'ali kabi), sonlar (Oltio'g'il, Beshkal kabi) va fe'llar (Ariqoshgan, Yo'lo'tar kabi)dan ham yasalishi hech kimga sir emas. Shu sababli atoqli otlar, jumladan toponimlarga negiz bo'luvchi lisoniy materialni nomshunoslikka oid tadqiqotlarda "lug'aviy asos", "apelyativ", "apelyativ leksika", "toponimik asos" kabi terminlar bilan yuritilmoqda [Қораев С., 2006, 31-32].

Har qanday hodisa yoki obyekt muayyan nuqtai nazardan o'rganiladi, ularni to'laqonli tushunish uchun ko'p aspektlik jihatdan tadqiq qilinganda, ya'ni analiz va sintezning turli metodlarini qo'llash orqali amalga oshadi. Muayyan hududning toponimik majmui turli aspektlardan o'rganilishi mumkin, masalan:

a) nomning geografik realiyaga mansubligi;

b) uning paydo bo'lish zamoni va motivi;
c) u yoki bu tilga mansubligi;
d) nomning tarkibi, etimologiyasi, morfologiyasi;
e) nom arealinining tarqalish hududi;
f) nomni ona tilida to'g'ri yozish va uning bir tildan boshqasiga uzatilganda ifodaning ilmiy asoslari.

Toponimist turli fanlar metodlari yordamida kompleksli tadqiqot olib borish orqali real ilmiy natijaga erisha oladi. Geografik nom muayyan hudud toponimiyasining bir qismi, shuning uchun barcha toponimlar majmuining o'ziga xosligini hisobga olib tahlilni amalga oshirish to'g'riroq bo'ladi. Tizimdan ajratib olingan yolg'iz nom ilmiy tahlil manbasi bo'la olmaydi. Shuning uchun barcha toponimlar kontekstida toponimni o'rganish lozim bo'ladi.

Quyida mazkur dissertatsiya ishida qo'llanilgan metodlar tabiati haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz:

Toponimik tadqiqotlarning geografik metodi xalqona geografik atamalarni, ya'ni geografik obyektlarning xususiyatlari, ularning turini tavsiflovchi (masalan, ko'l, jilg'a, hovuz) so'zlarni qo'llashga asoslanadi. Toponimlar va terminlar o'rtasidagi o'zaro aloqa toponimikaning universal qonuniyati hisoblanadi. Toponimiya tilning o'ziga xos landshafti, uning verbal ifodasidir. Toponimlar relyef shakli, tuproq, o'simlik va hayvonot olami kabi tabiiy landshaft komponentlarini dinamikada tadqiq qilish va ochib berishga imkon beradi.

Toponimlarning tarixiy-xronologik tahlili negizida tabiatning o'zgarishi va hududning egallab olinish jarayonlari haqidagi axborotlarning muhim manbasi bo'lgan toponimik va tarixiy geografik axborotlarni o'zida saqlovchi tarixiy hujjatlarni o'rganish yotadi. Toponimik axborotlarga tarixiy faktlarni aniqlovchi va to'ldiruvchi o'ziga xos tarixiy yodgorlik sifatida qarash mumkin.

Tildagi so'z sifatida toponimlar quyidagi lingvistik metodlar: etimologik, struktur-grammatik va formant tahlilga tortilishi mumkin. Etimologik tahlil - geografik termin yoki nomning dastlabki ma'nosini qayta tiklashni ta'minlovchi toponimika fanida muhim rol o'ynovchi eng qadimgi tahlillardan biri. Biroq sof lingvistik maqomga tayangan leksik faktning oddiy etimologik tahlili toponim paydo bo'lishining ilk sabablarini to'laqonli tushinishga imkon bermaydi.

Tadqiqot davomida to'plangan axborotlarni qayta ishlash uchun statistik metod asqotadi. Ular yordamida toponimlarning boshqa nom kategoriyalari bilan munosabatlarining miqdori aniqlanadi, toponimlarning turli kategoriyalari munosabatlari va miqdoriy ko'rsatgichlari ochib beriladi [5, B. 15].

Toponimlarni tadqiq etishda yuqorida tavsiflangan metodlardan tashqari tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsadlardan kelib chiqib quyidagi metod va tahlillar ham qo'llaniladi:

- atoqli nomlarning qarindoshligini aniqlash uchun qiyosiy-tarixiy metod va uning metodikalari hamda usullari;
- nomlar va asoslar strukturasini tadqiq etish uchun struktur metod;
- atoqli nomlarning o'xshash elementlari arealini ochib beradi, asosan toponimik va gidronimik areallar uchun areal metod;
- onomastik xarita yaratish va onomastik tadqiqotlar uchun xarita materiallarini istifoda etish uchun onomastik kartografiya metodlari;
- onimlarda izomorfizm va allomorfizmni aniqlash uchun tipologik metod;
- dialektial va regional onimlarning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish uchun dialektologik va regional metodlar;
- turli tildagi onimlarni qiyoslash uchun qiyosiy metod;
- etimon-appelyativ yoki birlamchi atoqli nomlarni ochish uchun etimologik metod;

- onimlar va ularning rivojlanish yo'nalishlari modelining faolligini tasdiqlash uchun lingvostatistik metod;
- maxsus onomastik matnlarga nisbatan qo'llanuvchi tekstologik tahlil;
- nutqdagi atoqli nomlarga nisbatan va xususan badiiy matn nutqidagi onimlarning poetik va boshqa vazifalari tahlilida qo'llanuvchi stilistik tahlil;
- metodlar onimlarning kognitiv va lingvomadaniy aspektlarini o'rganish uchun sotsiolingvistik va psixolingvistik metodlar;
- onimlarning fonetik, fonologik, morfem, so'z shakli yasalishi, morfologik kabi lisoniy xususiyatlarini o'rganish uchun sathiy tahlillar;
- onimlarni o'rganishda qo'llanuvchi analiz va sintez, induksiya va deduksiya; umumlashtirish, tasniflash va hokazo tahlillarni qamrab oluvchi falsafiy, umummantiqiy metodlar;
- onimlarni tadqiqi natijalarini o'rganish va verifikatsiyalash, modellashtirish va eksperiment o'tkazish uchun umumilmiy metodlar.

Struktur-grammatik tahlil nomlarning takrorlanuvchi elementlari, ya'ni ko'pincha suffikslarni ifodalalovchi formantlar (lot. formans - shakllantiruvchi)ni o'rganishga mo'ljallangan.Nomlardagi bunday ko'p takrorlanuvchi elementlar ularning tipologiyasi va aholi migratsiyasi haqida tafakkur qilish uchun jiddiy motiv bo'la oladi, bunda ular qanchalik kam takrorlansa, qiymati ham kam bo'ladi. Topoformantlar vositasida yasalgan toponimlar nisbatan an'anaviy va odatiy til hodisasi sifatida ko'riladi. Topoformantlarni tahlil qilishda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq sanaladi:

- mahalliy so'zlashuvning shevaga xos fonetikasi bilan bog'langan formantlar talaffuzi;
- formantlarning tarqalish areali;
- formantlarning tarixiy rivojlanishi;
- formantlarning lisoniy mansubligi;
- formantlar farqlanishi.

Quyida toponimlarni hosil qiluvchi formantlar haqida qisqacha axborot berib o'tamiz:

1. -o (xo); -on (-un, -yon, -yun) formantlari otlarning ko'plik shaklini yasaydi. Tarixan -xo jonli obyekt va jonsiz obyektlarni ifodalovchi otlar bilan qo'llanadi.
2. -at/ot (-yat, -yot) formantlari arab tiliga mansub va ko'plik tushunchasini ifodalaydi.
3. -go(x) ham anchayin sermahsul hisoblanadi.
4. -iston joyni anglatuchi toponimlarni hosil qilishda qo'llanadi.
5. -zor formanti qadimgi forsiy - zor dan kelib chiqqan va anchayin sermahsul bo'lib, biron narsaning muayyan joyda ko'pligini anglatadi. Ko'p holarda o'simlik nomlari bilan qo'llanib, fitonimlarni yasaydi.
6. -obod formanti toponimlar tarkibida "qishloq, qal'a, aholi punkti" kabi ma'nolarni ifodalaydi

Toponimlarning affiksli shakllanishi geografik nomlar yaratishning anchayin sermahsul usuli sanaladi, bunda toponim shakllantiruvchi suffikslar asosiy va hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu o'rinda qayd etish joizki, prefikslar yordamida ham yasalgan toponimlar ham uchraydi.

Formantlar qo'llanishisiz ham shakllangan geografik nomlar ham mavjud. Bunday toponimlar "asosi qo'shimchasiz otlar", "qo'shimchasiz oddiy geografik nomlar", "sodda asosli otlar", "oddiy toponimlar" kabi nomlar ostida kateroriyalashadi. Quyida formantlarsiz tuzilishga ega toponimlar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz:

1) ot asosda shakllangan toponimlar o'z semantik xususiyatlari va appelyativlarga muvofiq quyidagi guruhlarga ajraladi:

a) obyektning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi geografik terminlar asosida shaklangan toponimlar: Gaza, Kamar, Guzar, Koriz, Tangi, Jala

b) obyektning xususiyatlarini aniqlashtirmaydigan, aks ettirmaydigan geografik terminlar asosida shaklangan (mikro)toponimlar ko'pincha metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi

troplar shaklida quriladi. Masalan, Xotin qochdi soy (Qiyqim q.)

c) antroponimlar asosida paydo bo'lgan toponimlar: Allaberdi, Hasanbobo, Mirhasan

d) geografik semantikali appelyativ asosli toponimlar: Chimmos, Chimqo'rg'on

2) Sifat asosida shakllangan toponimlar: Obod,

Ikki va undan ortiq qismlardan tashkil topgan toponimlar tizimi guruhiga determinativ va kopulyativ bog'lanishli murakkab tarkibli toponimlar kiradi va ular quyidagi ost guruhlarga ajratiladi:

1. Qismlarning determinat bog'lanishi asosida shakllangan toponimlar:

a) ot + ot: Og'atepa, Otquloq

b) ot + sifat:

c) son + ot: Chorloq, Chor bog', Oltibek,

d) sifat + ot: Oqtepa, Oqmachit, Qizilbuloq

e) ot + fe'l: To'labosti, Sart o'lgan, Ariq oshgan

f) sifat-fe'l: Qoraqismoq,

2. Kopulyativ bog'lanishli toponimlar sanoqli ekanligi ma'lum bo'ldi: Volvol.

1) murakkab toponimlar affiksatsiya yordamida shakllanishi mumkin:

a) ot + -li suffiksi: Qurbaqali, Toshbaqali, Shamolli, Qumoloqli, Sulukli. . -li topoformanti anchayin keng qo'llanadi.

b) ot + -lik suffiksi: Tepalik

c) sifat + -cha: Sho'rcha,

d) fitonim+obod: Gulobod, Yangiobod. Obod komponentli toponimlar "qishloq, qal'a, aholi punkiti" kabi ma'nolarni ifodalaydi.

2) ikki asosli murakkab toponimlar shakllanishiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratiladi:

a) o'zbek leksikasi asosida shakllangan murakkab toponimlar: Bozorjoy, Jonbuloq, O'rtasoy,Qurisoy;

b) murakkab strukturali toponimlar: Choshmirzak, Govxona, Yangiobod

3) so'z birikmali toponimlar lisoniy mansubligiga ko'ra, a) o'zbekcha so'z birikmali toponimlar: Yangi Qishloq, Uzun buloq, Uch buloq; b) murakkab strukturali toponimlar: Katta qo'riq dara. Sintaktik va morfologik tuzilishiga ko'ra, so'z birikmali toponimlar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

a) so'z birikmali ot + ot: Kelinchak tosh, Jodigar mo'la, Jilovdor bobo

b) so'z birikmali ot + sifat:

c) sifat + so'z birikmali ot:

d) antroponim + so'z birikmali ot: Fozilmon tog'i,

e) fitonim + so'z birikmali ot: Pista cho'qqisi,

f) mikrotoponim + so'z birikmali ot: Qiyqim qabristoni,

Bu tip toponimlardageografikyoki inson faoliyati bilan bog'langan atamalar indikatorlar sifatida faol qo'llaniladi: buloq, tepa, bog', soy, ovul, qo'ton, qo'rg'on, xona, cho'qqi, tosh.

Asl toponimik ma'noning tiklanishiga xizmat qiluvchi muhim jihat sifatida olimlar shakllanishining grammatik, ayniqsa, morfologik jihatlarini nazarda tutish zarurligi, shuning uchun ham joy nomlarining lingvistik modelining aniqlanishini, so'z tarkibida o'zak+o'zak, o'zak+qo'shimcha shaklida ishtirok etayotgan har bir birlikdagi leksik-semantik xususiyatlarning obyektiv o'rganish zarurligini alohida ta'kidlamoqdalar. [4, B. 8.]

Mavjud adabiyotlardagi ilmiy dalillarga asoslanib, Qo'shrabot tumani mikrotoponimlarini lug'aviy-grammatik jihatdan tuzilishi (strukturasi)ni quyidagicha guruhlarga ajratib tahlil etish mumkin. [5, B. 12.]

1.Yakka komponentli, faqat bir o'zak shakliga teng bo'lgan sodda toponimlar: Bunday toponimlarga hududdagi Aymat, Buloq, Burgan, Davlay, Jala, Jo'sh, Gum, Kamar,

Koriz, To'ra, Tumshuq, Toz, Pangat, Pichot, Orlot, Qo'rg'on, Ozod, Ocha, Rabot kabi joy nomlari kiradi.

2.Ikki komponentli o'zak+o'zak shakliga teng bo'lgan qo'shma toponimlar: Bunday ikki o'zakli qo'shma toponimlarga Abir+ovul, Beklar+soy, Bek+sariq, Boy+to'p, Boqi+chig'atoy, Gujum+soy, Bozor+joy, Buloq+boshi, Yoz+buloq, Jomon+jar, Jar+buloq, Katta+qishloq, Mayin+tepa, Qora+soy, Qora+kissa, O'rta+qishloq singari joy nomlari mansubdir.

3.O'zak+so'z yasovchi qo'shimcha strukturasiga ega sodda yasama tuzilishga ega bo'lgan toponimlar: bunday guruxga tuman hududidagi Bir+lik, Mustaqil+lik, Bolg'a+li, Do'st+lik, Seb+iston, Qumaloq+li, Kesov+li, Kunja+li, Burgan+li, Tepa+li, Gul+iston, Qovun+chi, O'zbek+iston, Sohib+kor singari toponimlarni kiritish mumkin.

4.O'zak+o'zak+affiks stukturasiga ega bo'lgan birikmali tuzilishga ega bo'lgan toponimlar. Bunday tuzilishga ega bo'lgan joy nomi biz to'plagan materialga ko'ra quyidagi toponimlar mansubdir: Qo'sh+tamg'a+li, Ko'k+to'n+li qishloqlari kabilar.

5.O'zak+yasovchi affiks+o'zak strukturasiga ega bo'lgan toponimlar. Bunday joy nomlari ham tuman hududida uchta ekanligi ma'lum bo'ldi: Past+ki+shovva, Past+ki navkat, Baliq+chi ota kabilar.

6.Uch komponentli o'zak+o'zak+o'zak shakliga teng bo'lgan qo'shma toponimlar. Bunday murakkab strukturali toponimlar tuman hududida unchalik ko'p emas: Esh+bo'ra+boy, Yangi+qo'rg'on+soy, Yangi+oq+chop, Katta Oq+machit kabilar.

Ma'lumki, joy nomlari (toponimlar) til lug'at fondining ajralmas bir qismi bo'lishi bilan birgalikda ular tilning boshqa leksik qatlamlaridan ma'lum bir farqli xususiyatlarga ham egadir. Bunday farqli holatlar toponimlarning uzoq muddat yashashida, ularning ko'p komponentlardan, tarkibli qismlardan iborat bo'lishida, har bir tilning ichki qonuniyatlariga ko'ra, toponimlar yasashda turdosh otlar (appelyativlar) bevosita ishtirok eta olishida o'z aksini topadi. Toponimlarni yasashda shu til uchun xos bo'lgan lingvistik vosita (model)lardan keng foydalaniladi. Lekin shu bilan birgalikda har bir tilda toponim yasovchi o'ziga xos vositalar ham yuzaga keladi, ya'ni tildagi muayyan suffikslar (affikslar) va so'zlar faqat yoki qisman toponimlar yasashda xizmat qiladi. Geografik nomlarni nuqsonsiz to'g'ri yozish umumiy imloviy savodxonlikning uzviy bir ko'rinishi sanaladi. Geografik nom-toponim ham so'z, lekin biron obyekitni ifodalaydigan atoqli ot. O'zbekiston hududidagi barcha geografik nomlar o'zbek tili imlosining amaldagi qoidalari asosida yoziladi.

Iqtiboslar / Сноски / References

1.Асланов А.С. Шофиркон тумани микротопонимиясининг лингвистик таҳлили. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. - Тошкент, 2005. - 26 б. (Aslanov A.S. Shofirkon tumani mikrotoponimiyasining lingvistik tahlili. Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. - Toshkent, 2005. - 26 b.)
2.Бегалиев Н. Ўзбек этнонимлари тарихидан. - Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2004. (Begaliev N. O'zbek etnonimlari tarixidan. - Samarqand: SamDChTI nashri, 2004.)
3.Бегалиев Н., Туробов А. Самарқанд топонимияси. - Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2015. - 156 б. (Begaliev N., Turobov A. Samarqand toponimiyasi. - Samarqand: SamDChTI nashri, 2015. - 156 b)
4.Бегматов Э. Истиқлол ўлкасининг топонимик сиёсати // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997. № 3. - Б. 3-9; № 4. - Б. 7-9. (Begmatov E. Istiqlol o'lkasining toponimik siyosati // O'zbek tili va adabiyoti, 1997. № 3. - B. 3-9; № 4. - B. 7-9.)
5.Дониёров Ҳ. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. - Тошкент: Фан, 1968. - 98 б. (Doniyorov H. O'zbek xalqining shajara va shevalari. - Toshkent: Fan, 1968. - 98 b)
6.Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. Монография. - Тошкент: Фан, 2006. - 131 б. (Karimov S.A., Bo'riev S.N. O'zbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida. Monografiya. - Toshkent: Fan, 2006. - 131 b)
7.Қораев С. Топонимика. - Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2006. (Qoraev S. Toponimika. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006)
8.Никонов В.А. Введение в топонимику. - М.: Наука, 1965. (Nikonov V.A. Vvedenie v toponimiku. - M.: Nauka, 1965)
9.Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. - Тошкент: Фан, 1989.(Oxunov N. Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari. - Toshkent: Fan, 1989)
10.Ражабов Ў.Х. Топонимик индикаторларнинг функционал-семантик хусусиятлари. Филол.фан. номз. ...дис.автореф. - Тошкент, 2009. (Rajabov O'.X. Toponimik indikatorlarning funksional-semantik xususiyatlari. Filol.fan. nomz. ...dis.avtoref. - Toshkent, 2009)

ТИЛ, ТАЪЛИМ, ТАРЖИМА
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Uliqova Mavludaxon
O'qituvchi,
Andijon davlat chet tillari instituti
Andijon, O'zbekiston
uliqova -1990@gmail.com

"QON-QARINDOSH"KONSEPTINI MORFOLOGIK VA SINTAKTIK SATHDA ISHLATILISHI

ANNOTASIYA

Jahon tilshunosligida kognitologiya tushunchasi inson faoliyatiga, birinchi navbatda, axborotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash hamda shu axborotdan vaziyatga muvofiq foydalanish tizimi sifatida qaraladi. Lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan konseptlar, V.A.Maslova fikricha, 9 guruhga tasniflanishi lozim, ya'ni: olam, stixiyalar va tabiat, inson haqidagi tasavvurlar, axloqiy konseptlar, ijtimoiy tushuncha va munosabatlar, emotsional, artefaktlar olami, ilmiy bilim konseptosferasi, san'at - konseptosferasi. Tadqiqotimizning asosiy arhisemasi qon-qarindoshlikni tashkil etganligi sababli, avvalambor biz o'zbek tilining izohli lug'atida "qon-qarindosh" konseptiga berilgan ta'rifni berishdan boshlasak: qon-qarindosh 1.biror ota-onadan tug'ilgan, bir avlodga mansub kishilar (bir-birga nisbatan); qarindosh, qondosh. Demak, qon-qarindosh konsepti har bir tilning leksik qatlami uning fonetik va morfologik qurilishiga nisbatan o'zgaruvchan bo'lib, asrlar osha xar bir davrga hos o'zgarishlarni o'zida aks ettira boradi. Lekin qon-qarindoshlik termilari leksikaning boshqa terminlariga nisbatan turg'un va kopsevativ bo'lib, manodagi siljishlar (torayish, kengayish)ni hisobga olganda, yaratilgan shakllarini deyarli saqlab qolgan.

Kalit so'zlar: kognitologiya tushunchasi, tushuncha va munosabatlar, qon-qarindosh konsepti, qon-qarindoshlik terminlari

Ulikova Mavludakhon
teacher
Andijan State Institute of Foreign Languages
Andijan, Uzbekistan
uliqova -1990@gmail.com

THE USE OF THE "RELATIVE" CONCEPT ON THE MORPHOLOGICAL AND SYNTACTIC LEVEL

ABSTRACT

In world linguistics, the concept of cognitology refers to human activity, first of all,

as a system of information reception, processing, storage and use of this information according to the situation. According to V.A. Maslova, concepts from the point of view of linguistics and culture should be classified into 9 groups, namely: the universe, elements and nature, ideas about man, moral concepts, social concepts and relations, emotional, the world of artifacts, the conceptosphere of scientific knowledge, the conceptosphere of art.Since the main archetype of our research is blood kinship, first of all, let's start with the definition given to the concept of "blood kin" in the explanatory dictionary of the Uzbek language: blood kin 1. people born from one parent, belonging to the same generation (relative to each other); relative, blood relative. Therefore, the concept of blood-kinship is variable in relation to the lexical layer of each language in terms of its phonetic and morphological structure, and over the centuries it reflects the changes characteristic of each era.But the terms of blood-kinship are stable and comprehensive compared to other terms of the lexicon, and taking into account the shifts in meaning (narrowing, expanding), they have almost preserved their created forms.

Keywords: the concept of cognitology, concepts and relationships, concept of consanguinity, consanguinity terms

Уликова Мавлюдахон
Учитель,
Андижанский государственный институт иностранных языков
Андижан, Узбекистан
uliqova -1990@gmail.com

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПОНЯТИЯ "КРОВНЫЙ РОДСТВЕННИК" НА МОРФО-СИНТАКТИЧЕСКОМ УРОВНЕ

АННОТАЦИЯ

В мировой лингвистике понятие когнитологии относится к человеческой деятельности, прежде всего, как к системе получения, обработки, хранения и использования этой информации в зависимости от ситуации. По мнению В. А. Маслова, понятия с точки зрения языкознания и культуры следует разделить на 9 групп, а именно: мироздание, стихии и природа, представления о человеке, нравственные понятия, социальные понятия и отношения, эмоциональные, мир артефактов, концептосфера научного познания, концептосфера искусства. Поскольку основным архетипом нашего исследования является кровное родство, то, прежде всего, начнем с определения, данного понятию "кровный род" в толковом словаре узбекского языка: кровный род 1. люди, рожденные от одного родителя, принадлежащие к одного и того же поколения (относительно друг друга); родственник, кровный родственник. Поэтому понятие кровного родства изменчиво по отношению к лексическому пласту каждого языка по своему фонетическому и морфологическому составу и на протяжении веков отражает изменения, характерные для каждой эпохи. Но термины кровного родства устойчивы и всеобъемлющи по сравнению с другими терминами лексики и с учетом сдвигов значений (сужение, расширение) практически сохранили созданные формы.

Ключевые слова: понятие когнитологии, понятия и отношения, понятие кровного родства, термины кровного родства

Jahon tilshunosligida kognitologiya tushunchasi inson faoliyatiga, birinchi navbatda, axborotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash hamda shu axborotdan vaziyatga muvofiq foydalanish tizimi sifatida qaraladi. F.Usmonov rus tilshunos olimi N.F.Alefirenkoning tilshunoslikda so'zning kognitiv-semiologik nazariyasi vujudga kelishida, strukturalizmdan farqli o'laroq, til faktlari nolisoniy tabiatga ega faktlar bilan izohlanishi mumkin ekanligining tan olinishi turtki bo'lganligi haqidagi fikrlarini keltiradi. "Inson ongida in'ikos topgan olam haqidagi tasavvurlar xususida so'z yuritgan olimlar uni turli atamalar bilan ataydilar. Masalan, B.Uorf[1.183], G.Kolshanskiylar olam manzarasi[5.62], D.Potebnya olam obrazi[9.67], G.Gachev milliy kosmos yoki Kosmo-Psixo-Logos[4.33] atamalaridan foydalanadi. G.Gachevda "kosmos" so'zi o'zining tub - "olam tuzilishi" ma'nosida qo'llanadi".

Lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan konseptlar, V.A.Maslova[8.396] fikricha, 9 guruhga tasniflanishi lozim, ya'ni: olam, stixiyalar va tabiat, inson haqidagi tasavvurlar, axloqiy konseptlar, ijtimoiy tushuncha va munosabatlar, emotsional, artefaktlar olami, ilmiy bilim konseptosferasi, san'at - konseptosferasi.

Madaniy konseptlar soxa olimlari tomonidan turlicha nomlanganini kuzatish mumkin: oliy darajadagi va odatiy konseptlar[3.236],olam manzarasining yadroviy birliklari[9.296], milliy konseptlar[6.284], madaniy dominantlar[7.290].

Konseptning to'laqonli tavsifi va tasnifini uning ma'no va tushuncha bilan munosabatlarisiz tasavvur qilish qiyin. O'.Q. Yusupov[12.5] tushuncha va ma'no munosabatlari borasidagi tilshunos olimlarning fikrlarini uch guruhga bo'ladi. Birinchi guruhga mansub tilshunoslar[5.108] ma'no va tushunchani bir narsa, ma'no tilga, tushuncha tafakkur va mantiqqa xos atamalar deb hisoblaydilar.

Tildagi ma'no va konsept munosabatidagi xususiyat nominatsiya turi bilan aniqlanadi. Birlamchi nominatsiya belgilarida, Yu.S.Stepanov[10.3] fikricha, ma'no tushuncha doirasida sodir bo'ladi, bunda ma'no bilish konseptini ifodalaydi, bir xil toifa obyektlarining tushunchaviy umumiyligi o'rnida qo'llanadi. Belgilarning ikkilamchi nominatsiya ma'nosi tasavvur tomon intiladi va bu ma'no badiiy konsept deb ataladi. U yoki bu ma'noni ifoda etgan ikkilamchi nominatsiya vositalari: so'zlar, frazeologik birliklar, konseptni turlicha ifoda etadilar. Ifoda chog'ida turli baholash, emotiv va ekspressiv-obrazli xususiyatli mazmunlar o'z aksini topadi. Shu ma'noda ikkilamchi nominatsiya (metafora, metonimiya va boshqalar) ma'nosi konseptdan kengroq bo'ladi.

Tadqiqotimizning asosiy arhisemasi qon-qarindoshlikni tashkil etganligi sababli, avvalambor biz o'zbek tilining izohli lug'atida "qon-qarindosh" konseptiga berilgan ta'rifni berishdan boshlasak: qon-qarindosh[13.214] 1.biror ota-onadan tug'ilgan, bir avlodga mansub kishilar (bir-birga nnisbatan); qarindosh, qondosh. Demak, qon-qarindosh konsepti har bir tilning leksik qatlami uning fonetik va morfologik qurilishiga nisbatan o'zgaruvchan bo'lib, asrlar osha xar bir davrga hos o'zgarishlarni o'zida aks ettira boradi. Lekin qon-qarindoshlik termilari leksikaning boshqa terminlariga nisbatan turg'un va kopsevativ bo'lib, manodagi siljishlar (torayish, kengayish)ni hisobga olganda, yaratilgan shakllarini deyarli saqlab qolgan.

O'zbek tili leksikasining negizida aslida turkiy o'ziniki bo'lgan tub turkiy so'zlar tashkil etadi. Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili lug'at tarkibidag ana shu lug'aviy fond turkologiyada umumturkiy so'zlar deb yuritiladi. Bu o'rinda E.Bermatovning "So'zning umumturkiy so'zlar deb yuritiladi. Bu turkiy tilda uchrashi emas, balki by leksikaning aslida bitta turkiy manbaga tegishli ekanligidadir", degan fikrini keltirish joizdir. Demak, umumturkiy so'zlarining barcha turkiy tillarda uchrashi bir turkiy tildan ikkinchi tilga o'tganligini emas, balki ularning bu tillarda juda qadimdan asos til tufayli mavjudligini ko'rsatadi.

Xozirgi o'zbek adabiy tilida saqlangan umumturkiy so'zlar orasida qon-qarindoshlik teriminlar xam bor. Qon-qarindosh terminlarining asosiy o'chog'i oiladan boshlanishi sababli, biz oila leksemasiga o'zbek tiling izohli lug'atida keltirilgan ta'rifni berishadan

boshlasak: oila[12.265] bola-chaqa, honadon; urug', avlod. Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui; honadon. Axir oila. Sanatkorlar oilasi. Oila boshlig'i. [Eshvoy] Kambag'al bo'lishiga qaramay, Yo'lchining oilasiga.. yordam ko'rsatar edi. Oybek, Tanlangan asarlar. Qon-qarindoshlik[12.215] esa 1. qarindoshlik, qondoshlik; o'zaro yaqinlik. Sirboy halqlarimizning ulug' do'stligi, qon-qarindoshligi boshlangan kuni bilan tengdosh ekan. Mirtemir, Quyka, Jigarim. Yana bir qarindoshlik[12.215] - leksemasiga murojaat qilsak: 1.qarindosh ekanlik. Ona tomondan qarindoshlik. Qo'shnimizga qarindoshligini bilaman. 2. Qarindoshlik hos bog'lanish, munosabat; insonlar o'rtasida qon jihatdan bog'lanish. Tojiboy g'o'ldirob, javob berdi:- Olaho'ja mahsum mening tog'am bo'ladi. Ilgari qarindoshlik yo'li bilan uncha-muncha bordi-keldii bor edi. P.Tursun, O'qituvchi. 3. ayn. Qarindoshchilik 1. Eringga aytib qo'y: qarindoshchilik qilmaganimda, xammalaring yotardilaring.. yotadigan joylaringda. T. Malik, Ajab dunyo. Oilaning har bir a'zosi o'z ishi, yumushi bilan mashg'ul. H. G'ulom, Mashal. Birovga qiziqish, oila qurish.. Bu gaplar Zamirani cho'chitar, Ochil uni yomon yo'lga boshlayotganday tuyulardi. P. Qadirov, Uch ildiz.

Tilshunoslikda maydon bilan bog'liq tushunchalar va qarashlarni yuzaga kelishida V. Fon Humbolt[15.168]'ning "tilning ichki formasi" haqidagi qarashlarini muhim turtki bo'ldi. V. Fon Humboltning "Tilning ichki formasi" haqidagi asarida shunday yozadi: "Tilning har bir tolasi boshqa tolalar bilan chambarchas holda bog'lanib ketgan ularni matoga qiyoslash mumkin". Inson muomala munosabatiga kirishar ekan, mana shu ulkan matoning bir qismidangidagina foydalana oladi, xolos. U o'zi foydalanayotgan bo'lakning boshqa bo'laklar bilan muntazam aloqadorlikda ekanligi nutq jarayonining o'zidayoq sezilib turadi.

G. Ipsen[16.30] semantik maydon deganda mazmuniy va grammatik jihatdan o'zaro aloqada bo'lgan so'zlar guruhini nazarda tutgan edi. Boshqa so'zlar bilan aytganda G. Ipsen semantik maydon tadqiqotida so'zlarning leksik va grammatik umumiyligini hisobga olgan. Bunda u yoki bu semantik maydonga birlashgan so'zlar umumiy ma'noga ega bo'lishdan tashqari bir so'z turkumiga mansub bo'lishi muhim sanalgan. Bundan shunday hulosa kelib chiqadiki, I.Trir va G. Ipsen konsepsiyalarida kuzatiladigan asosiy farq I.Trir konsepsiyasi tushunchaga, G. Ipsen konsepsiyasi esa, ma'noga asoslangan. Shunday esa-da, yangi Xumbol'dchilar deb nom olgan nemis olimlari o'tgan asrning 30-yillarida maydon nazariyasiga asos soldilar.

Biz "qon-qarindosh" konseptini morfologik sathda ishlatilishiga e'tiborni qaratamiz: Morfologik sath: o'ziga xos shakl va ma'noga ega bo'lgan, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan, so'z (leksema) yasash yoki so'zning shaklini hosil qilish uchun xizmat qiladigan lisoniy birlik. Morfemalar o'zbek tilida, asosan, affiks holatida bo'ladi. Morfemalar asosiy vazifasiga ko'ra, 2 turga bo'linadi; so'z yasovchilar; so'zning shaklini yasovchilar. So'z yasovchi morfemalar yangi-yangi leksemalar hosil qilish uchun qo'llanadi va o'zbek tili lug'at (leksik) qatlamining boyishida muhim rol o'ynaydi. So'z shakli hosil qiluvchi morfemalar so'zning qo'shimcha ma'no ifodalovchi shaklini yasaydi[2.15].

Masalan,

Affiks-bu hodisa so'zlarning taraqqiyot yo'li bilan bog'liq: bu fikr (mustaqil so'zning ma'no va formal tomondan o'zgarib, yordamchi so'zga o'tishi va affiksga aylanishi) bir qancha tillarning materiallarini, tarihini tekshirish asosida kelib chiqqan[1.82]. Qon-qarindosh leksemasi doir so'zlarni asosan forma yasovchi affikslar orqali yasalishini kuzatdik. Biroq forma yasovchi affikslar yangi so'z hosil qilmaydi, ma'noni keskin ravishda boshqa qilib yubormaydi, balki har hil ottenkalar orttiradi, modifikasiya qiladi. Yasovchilar leksik ma'no bilan bog'lansa, bular grammatik ma'noga ega bo'ladi. Bular kichraytirish, erkalsh, chegaralash, kamlik, oshirish, kuchaytirish, gumon, tahmin, emosionallik kabilarni bildirish-asosiy ma'noga shularni qo'shish bilan harakterlanadi.

O'zbek tilida:
-cha: qizcha, bolacha, yigitcha
-loq: bo'taloq, qizaloq
-jon: oyijon, dadajon, bolajon, buvijon
-gina: bolagina, qizgina, o'gilgina
Sonlarni turli ko'rinishlarini hosil qiladigan affikslar:
-ta: o'nta, yigirmata, qirqta;
-inchi: birinchi, ikkinchi, uchinchi;
-ala: ikkala, uchala, to'rtala, beshala;
-tacha: ikkitacha, uchtacha, oltitacha;

Forma yasovchi affikslar odatda otlarda "sub'yektiv baho" (kichraytirish-erkalash, "past qarash", mazah kabilar) bildiruvchi affikslardan keyin son affiksi keladi (toychoqlarim); "sub'yektiv baho" affikslarning passiv, kam uchraydiganlari nisbatan ko'proq qo'llanadiganlaridan avval keladi: umuman, affikslardan keyin keladi (toychoqcha, toylovcha kabi); -gina, -jon, -hon, -voy kabi morfemalarning keyingi o'rinda kelishi (toychivoy) ularning affiksga tamoman o'tib yetmaganligi bilan bog'liq. Bolaginam tipidaqo'llangan -ginaelementi "faqat" ma'nosidaqo'llanadigan -ginaelementidan farqli: bular kelib chiqishidan, aslida, bir element bo'lsa ham, hozirgi tilda farqlanadi: u erkalash, achinish kabi modal ma'nolar ifodalanganda, forma yasovchi sanaladi[1.104].

Ingliz tilida:
-hood: childhood, boyhood;
-ship: relationship, friendship, membership, hardship, internship
-ing: sibling
-er: teenager, brother, sister, mother, father;
-age: hostage
-ive: avtive, creative, passive;
-ful: cheerful, stressful,delightful, fearful,painful;
-ment: excitement, argument, achievement, agreement;
-less: homeless, careless, speechless, useless, endless;
-ity: extremity, validity, enormity;
-ness: heaviness, highness, sickness;
- -ify, -fy: justify, simplify, magnify, satisfy;
-ful: handful, playful, hopeful, skillful;

3.Leksik - semantik sath birligi tilshunoslikda leksema deyiladi. Leksema- tilshunoslikning eng muhim va markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Biroq, uning mazmun va chegarasi hozirgacha aniq belgilangan emas.

1.Ot mustaqil so'z turkumlardan biri. U boshqa turkumlardan bir necha belgi-xususiyatlari bilan ajralib turadi[1.129]. Ot so'zning leksik ma'no tashuvchi qismi (so'zdagi bunday qism leksema deb yuritiladi) predmetlik ma'nosini anglatadi. Bunday ma'noli leksema predmetni ham, predmet deb tasavvur qilinuvchi mavhum tushunchani voqea-hodisabi belgisini ham anglatadi[1.129].

O'zbek tilida: ota, ona, buva, bobo, ena, katta bobo, katta buvi, katta ena, farzand, jigargo'sha, jigarband, o'g'il, opa, singil, qiz, nabira, nevara, chevara, evara, amma, hola, tog'a, amaki, jiyan, holavacha, tog'avachha, ammavachcha, ammakivachcha, bo'la, bola-chaqa, boybuva, pochcha, kelinoyi, moma, qudag'ay, qudacha, kuyovbola, kelin, kundosh, qaynisingil, qayniuka, qayniaka,

Ingliz tilida: abseiler, adult, adulterant, adulteress, adulteress, adultescent, Adult body, Adult education, Adult-on-set diabetes, Adult female, Adulthood, Adult intelligence, Adult male, Adult male body, Adultness, Adult respiratory distress syndrome, Adult tooth, Affine, Affinity, Age-related macular degeneration, Agnate, Agnation,

Alderman, Ancestor, Ancestor worship, Ancestry, Antecedent, Antecedents, ascendant, aunt, aunt Sally, agony aunt, ancestry, grand-aunt, Great aunt, aaiden aunt, auntie, aunty, grand-aunt, great-aunt, maiden aunt, babe, baby, baby back ribs, baby blue, baby blue eyes, baby boom, baby boomer, baby boomlet, baby bouncer, baby brain, baby bugger, baby bump, baby bust, baby buster, baby fat, babyhood, Baby Ruth, babysitter, babysitting , a contented baby, a newborn baby, a premature baby, bairn, bambino, begetter, best man, better half, better half, big daddy, big sister, blended family, blood brother, blood relative, blood relation, boomer, boomerang child, boomerang child, boomerang generation, Boomerang kid, boy, best boy, boy band, boyf, boy friend, boyhood, boyishness, boy orator of the platte, boy racer, boy Scout, boy Scout of America, boy wonder, boy zone, boyo, bride gift, bridal gown, bridal party, bridal shower, bridal bonnet, bridal suit, bride price, bride-to-be, bridegroom, bridesmaid, bro, bros, brother, brotherhood, brother-in-law, big brother, half brother, brothers, full brother, blood brother, blood brotherhood, brother can you be spare a dime, brother-german, brother-in-law, brother-in-arms, brotherhood, bucker, buster, chap, chick, child, child abuse, child allowance, child bearing, child benefit,child birth, child care, child development, childe, child endowment, child guidance, childhood, childishness, child labor, childless, childlessness, child neglect, child progidy, poster child, second childhood, childishness, child seat, child support also maintenance, second childhood, childishness, young child, child Lin, Childminder, Childnessless, Chrisom child, Small/little child, A spoiled child, children, Children's Crusade, Children in need, Children's laureate, Children home, Children in need, childrens'-wear, dependent children, Family child care home, Homeless children and youths, clan, Close relative, cognate, Cousin brother, Country cousin, Cousinage, Cousin-german, Cross cousin, first cousin, full cousin, kissing cousin, Parallel cousin, Second cousin, Cousin sister, Crack baby, Third cousin,consanguinity, couple, cousin, cousin brother, Country cousin, Cousinage, Cousin-german, Cross cousin, first cousin, full cousin, kissing cousin, Parallel cousin, Second cousin, Cousin sister, Crack baby, Third cousin, dad, dada, daddy, Dad bod, Dad dancing, Dad joke, Daddy long-legs, Daddy's girl, Dadrock, damsel, damosel, daughter, Daughter-in-law, Demoiselle, descendant, descendent, Unilateral descent, distant relative, sugar daddy, elder brother, elder sister, elder statesman, Enation, ex, father, family, Family archives, Family business, Family child care home, Family circle, family clinic, family court, family doctor, Family income, support, Family leave, family lifecycle, family man, family name, Family planning, Homeless children and youths, clan, Close relative, Consanguinity, couple, cousin cousin brother, country cousin, Cousinage, Cross cousin, first cousin, full cousin, Kissing cousin, Parallel cousin, second cousin, cousin sister, Crack baby, Third cousin, dad, daddy, Dad bod, dad dancing, Dad joke, Daddy long-legs, daddy 's girl, Dadrock, damsel, Damosel, daughter, Daughter-in-law, Demoiselle, Descendent, Unilateral descent, distant relative, sugar daddy, Dude, Effeminate, Elder brother, elder sister, ex, father, family, Family allowance, family archives, Family business, Family circle, family clinic, family cort, Family doctor, family leave, Family income support, family man, family name, Family planning, Family practice, family room, Family size, family tree, family unit, family values, Forty-second cousin, father, fathers, Baby father, Father Brown, Father of the chapel, Father Christmas , City Father, Father confessor, Father's Day, Fathered: fathering, Gor father, fatherhood, Father of the House, Forefather, Foster father, Founding Father, Holy Father, Housr father, Founding Father, God father, Fathering, Father image, Father-in-law, Fatherland, Fatherlessness, Fatherliness, The father of something, Father of the chapel, Father of the House, Father time, Fathers 4 Justuce, a foster parent, From

father to son, Father knows best;

2.Fe'llar harakat ma'nosini bildiruvchi so'zlardir. Grammatikada harakat tushunchasi juda keng bo'lib, u uhlamoq, yotmoq, turmoq kabi fe'llar ifodalaydigan holatlarni, qorqmoq, cho'chimoq, zavqlanmoq, qadrlanmoq, o'smoq kabi fe'llar bildiradigan biologik prosesslarni va shu kabi hodisalarni o'z ichiga oladi. Bulardan har birining o'ziga hos xususiy tomonlari bo'lishi bilan birga, ularning hammasi uchun umumiy bo'lgan tomoni ham bor, ya'ni bularning hammasi zamon bilan bog'liq holda yuz beruvchi hodisa hisoblanadi[1.385].

O'zbek tilida: tug'moq, emizmoq, yo'rgaklamoq, ovqatlantirmoq, uhlatmoq, tarbiyalamoq, o'qitmoq, yuvintirmoq, kiyintirmoq, dazmollamoq, erkalamoq, qo'llab-quvvatlamoq, ta'minlamoq, boshqarmoq, g'amho'rlik qilmoq, sog'inmoq, sevmoq, mehr bermoq, mehr ko'rsatmoq, yuvintirib-kiyintirmoq, qayg'urmoq, to'g'atmoq, to'g'atmaslik, ko'rgani bormoq, istab turmoq, izlamoq, yo'qlamoq, tashrif buyurmoq, dastruxon atrofida yig'ilmoq, bayram qilmoq, bayramni birga nishonlamoq, sirlashmoq, qalbidagini aytmoq, murosaga keltirmoq, urishmoq, gap talashmoq, yuzko'rmas bo'lib ketmoq, ajralmoq, haqoratlamoq, ho'rlamoq, nafratlanmoq, qarz bermoq, qarz bermaslik, aldamoq

Ingliz tilida: give birth, to nurse, blanket, feed, cradle, bring up, teach, bathe, dress, iron, caress, support, provide, manage, care for, miss , to love, to give affection, to show affection, to wash and dress, to worry, to ignore, to visit, to wait, to look for, to lose, to visit, to gather around the table, to celebrate, to celebrate the holiday together, to confide, to express one's heart, to compromise, to fight, to argue, to disappear, to break up, to insult, to snort, to hate, to lend, not to lend, to cheat; agnate, baby, babysit, beget, barrow boy, bring up a child, Raise a child, consanguine, descent, foster Descend, Engender, father;

3.Sifat kategoriyasidagi so'zlar biror predmet voqea hodisa va holatning belgi xususiyatlarini (ya'ni rang-tusini, hajmini, shaklini, harakter-hossa-hususiyatlarini, vaznini, mazasini) ifodalash uchun hizmat qiladi[1.278].

O'zbek tilida: quda-andali, o'gay, farzandli, farzandsiz, befarzand, farzandtalab, bolasiz, bolali, tug'ishgan, tug'ishmagan, tutingan, tutinmagan, tug'ma, tarbiyaviy, tarbiyali, tarbiyasiz, mehmondo'st, shirinsuhan, tilishirin, jahldor, arazchan, mehrli, bemehr, mehrsiz, yuragi-tor, yuragi keng, oqibatli, oqibatsiz, o'qimishli, o'qimishsiz, ziyoli, namunali, namunasiz, iqtidorli, iqtidorsiz, harakatchan, yalqov, harakatchan, talabchan, kechiruvchan, kechirmaydigan, harakterli, haraktersiz, boy, kambag'al, o'ziga to'q, samimiy, puldor, pulsiz, obro'li, obro'siz, samimiy, nosamimiy, kibrli, kibrsiz, imonli, imonsiz, e'tiqodli, e'tiqodsiz, qudratli, qudratsiz, sahiy, ochko'z, kuykanak,

Ingliz tilida: adult, adulterine, Adult like, Affinal, Affine, Agnate, Agnatic, Ancestral, Antecedent, Ascendant, Baby, Babyish, boyish, boyishness, boylike, boy's own, old boy, bridal, brotherlike, brotherly, child-centred, child-free, childish, childlike, child neglect, child progidy, childish, childlike, childly,childless, childproof, a gifted child, naughty child, problem child, Street child/ children, Street child/ children, young child, cousinly, daughterly, Descendant, Effeminate, elder, Elder/older/younger brother, Little/kid brother, Elderly, Family-friendly, Extended family, the whole family, A large/small family, the nuclear family, Close/close-knit family, familial, fatherless, fatherly, female, Feminine, foster, fraternal, fuul blooded, Girlish, female, Female child, female parent, Feminine, foster,girlie, Girlish, girly, Grand, grandfatherly, Street child/ children, Young child, cognate, Consanguine, Cousinly, daughterly, descendant, Effeminate, elder, Little/kid brother, elderly, Elder statesman, enation, Family-friendly, extended family, The whole family, A large/small family, the nuclear

family, Close/close-knit family, Familial, Fatherless, Fatherly,

5.Ravish turkumiga oid so'zlar ish-harakatning belgisini, belgining (sifat yoki ravishning) belgisini va ba'zan predmet belgisini bildiradi[1.528]. Ravish ish harakatlarni belgisini bajarganda, bajarilish prosessini, holatini, paytini, o'rnini ko'rsatadi[1.528].

O'zbek tilida: o'g'il bolalardek, o'gilbolalarcha, bolalarcha, amakivachalarcha; ulug'vor, amakivachchalik

Ingliz tilida: boylike, boyishly, childishly, cousinly, girlish, girlishly, grandly, cousinly;

Frazeoema:

O'zbek tilida: qo'li uzun, qo'li kalta

Ingliz tilida predlogli frazeologik birliklar: blood is thicker than water[17.1]-means that family relationships are stronger than any other kind of relationship; aclose-knit family[17.2]-refers to a family that is very close and supportive of each other; cut from the same cloth[17.1]-describes people who are similar in personality or behavior; like father, like son / like mother, like daughter[17.2]-means that a child is very similar to their parent in personality or behavior; achip off the old block[17.5]-refers to achild who is very similar to their parent in personality or behavior; the apple doesn't fall far from the tree[17.2]-means that a child is very similar to their parent in personality or behavior; to run in the family[17.4]-means that a trait or characteristic is common among family members; sibling rivalry[17.6]-refers to the competition or jealousy that can exist between siblings; to take after someone[17.8]-means that a child is similar to a parent or relative in some way; black sheep[17.5]-refers to a family member who is considered a disappointment or an outcast; to keep it in the family[17.6]-means to keep something within the family, such as private information or to keep a family business or tradition going; to follow in someone's footsteps[17.3]-means to pursue a similar career or life path as a parent or mentor; born with a silver spoon in one's mouth[17.6]-means to be born into a wealthy and privileged family; (born) out of Wedlock[18.2]- illegitimate, born to unmarried parents; accident Of Birth[18.5]- luck in something due to family good fortune; like Taking Candy from a Baby[18.3]- very easy; It takes a whole village to bring up a child-for a good upbringing, a child should have positive and nurturing interaction with people outside immediate family as well; run in the Family[18.6]- Be inherited (as a trait) by multiple members of a family; (Having a) Bun in the Oven[18.8]- pregnant; expecting a baby; throw the Baby Out with the Bath Water[18.9]- eliminate something good while discarding the bad parts of something; up the Duff[18.6]- pregnant; babe In The Woods[18.6]- an innocent, naive, or inexperienced person in a dangerous or challenging situation; babe In Arms[18.5]- a very young child, an infant, or a person who is very inexperienced in a certain situation; like a Kid in a Candy Store[18.7]- to be very excited and enthusiastic about the selection of possible choices; often overwhelmed with joy; at One's Mother's knee[18.9]- learning something from a very young age under the guidance of one's mother;

He's achip off the old block, just as stubborn and determined as his father.

4. To'rtinchi muammo uslub va ohangga mutanosiblik bilan bog'liq [14, B.71]. Bunday uslubiy vositalarni ko'zda tutilgan samaraga putur yetkazmagan holatda tarjima qilish muammosi. Tarjimonlar asl matndagi bunday uslubiy vositalarning o'ynoqilik, istehzo yoki buzg'unchilik kayfiyatini yetkazib bera oladigan lingvistik ekvivalentini topishlari kerak bo'ladi.

Boshqa tomondan, dekonstruktiv tarjimalar bunday yondashuvga o'rganmagan o'quvchi kitobxon tarafidan qarshilik yoki tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Asliyat ma'nosini saqlab qolish bilan birgalikda tarjimaning tarjima qilinayotgan tilda qay darajada qabul qilinishi, auditoriyani jalb qilishga moslashtirishni ham hisobga olinishi lozimligi hozirgi zamon tarjimashunosligining dolzarb masalalardan biridir.

Oxir-oqibat, dekonstruksiya mualliflik, egalik huquqi va o'zgartirilganlik darajasi va ifoda imkoniyatlari bilan bog'liq axloqiy mulohazalarni keltirib chiqaradi. Tarjimonlar tarjima amaliyotida dekonstruksiyani qo'llashda bu yuklamalarni ham hisobga olishlari kerak.

Badiiy matnlar tarjimasida dekonstruksiya strategiyalari

Badiiy matnlarni tarjima qilishda dekonstruksiya strategiyalari an'anaviy tarjima me'yorlari bilan raqobatlashgan holatda, tarjima me'yorlari va manbada mavjud bo'lgan murakkabliklar, noaniqliklar va ma'nolarning ko'pligini qamrab olishga qaratilgan turli yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

1.Dekonstruksiyaning birinchi strategiyasi ko'p ma'nolilik va turfa xillikni o'z ichiga oladi [10,B.425].

Dekonstruktiv tarjima asliyat matniga xos ko'pma'nolilik va turfa xillikni o'z ichiga oladi. Tarjimonlar o'z ixtiyorlariga ko'ra ko'p talqinliliklar va lingvistik imkoniyatlarni asliyatning polisemantik tabiatidan kelib chiqib tanishtirishlari mumkin.

2.Ikkinchi strategiya bu - madaniy va lingvistik me'yor chegaralarini buzishdir [8, B.47]. Dekonstruktiv tarjima muammolari lingvistik va madaniy meyorlarni va ananaviy ifoda usullarini buzish orqali yuzaga keladi.

3.Uchinchi strategiya intertekstuallikka diqqatni qaratishdir [7, B.130]. Dekonstruktiv tarjima ko'pincha asl matndan tashqari manbalar, ishoralar yoki aks- sadolar mavjudligini bildiruvchi intertekstuallik bilan birgalikda namoyon bo'ladi.

Tarjimon intertekstual (matnlararo) munosabatlarni, manba matni bilan boshqa adabiy-madaniy aloqalarni tadqiq etishlari mumkin.

4.To'rtinchi strategiya ikki tomonlama qarama-qarshiliklarni so'roq ostiga qo'yishdir [6, B.503]. Dekonstruktiv tarjima til va fikrni asoslovchi mavjudlik/mavhumlik, ichki/ tashqi yoki asliyat/va uning nusxasi singari ikkilik qarama-qarshiliklarga qarshi kurashadi;

5.Beshinchi strategiya - madaniy manbalarni moslashtirish. Madaniy manbalar, frazeologik iboralar, adabiy kinoyalar tarjimada murakkabliklarni keltirib chiqaradigan qismlar hisoblanadi [12].

Dekonstruktiv tarjima yondashuvida madaniy olinmalar to'g'ridan-to'g'ri o'tkazilish orqali emas, tarjima qilinayotgan tilga yaratuvchanlik orqali moslashtirib o'tkaziladi.

6.Oltinchi strategiya o?quvchilarning faolligini va izohlash erkinligini (talqin turfaligini) rivojlantirishga qaratilgan. Tarjimonlar ataylab ba'zi elementlarni talqin qilish uchun ochiq qoldirishlari mumkin, bu esa o'quvchilarning ma'no yaratish jarayonida ishtirok etishiga imkon beradi.Tarjimada dekonstruktiv strategiyalarni qo'llash manba matnning o'ziga xos xususiyatlarini, maqsadni hisobga olgan holda oqilona amalga oshirilishi kerakligini ta'kidlash muhimdir. Auditoriya va tarjimaning maqsadi tarjimonlar dekonstruktiv tamoyillarni qabul qilishi va tarjima qilingan asarda izchillik, tushunarlilik va madaniy sezgirlikni saqlash o'rtasida muvozanatni saqlashlari kerak.

Dekonstruktiv tarjimada Uslub va ohangdorlikni saqlashga yondashuv

Dekonstruktiv tarjimalarda uslub va ohangdorlikini saqlab qolish qiyin vazifalardan

biri ekanligi hech birimizga sir emas, ammo tarjimonlar bu jihatga kelganida, turli strategiya va usullardan foydalanishlari mumkin. Tarjimaning uslubi va ohangini saqlab qolish uchun turli yondashuvlar joriy etilgan [8, B.47]. Ulardan bir nechtasini quyida ko'rib chiqamiz:

1.Birinchi yondashuv til o'yini va so'z o'yini [15]. Tarjimonlarbir xil effektni qayta yaratish uchun tarjima qilinayotgan tilda ekvivalent so'z o'yini yoki lingvistik vositalarni izlashi mumkin.

2.Ikkinchi yondashuv ritorik vositalarni takrorlashdir [9]. Tarjimonlar ushbu yondashuvda dekonstruktiv matnlarda an'anaviy ma'nodan qochish uchun kinoya, paradoks vagi perbolakabi ritorik vositalargatez-tez murojaat qilishlari mumkin. Tarjimon tarjima qilinayotgan tilda o'xshash ritorik vositalarni izlab topishi va ulardan mo'ljallangan ohangni saqlab qolish uchun foydalanishi lozim.

3.Uchinchi yondashuv madaniy va tarixiy manbalarni moslashtirishdir. Tarjimonlar matnning oqimi va uslubini saqlab qolgan holda kerakli kontekstni ta'minlash uchun izohlar, lug'atlar yoki qavs ichidagi tushuntirishlar kabi strategiyalardan foydalanishlari mumkin. Shu bilan bir qatorda, ular tarjima etilayotgan tilda o'zaro madaniy aloqador bo'lgan ma'lumotni topishlari mumkin, bu esa o'xshash ma'no hosil qilishga yordam beradi.

4.Dekonstruktiv tarjimada ohang va uslubni saqlash qolishga yondashuvlardan biri strukturaviy xususiyatlarni aynan o'xshatishga, takrorlashga intilishdir [14, B.71]. Asl matnning strukturaviy elementlarini aks ettirish orqali tarjimon bir xil tarzda olib o'tish va subversiyaga erishishi mumkin.

5.Beshinchi yondashuv tarjimonning izohlari, qaydlariga e'tibor qaratishdir [13, B.181]. Dekonstruktiv yondashuvda ushbu izohlarga diqqatni qaratish asliyat matni va tarjima qilinayotgan til o'quvchilari o'rtasidagi tafovutni qisqartirib, yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, "deconstruksiya (deconstruction)" Derredaning eng mashur terminlaridan biridir. Dereda bi terminni Haydeggerning "destruction (buzish, buzilish)" atamasidan ilhomlangan holda qo'llagan.

Asliyat tasviri o'z ijodkorining qarashlari yig'indisi bo'lib, xuddi bir binoga o'xshaydi. Bunda Deskartning ilk mulohazasi shundayki, avvalgi binoni buzib, uni "de-constructing" ya'ni qismlarga bo'lib, qayta qurmoq ma'nosini beradi. Dekonstruksionist (deconstructionist) deyilganda esa bir matnni har gal o'qiganda har xil tushunadigan odam tushuniladi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1.Adorno, T. W. (2002). Aesthetic theory. London. AandC Black. [2]
2.Anokhina, O. (2013). Translating Deconstruction: Problems in the Translation of Jacques Derrida's Works. University of Chicago Press.
3.Baker, M. (2018). In other words: A coursebook on translation (3rd ed.). Routledge.
4.Derrida, J. (1974). Of Grammatology. Johns Hopkins University Press.
5.Derrida, J. (1981). Dissemination. London. The Athlone Press Ltd.
6.Hassan, I. (1986). Pluralism in postmodern perspective. Critical Inquiry,12(3), 503-520.
7.Jameson, F. (1979). Reification and utopia in mass culture. Social text, (1), 130- 148.
8.Kruger, J.L. (2004). Translating Traces: Deconstruction and the practice of Translation. Literator, 25(1), 47-71.
9.Melaney, W. D. (1997). Art as a Form of Negative Dialectic. The Journal of Speculative Philosophy,11(1).
10.Meyer, K. (2002). The "Otherness" Within "Ownness": Reading T. S. Eliot's Ash-Wednesday. Christianity and Literature, 51(3), 425-454.
11.Miall, D. S., and Kuiken, D. (1994). Foregrounding, defamiliarization, and affect: Response to literary stories. Poetics, 22(5), 389-407;
12.Munday, J. (2012). Introducing translation studies: Theories and applications (3rd ed.). Routledge.
13.Neubert, A. (2001). Some implications of regarding translations as hybrid texts. Across languages and cultures, 2(2), 181-193. Sakai, N. (2006). Translation. Theory, Culture and Society, 23(2-3), 71-78.
14.Sakai, N. (2006). Translation. Theory, Culture and Society, 23(2-3), 71-78.
15.Sim, S. (2011). Lyotard dictionary. Edinburgh University Press.
16.https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarjima
17.https://www.merriam-webster.com/dictionary/deconstruct#:~:text=%3A%20to%20take%20apart%20or%20examine,and%20the%20right%20Wayne%20Karlin
18.https://dictionary.cambridge.org/us/dictionary/english/deconstruction
19.https://plato.stanford.edu/entries/derrida/#:~:text=Jacques%20Derrida%20(1930%E2%80%932004),texts%20but%20also%20political%20institutions
20.https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Plyuralizm

ТИЛ, ТАЪЛИМ, ТАРЖИМА
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

To'xtamishev Abdurasul
O'qituvchi
SamDChTI qoshidagi Konfutsiy instituti
Samarqand, O'zbekiston
abdurasul19921108@gmail.com

XITOY TILIDAGI 是shì UNSURINING BOG'LOVCHI HAMDA TA'KID MA'NOLARIDA MUQOBILLASHUVI XUSUSIDA

ANNOTATSIYA

Xitoy tilida 是shì elementi (iyeroglifi) turli vaziyatlarda turli so'z turkumlari vazifasini bajarib keladi. Jumladan, ot, olmosh, ravish, sifat, fe'l, bog'lovchi, bog'lama. Shu jihatdan uni ko'pvazifaviylik xususiyatiga ega deb hisoblanadi. Mazkur maqolada xitoy tilidagi是shì elementining bog'lovchi va ta'kid ma'nosini ifodalovchi bo'lak vazifasini bajarishi xususida fikr boradi. Shu bilan birga uning o'zbek tilidagi muqobillashuvi qiyosiy tahlil qilingan. Tahlil yuzasidan xitoy tilidagi 是shì elementi ishtirokidagi bog'lovchilar hamda ularning o'zbek tilidagi ekvivalentlari o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlari o'rganilib, xulosalar chiqarilgan. Tahlil uchun xitoy tilida o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlar olingan.

Kalit so'zlar: zidlov bog'lovchi, ayiruv bog'lovchi, shart bog'lovchi, kirish so'z, aniqlov bog'lovchi, ta'kid ma'nosi.

Tukhtamishev Abdurasul
Teacher
Confucius Institute at SamSIFL
Samarkand, Uzbekistan
abdurasul19921108@gmail.com

ON THE COMPETITION OF THE ELEMENT SHìshì IN THE CHINESE LANGUAGE IN CONNECTION AND EMPHASIS MEANINGS

ABSTRACT

In Chinese, the element (hieroglyph) of shìshì serves as different sets of words in different situations. Including nouns, pronouns, adverbs, adjectives, verbs, conjunctions, conjunctions. In this respect, it is considered multitasking. This article discusses the function of the element 是shì in Chinese language as a linking and emphatic clause. At the same time, its alternation in the Uzbek language is comparatively analyzed. Based on the analysis, the similarities and differences between the conjunctions with the element 是shì in Chinese and their equivalents in Uzbek were studied and conclusions were drawn. Works translated from Chinese into Uzbek were taken for analysis.

Keywords: conjunction of contradiction, conjunction of subtraction, conjunction of condition, introductory word, definition conjunction, emphasis

Тухтамишев Абдурасул
Преподаватель
Института Конфуция при СамГИИЯ
Самарканд, Узбекистан
abdurasul19921108@gmail.com

О КОНКУРЕНЦИИ ЭЛЕМЕНТА 是shì В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ В СВЯЗАТЕЛЬНЫХ И УКАЗАТЕЛЬНЫХ ЗНАЧЕНИЯХ

АННОТАЦИЯ

В китайском языке элемент (иероглиф) шиши в разных ситуациях выступает в роли разных наборов слов. В том числе существительные, местоимения, наречия, прилагательные, глаголы, союзы, союзы. В этом отношении это считается многозадачностью. В данной статье рассматривается функция элемента 是shì китайского языка как связочного и эмфатического предложения. При этом сравнительно анализируется его чередование в узбекском языке. На основе анализа изучены сходства и различия между союзами с элементом 是shì в китайском языке и их эквивалентами в узбекском языке, сделаны выводы. Для анализа были взяты произведения, переведенные с китайского на узбекский язык.

Ключевые слова: союз противоречия, союз вычитания, союз условия, вводное слово, союз определения, ударение.

Dunyo xitoyshunosligida xitoy tilidagi 是shì unsurining vazifaviy ma'no xususiyatlari to'liq o'rganilmagan. Mazkur ishda ushbu unsurning o'zbek tili bilan muqobilalshuviga oid ilk ilmiy ish hisoblanadi. Bu mavzuni monografik planda o'rganish xitoy tilidagi 是shì elementli hosilalarning funksional-semantik belgilarini aniqlash zarurati bilan belgilaydi. Zero, turli tillarning o'ziga xos tendensiya va qonuniyatlarini ochib berish, tillararo muqobillarni aniqlash, turli tillardagi farq va o'xshashliklar metodik jihatdan belgilanishi o'rganilayotgan tilning nutqiy qulayligi va samaraligi haqida ilmiy-amaliy ko'nikma hosil qilish imkonini beradi.

是shì elementining nutqiy tuzilmalar tarkibida bajaradigan vazifalari va ma'noviy xususiyatlarini sinxron va diaxron nuqtai-nazardan o'rganildi. Tahlil qilinayotgan misollar turli matnlardan tanlab olingan. Misollar tanlovida asosan Pekin universitetida tuzilgan Xitoy tili korpusiga (汉语语料库) [15] murojaat qilishni ma'qul topdik. Chunki 2009-yilda tuzilgan ushbu korpusda qadimgi va zamonaviy xitoy tiliga oid mingdan ortiq matn kiritilgan bo'lib, ulardan foydalanish orqali tahlil qilinayotgan hodisaning sinxron holati hamda tarixiy rivoji haqida to'liq ma'lumot olishimiz mumkin. Diaxron ma'lumotlar, asosan bog'lama tuzilmalarining hozirgi xitoy tilidagi funksional imkoniyatlarini yoritishda qo'l keladi.

Xitoyshunos olim Vangning fikriga ko‘ra, 是shì G‘arbiy Xan sulolasi (miloddan avvalgi 202-miloddan avvalgi 9-yil Xitoyda hukmronlik qilgan sulola) davrining oxirida paydo bo‘lgan [12. B. 212-276]. Chyu bu bog‘lama doirasidagi misollardan bo‘lgan 是是帚彗shì shì zhǒu huì *(bu kometa)* jumlasiga ishora qilgan holda, ushbu unsur Changshadagi Xan sulolasi davriga oid yangi qazilgan Mavangdui maqbarasidagi matnlarda uchragani sababli uning taxminan Chin (miloddan avvalgi 476-miloddan avvalgi 226-yillar) sulolasi hukmronligidan oldin paydo bo‘lganligi haqidagi fikrni ilgari surgan. Ushbu bog‘lamaning Chin sulolasidan oldin paydo bo‘lganligiga ishora qilishi bahstalab fikr bo‘lsa-da, Chyuning fikri xitoy olimlarining ko‘pchiligi, jumladan, Guo, Tang, Feng tomonidan qo‘llab-quvvatlangan [13, B. 75].

Vangning taxminicha, 是shì elementi milodiy 500-yillar atrofida shakllangan va keng tarqala boshlagan. Tilshunoslar bog‘lamaning rivojini aniqlovchi uch tamoyilni keltirib o‘tgan: 1) u ravishdan kelib chiqqan; 2) qadimgi xitoy tilida bog‘lovchi ma’nosini ifodalovchi yordamchi so‘zdan kelib chiqqan (tarkibida 也yě yordamchi so‘zi bo‘lgan jumlaning qisqarishi), 3) 是shì bog‘lovchisi [12. B. 212-276] qadimgi xitoy tilidagi neytral bo‘lishsizlik 不bù orqali inkor etilgan nominal bo‘lishsizlik 非fēi ning qisqarishi natijasida paydo bo‘lgan. Mazkur fikr keng miqyosda tan olinadi hamda aksariyat olimlar 是shì bog‘lamasining paydo bo‘lishi O‘rta Xitoy tili davri (200 milodiy -1000)ga xos ekanligiga urg‘u berishadi.

是shì bog‘lamasining kelib chiqishiga doir fikrlar hozirgacha qizg‘in bahslar mavzusi bo‘lib kelmoqda. Xitoylik olimlar tomonidan keng muhokamada bo‘lib kelayotgan fikrlarning uchtasiga to‘xtalib o‘tamiz.

是shì bog‘lamasi qadimgi xitoy tilidagi ko‘rsatish olmoshidan kelib chiqqanligi haqidagi qarash eng keng tarqalgan. Bu fikr Vang tomonidan ilgari surilgan va Feng, Pulleyblank, Shi va Li va boshqalar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan [2, B.277-311]. Vangning ta’kidlashicha, qadimgi xitoy tilida ega unga ishora qiluvchi anafora vazifasini bajarayotgan 是shì bog‘lamasi ko‘rsatish olmoshi bilan qo‘llanilgan. 是shì bog‘lamasi aksariyat hollarda ega va kesimni bog‘lash vazifasini bajaruvchi o‘rinda qo‘llanilib, o‘zining bog‘lamaga aylanish jarayonini boshlab bergan bog‘lama ko‘rsatkichi sifatida ishtirok etgan. Feng 是shì bog‘lamasini ilk qadimiy xitoy davridagi izohlovchi izohlanmish konstruksiyasidagi ko‘rsatish olmoshi birligining shaklidan kelib chiqqan deb hisoblaydi va ilk qadimgi xitoy tilidagi izohlovchi – izohlanmish konstruksiyasida ular o‘rtasida pauza kerakligini aytib o‘tadi [14, B.78-125].

Fengning taxminicha, 是shì ko‘rsatish olmoshining 是shì bog‘lamasiga aylanish sababi undagi ko‘rsatish olmoshi sifatida bajaradigan vazifaning hamda talaffuz jarayonida uni ifodalovchi pauzaning qo‘llanilishiga ehtiyojning yo‘qolishidir. Ammo, taxminimizcha, klassik xitoy tilida pauza ifodalanishi bilan bog‘liq muammo bu o‘rinda yuzaga chiqib qolgan, boisi matnda aynan 兮xī belgilari kabi iyerogliflarda talaffuz me’yorlari aks ettirilmagan. Pauzaga bo‘lgan ehtiyojning yo‘qolishi ko‘rsatish olmoshidagi urg‘u ohangining susayishiga olib kelgan hamda zaruratning bor yo‘qligiga qaramay ko‘rsatish olmoshining fe’lga aylanishiga sabab bo‘lgan.

Klassik venyanda eng keng tarqalgan mandaringa mansub 是shì bog‘lamasi yo‘q, u venyanda ko‘rsatish olmoshi ma’nosida qo‘llangan. Biroq avvalgi o‘rinlarda bir necha bor ta’kidlanganidek, so‘nggi Venyan davrida ma’lum o‘tish shakllari paydo bo‘lgunga qadar og‘zaki tilning ko‘p sonli elementlarini venyan va so‘zlashuv tili qorishmasida yozilgan matnlar o‘zlashtirdi. Jumladan, 等我所會是何[děng wǒ suǒ huì shì hé] – “*Meni nima kutishi mumkin?*” misoli tahlilida quyidagilarni kuzatish mumkin: 是shì bog‘lama morfemasi 會 huì “*mumkin bo‘lmoq*” modal fe’li bilan birikadi (bu venyan tilida unchalik keng tarqalgan emas) va bu birikma “*balki*” ma’nosini ifodalaydi. O‘rta asrlarda allaqachon modal fe’llardan foydalanish natijasida 是shì bog‘lamasini qayta ko‘rib chiqish va bu so‘zni bog‘lovchi sifatida ishlatish holatlari aniq qayd etila boshlandi - 會是何 huì shì hé ikkalasini ham "*bu (bo‘lishi mumkinmi)*" deb talqin qilish mumkin. Bunday qayta ko‘rib chiqishning mantiqiy mexanizmlari aniq va ravshan, ammo bu shakllarning ko‘pchiligini o‘z ichiga olgan matnlarni “sof” venyanga bog‘lash qiyin.

是shì – “*bo‘lmoq*” fe’lining xitoy tilida qo‘llanilish holati turli davrlarda turlicha bo‘lgan. Qadimgi xitoy tilida mavjud bo‘lgan 是 shì ning ayrim vazifalari zamonaviy xitoy tilida yo‘q bo‘lib ketgan yoki aksincha, zamonaviy xitoy tilida paydo bo‘lgan yangi vazifalari qadimgi xitoy tilida uchramaydi. Zamonaviy xitoy tilining yozma va og‘zaki shaklida 是shì unsurining ishlatilish ko‘lami ancha keng bo‘lib, unga oid qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bu taqdiqotlarning ayrimlarida 是shì gap bo‘lagi sifatida tavsiflangan bo‘lsa, boshqalarida grammatik birlik sifatida qaralgan. 是shì ni to‘liq anglab, tushunib, kerakli joyda to‘g‘ri qo‘llay olish uchun til va nutq o‘rtasidagi munosabatini anglash lozim bo‘ladi.

Tadqiq etilayotgan unsurning bog‘lovchi birlik yoki g‘arblik tadqiqotchilar ta’biri bilan “bog‘lovchi morfema” (Bound morpheme) sifatida qo‘llanishi quyidagi misollarda kuzatiladi: 1. 我虽然很穷，可是很有志气[wǒ suīrán hěn qióng, kěshì hěn yǒu zhìqì] – *Garchi u juda kambag‘al bo‘lsa-da, ammo juda ishtiyoqmand;* 2. 我虽然很穷，可是很有志气[wǒ suīrán hěn qióng, kěshì hěn yǒu zhìqì] – *Garchi u juda kambag‘al bo‘lsa-da, ammo juda ishtiyoqmand.* 是shì elementi mazkur vazifada qo‘llanishida ko‘pincha 可ke birligi bilan birikib, 可是*kěshì* (“ammo, lekin”) juftligini hosil qiladi. Ushbu element, shuningdek, 还hái birligi bilan birikkan holda 还是 háishì (“*yoki*”) bog‘lovchisini shakllantiradi.

Aytish joizki, ushbu ko‘rinishdagi bog‘lovchilar asosan qo‘shma gap qismlarini bog‘lash, ular o‘rtasidagi sintaktik-mazmuniy aloqani shakllantirish uchun xizmat qiladi. Masalan:1.**可是，就是**这样一个美丽非凡的小岛，却从来没有过人烟，更没有人造访 [kěshì, jiùshì zhèyàng yīgè měilì fēifán de xiǎo dǎo, què cónglái méiyǒuguò rén yīn, gèng méiyǒu rén zàofǎng] – ***Biroq*** *bunday g‘aroyib orolchada inson zotidan asar ham yo‘q, hech kimning u yerga qadami yetmas ekan* [8, B.35]*;* 2.**可是父**亲忙于公事，总是不带她去。这一天，女娃便一个人驾着一只小船向东海太阳升起的地方划去[kěshì fùqīn mángyú gōngshì, zǒng shì bù dài tā qù. Zhè yītiān, nǚ wá biàn yīgè rén jiàzhe yī zhǐ xiǎochuán xiàng dōnghǎi tàiyáng shēng qǐ dì dìfāng huá qù] – ***Ammo*** *otasi ish bilan band bo‘lib, uni hech qachon u erga olib bormagan. Shu kuni qiz kichik qayiqda Sharqiy Xitoy dengizi tomon, quyosh ko‘tarilgan joyga qarab bordi* [6, B.65]. Mazkur gaplarda 是 shì unsuri 可是 kěshì zidlov bog‘lovchisi vazifasini bajarib kelgan.

R.Sayfullayeva qo‘shma gaplar formal-funksional tuzilishini o‘rganayotib, mustaqil qo‘llanish imkoniyatiga ega bo‘lgan ikki qismlardan ikkinchisining boshida qo‘llanishi me’yoriy bo‘lmagan birlik, ya’ni bog‘lovchi kelishini kuzatadi. Bunda olima o‘zbek tilshunosligi uchun yangi bir xulosacha qiladi: “gap nutqiy hosila sifatida faqatgina maxsus tugallanishi ohangiga emas, balki maxsus bog‘lanish ohangiga ham egadir” [7, B.309-310].

Xitoy tilidagi **是**shì unsuri ishtirokida hosil bo‘ladigan qo‘shma gaplar xuddi shunday xususiyatga ega bo‘lishi mumkin va bunda **是**shì unsuri bog‘lovchi vazifasini bajaradi. Qiyoslang: 1.过了一年，大青死了，某甲想再捉一**条蛇来**补大青的缺，**就是没有**时间[guòle yī nián, dà qīng sǐle, mǒu jiǎ xiǎng zài zhuō yītiáo shé lái bǔ dà qīng de quē, jiùshì méiyǒu shíjiān] – *Oradan bir yil o‘tib, Daqing nomli iloni o‘libdi. Moujia uni o‘rniga boshqa bir ilon tutmoqchi bo‘libdi.* ***Ayni*** *vaqt topa olmabdi* [8, B.10]. Mazkur gapda **是**shì unsuri **就** jiù “*ayni*” ravishi bilan birikib, **就是**jiùshì shaklida bog‘lovchi hosil qilmoqda. Bog‘lovchining bu turi asosan mantiqiy urg‘uni ifodalashda qo‘llaniladi. Ya’ni, Moujia boshqa bir ilon tutishga xohish bor u, lekin ayni vaqt yo‘q ekanligiga urg‘u berilayapti.

2.远古的时候，人们吃野草，喝生水，食用树上的野果，吃地上爬行的小虫子，所以常常生病、中毒**或是受**伤 [yuǎngǔ de shíhòu, rénmen chī yěcǎo, hē shēng shuǐ, shíyòng shù shàng de yě guǒ, chī dìshàng páxíng de xiǎo chóngzi, suǒyǐ chángcháng shēngbìng, zhòngdú huò shì shòushāng.] – *Qadim zamonlarda odamlar yovvoyi o‘tlarni iste’mol qilishgan, xom suv ichishgan, daraxtlardagi mevalarni iste’mol qilganlar va erda sudralib yurgan mayda hasharotlarni iste’mol qilganlar, shuning uchun ular tez-tez kasal bo‘lib, zaharlangan* ***yoki*** *jarohatlangan* [6, B.78]. **是** shì unsuri **或** so‘zi bilan birlashib**, 或是** huò shì tarzida “*yoki*” degan ma’noni ifodalaydi hamda ayiruv bog‘lovchisi vazifasini barajishga xizmat qilgan.

3.**兔弟弟想，我跑得太慢了，要是跑得很快很快，她就跟不上了。兔弟弟就撒开腿**飞快地跑起来，再回头偷偷一看，月亮婆婆**还是**紧紧地跟着他呢[Tù dìdì xiǎng, wǒ pǎo dé tài mànle, yàoshi pǎo dé hěn kuài hěn kuài, tā jiù gēn bù shàngle. Tù dìdì jiù sā kāi tuǐ fēikuài dì pǎo qǐlái, zài huítóu tōutōu yī kàn, yuèliàng pópo háishì jǐn jǐn de gēnzhe tā ne] –- *“Menimcha, juda ham sekin yuguryapman,* ***agar*** *yanada tezroq yuguray, oymomo yetib olmasin”, o‘ylabdi quyoncha va xuddi qanot chiqarib uchgandek yugura boshlabdi. Yana orqasiga o‘girilib qarasa, oymomo* ***hali ham*** *orqasidan kelayotgan emish.* Birichi gapda **是**shì**要**yào “*kerak*” fe’li bilan birikkan holda**要是** yàoshi tarzida uchraydi. **要是** yàoshi “*agar”* ma’nosini ifodalab, shart bog‘lovchisi vazifasida namoyon bo‘lmoqda. Shu misolning ikkinchi gapida **是**shì unsuri 还hái “*hali*”ravishi bilan birga 还是 háishì “*hali ham*” ma’nosida ravish vazifasini bajarib kelayapti.

4.**于是他就坐在那里等了起来，从早晨直等到大 响午，他**觉得没希望了，才闷闷不乐地站起来要走了 [yúshì tā jiùzuò zài nàlǐ děngle qǐlái, cóng zǎochén zhí děngdào dà xiǎng wǔ, tā juédé méi xīwàngle, cái mènmènbùlè de zhàn qǐlái yào zǒule] – ***Shunday qilib****, Moujianing esiga tushibdi-yu, darhol o‘sha yerga*

borib ilonni kuta boshlabdi. Erta tongdan kun yarmigacha kutib, axiyri umidini uzib, tarvuzi qo'ltig'idan tushib ketishga hozirlanibdi[8, B.11]. Mazkur gapda predlog **于** yú **是**shì unsuri bilan birikib, bog'lovchi birlikni hosil qilmoqda.

5. **两只小口袋**，Liǎng zhī xiǎo kǒudài,
天天随身带，tiāntiān suíshēn dài,
要是少一只，yàoshi shǎo yī zhǐ,
就把人笑坏。jiù bǎ rén xiào huài.
Kichkina ikki cho'ntak,
Har kun yoningizda bo'lar.
Biri bo'lmay qolsa ***gar****,*
Odamlarga kulgu qilar.(paypoq) [4, B.37]

Keltirilgan topishmoqda**是**shì**要是** yàoshi *"agar", "garchi"* ma'nosini ifodalab, qo'shma gap qismlarini bog'lashda faol ishtirok etadi.

Keltirilgan misollar qiyosidan shuni xulosa qilish mumkinki, **是**shì unsuri bog'lovchi vazifasini bajarishida uning o'zbek tilidagi muqobillari *ammo, lekin, garchi, shu sabab* ko'rinishlarini olishi ma'lum bo'ladi.

Yana bir o'zbek tilshunosining ta'kidicha, bog'langan qo'shma gap tarkibida ishtirok etayotgan bog'lovchi vosita qo'shma gap sintaktik derivatsiyasining operatori bo'lishi bilan bir paytda, uning polipredikativlik xarakterini ta'minlovchi vosita vazifasini bajaradi. Bunda bog'lovchi vosita yordamida "qo'shma gap tarkibiy qismlarining predikativlik belgilari o'zaro munosabat o'rnatadi."

Quyidagi xitoy va o'zbek matnlaridan olingan misollarda buning isbotini ko'rish mumkin:

1.**女**娲那寂寞的心一下子热乎起来，她想把世界变得热热闹闹，让世界到处都有她亲手造出来的人，**于是不停工作，捏了一个又一个**[Nǚ wā nà jìmò de xīn yīxià zi rèhū qǐlái, tā xiǎng bǎ shìjiè biàn dé rè rènào nào, ràng shìjiè dàochù dōu yǒu tā qīnshǒu zào chūlái de rén, yúshì bù tíng gōngzuò, niēle yīgè yòu yīgè] – *Shundan so'ng, Nuyva qalbidagi yolg'izlik o'rnini jo'shqin iliqlik tuyg'usi egallaydi, dunyoning barcha joylarida odamlar bo'lishini xohlaydi,* ***shu tarzda*** *insonlarni birin-ketin yaratishda to'xtamaydi.* **是** shì unsuri **于是** yúshì ko'rinishida bog'lovchi vazifasida ko'llangan;

2.**但是世界**毕竟太大了，她工作了很久，双手都捏得麻木了，捏出的小人分布在大地上仍然太稀少[dànshì shìjiè bìjìng tài dàle, tā gōngzuòle hěnjiǔ, shuāngshǒu dōu niē dé mámùle, niē chū de xiǎo rén fēnbù zài dà dìshàng réngrán tài xīshǎo] – ***Lekin*** *olam juda katta edi, u uzoq vaqt ishlaganidan qo'llari og'rib qoldi, u yaratgan odamlar juda kam bo'lib, bir-biridan juda uzoqda edi*. **是** shì unsuri **但是** dànshì shaklida zidlov bog'lovchisi vazifasida qo'llanilgan;

3.*Vaqt tig'iz-ku, lekin ancha turgim bor* (Mirtemir);

4.*Bu jarang-jurung ovozlar uning g'ashini keltirmas, balki xayolini chalg'itib, unga orom bag'ishlardi*. (M. Karim).

Yuqoridagi xitoy va o'zbek tillaridagi misollardan kelib chiqib, shunday xulosa chiqarish mumkin: 1. xitoy tilida **是**shì elementi turli so'zlar bilan birikuv hosil qilib, gapda o'zining asl vazifasida emas, balki alternativni ifodalovchi bog'lovchi,

shart bog‘lovchi, aniqlov bog‘lovchi va zidlov bog‘lovchi vazifasini bajarib kela oladi; 2. 是shì elementi bog‘lovchi vazifasida kelganida o‘zbek tilidagi muqobillari sifatida zidlov bog‘lovchilari *ammo, lekin biroq,* ayiruv bog‘lovchisi *yo..yo,* ergashtiruvchi aniqlov bog‘lovchisi *agarda,* shart bog‘lovchisi *agar, agarda, garchi* larni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Tadqiqot jarayonida 是shì elementi ma'lum vaziyatlarda "*to‘g‘ri*, *yaxshi*, *albatta*" kabi ma'nolarni ifodalash vazifasini ham bajarishi kuzatildi. Bunday qo‘llanishda ushbu element oldingi so‘zlovchi bildirgan fikrni tasdiqlash yoki bildirilgan undash, taklif-tavsiya, rozilik berish xizmatini o‘taydi. Masalan,

(Dialog) 1. 纬儿，听说庐山**房**间**要拍**卖，你怎么看？

是啊，**广告**词上说：蒋介石失去的，毛泽东得到的，全都卖给你！

["Wěi er, tīng shuō lúshān biéshù yào pāimài, nǐ zěnme kàn?"]

["Shì a, guǎnggào cí shàng shuō:'Jiǎngjièshí shīqù de, máozédōng dédào de, quándōu mài gěi nǐ'!"]

"Veyer, Lushan uyini kimoshdi savdosiga qo‘ymoqchi, deb eshitdim. Siz nima deb o‘ylaysiz?"

***To‘g‘ri**, reklamada shunday deyilgan: "Chiang Kay Shek nima yo‘qotdi va Mao Tzedun qo‘lga kiritdi, hammasi sizga sotiladi!";*

2.**是啊**，**她此次**访问重庆，又是一个不寻常的日子[shì a, tā cǐ cì fǎngwèn chóngqìng, yòu shì yīgè bù xúncháng de rìzi] – ***To‘g‘ri,** uning Chongchingga tashrifi yana bir noodatiy kun*. Keltirilgan gaplarning ikkalasida ham, so‘zlovchi B so‘zlovchi A ning fikrini tasdilayotgan ma'nosi ifodalangan.

Ma'lumki, "*to‘g‘ri*", "*albatta*" kabi atov birliklari siktaktik tuzilmalar tarkibida tez-tez uchraydi. Jumladan, *"Aka, bugun ota-onalar yig‘ilishiga dadam boradilarmi? – Dadam,* ***albatta*** *boradilar, balki onam ham boradilar"* va *"**To‘g‘ri**, yomon odam jazosini tortishi kerak, – dedi Saida"* ko‘rinishidagi gaplarni tahlil qilishgan tilshunoslar "*albatta*", "*to‘g‘ri*" unsurlari gap tarkibida gap bo‘laklari bilan grammatik aloqaga kirishmasdan hamda so‘z birikmasi hosil qilmasdan, balki sub'yektiv modallik munosabatini ifodalanishini qayd etadilar. Ular mazkur birliklarni "kirish kengaytiruvchilari" yoki "kiritmalar" deb ataydilar.

Gapning "konstruktiv bo‘lmagan bo‘lagi" sifatida qaralishi mumkin bo‘lgan "kiritma" qurilma gap holatida bo‘lib, nutqda gapdan anglashilayotgan fikrga qo‘shimcha tariqasidagi ya'ni fikrni bayon etish vositasidir." Ushbu kiritmalar gap mohiyatiga egaligi va uning asosiy gap bilan mazmuniy bog‘liqligini inobatga olib, tadqiqotchilar ularni so‘z-gap sifatida o‘rganishni ma'qul ko‘radilar.

Semantik-funksional shakllangan so‘z-gaplarning o‘ziga xos g‘ayriodatiy lug‘aviy ma'noga ekanligi quyidagi xususiyatlar orqali namoyon bo‘lishi qayd etiladi:

a) ma'no imkoniyati chegaralangan;
b) grammatik shaklni talab qilmaydi;
v) boshqa so'zlar bilan birikish qobiliyatidan mahrum;
g) gapda bajara oladigan vazifasi cheklangan;
d) ma'noli qismlarga ajralmaydi.

Darhaqiqat, so'z-gaplar g'ayrioddiy birliklar bo'lsa-da, lekin ma'no va vazifa jihatidan barqaror lisoniy birlikdir.

Shunday qilib, xitoy tilidagi **是**shì birligining kiritma, so‘z gap vazifasida qo‘llanishida uning o‘zbek tilidagi muqobillari ham xuddi shunday vazifa bajarishi kuzatiladi.

- 嵬姑子接着说，“你五年前, 不是在华山路上曾经向猎人买了一只活璋子放掉了吗？”
- “**是呀**，有这么回事”
- *Hua Guzi gapida davom etib: u sen besh yil oldin, Hua tog‘ida bir ovchidan suv kiyigini sotib olib yana qo‘yib yuborganmiding?”*
- *“**Ha**, shunday bo‘lgan edi.”*

Ma’lumki, til birliklarining lisoniy maqomi ularning nutqiy tuzilmalar hosil bo‘lishidagi ishtiroki darajasi bilan belgilanadi. Ammo lisoniy birlikning nutqqa ko‘chirilishida aksariyat hollarda uning o‘zi uchun emas, balki boshqa bir birlikning sintaktik faollashuvi uchun xizmat qilishi kuzatiladi. Fransuz olimi A.Martine ta’limotiga ergashgan o‘zbek tilshunoslari biron bir birlikning funksional faollik olishi uchun xizmat qiladigan elementni “funksional monema” deb atash tarafdorlaridir. Ular juda o‘rinli ta’kidlaganlarirek, “fikrni til yordamida ifoda etishda gapning barcha ishtirokchilari faol qatnashadi. Biroq bu jarayonda har bir ishtirokchi o‘ziga xos vazifa bajaradi va shu jihatdan boshqa ishtirokchilardan funksional salmog‘iga ko‘ra farqlanadi.” Bizning olib borgan kuzatuvlarimiz guvohlik berishicha, 是shì unsuri bog‘lama va boshqa vazifalarni bajarganida aynan funksional monema maqomini olib, boshqa birliklarning funksional faollik olishi uchun xizmat qiladi. Masalan, 1. **但是**她总觉得有一种说不出的寂寞，越看越烦，孤寂感越来越强烈，连自己也弄不清楚这**是**为什么 [Dànshì tā zǒng juédé yǒuyī zhǒng shuō bu chū de jìmò, yuè kàn yuè fán, gūjì gǎn yuè lái yuè qiángliè, lián zìjǐ yě nòng bù qīngchǔ zhè shì wèishéme] – ***Ammo** ma’buda har doim o‘zini yolg‘iz his etardi va **bu** yolg‘izlikning sababini hatto o‘zi ham tushuna olmaydi*. 是shì unsuri 但 so‘zi bilan birikib, zidlov bog‘lovchisini hosil qiladi.

2.转身思考，觉得阿宝未见得**就是**美如天仙，何必自惭形秽[zhuǎnshēn sīkǎo, juédé ā bǎo wèi jiàndé jiùshì měi rú tiānxiān, hébì zìcánxínghuì] – *O‘girilib o‘ylanib qolibdi, A Bo **aynan** paridek chiroyli bo‘lishi shart emas.* 是shì unsuri 就 jiù “*ayni*” ravishi bilan birikib, **就是**jiùshì aniqlov bog‘lovchisini hosil qiladi va ta’kidni kuchaytirishga xizmat qiladi.

3.**于是**，前推后拥地把他带回了家里 [yúshì, qián tuī hòu yōng de bǎ tā dài huíle jiālǐ] – *Sun Zichu esa bunga parvo qilmabdi, **shunda** do‘stlari uni sudrab uyiga olib ketishibdi.* Ushbu gapda shì unsuri 于predlogi bilan birikib, 于是yúshì tarzida ketma-ketlikni ifodalovchi bog‘lovchini shakllantiradi.

Keltirilgan misollarni o‘zbekcha tarjimalari bilan qiyoslaganimizda **是**shì unsurining muqobillarida ham funksional monema maqomi saqlanayotganligiga guvoh bo‘lamiz.

To‘plangan material tahlili jarayonida **是**shì elementi ma’lum turdagi pragmatik vazifani bajarishining guvohi bo‘ldik. Ushbu vazifa uzatilayotgan axborotning u yoki bu bo‘lagini alohida ta’kidlab ko‘rsatishida namoyon bo‘ladi. Hozirgi xitoy

tilida fe'l markaziy sintaktik unsur bo'lganligi bois, odatda gap tarkibida fe'ldan keyingi o'rinni egallaydigan bo'laklar ta'kidlanadi. Pragmatik faollashtirish vazifasini bajaruvchi diskursiv ko'rsatgich 是shì yuklamasi o'zidan keyin keladigan bo'lakni boshqalariga qarama-qarshi qo'yadi.

是shì elementining ta'kid vazifasi o'zbek tilidagi tarjima matnlarida o'ziga xos ravishda ifoda topadi: 1. **老虎从后面赶上来**，对着狮子咆吼说：“**她是我先抓到的**，说好她补完天后让我吃，你竟敢抢先?” [Lǎohǔ cóng hòumiàn gǎn shànglái, duìzhe shīzi páohǒu shuō: “Tā shì wǒ xiān zhuā dào de, shuō hǎo tā bǔ wán tiānhòu ràng wǒ chī, nǐ jìng gǎn qiǎngxiān?”] – *Orqadan keksa arslon sherga jahl bilan baqirdi: "Bu qizni **men birinchi tutib oldim**, u osmonni yamab bo'lganidan so'ng uni yemoqchiman. Sen uni to'xtatishga haqqing yo'q!"*;

2. **道士又**说：“**我是要**专用这梨核做种子**的**[dàoshi yòu shuō: “Wǒ shì yào zhuānyòng zhè lí hé zuò zhǒngzǐ de] – *Rohib javob beribdi: "Men ataylab **bu nokning danagini ekish uchun yeyapman**".*

3. **他又仔**细看看车子，有一只车把不见了, **是新被砍断的** [tā yòu zǐxì kàn kàn chēzi, yǒuyī zhǐ chē bǎ bùjiànle, shì xīn bèi kǎn duàn de] – *Diqqat bilan aravaga qarasa, arava ko'rinmabdi, **yangi arava bo'laklarga bo'lib tashlangan edi***. Yuqoridagi misoda是 shì unsuri ta'kid ma'nosini ifodalalashga xizmat qiluvchi 是 ...的 shì...de konstruksiyasining qismi sifatida qo'llangan bo'lib, so'zlovchi alohida ta'kidlamoqchi bo'lgan so'z yoki bir nechta so'zlarni ushbu kontruksiya orasida qo'yib gapiradi va so'zlovchi shu orqali tinglovchining e'tiborini tortishga harakat qiladi.

Xitoy tilida 是shì elementi turli so'zlar bilan birikuv hosil qilib, gapda o'zining asl vazifasida emas, balki alternativni ifodalovchi bog'lovchi, shart bog'lovchi, aniqlov bog'lovchi va zidlov bog'lovchi vazifasini bajarib kela oladi; 2. 是shì elementi bog'lovchi vazifasida kelganida o'zbek tilidagi muqobillari sifatida zidlov bog'lovchilari *ammo, lekin biroq,* ayiruv bog'lovchisi *yo..yo,* ergashtiruvchi aniqlov bog'lovchisi *agarda,* shart bog'lovchisi *agar, agarda, garchi* larni keltirib o'tishimiz mumkin.

Iqtiboslar/Сноски/Referances:

1.Bobokalonov R. O‘zbek tilida semantik-funksional shakllangan so‘z-gaplar. Filol.fan.nomzod...diss... avtoreferati. – T., 2000.
2.Feng, Shengli. The copula in classical Chinese declarative judgment sentences//Journal of Chinese Linguistics, 21. 1993. – P 277-311.; Pulleyblank, Edwin G. 1995. Outline of Classical Chinese Grammar. Vancouver: UBC Press.
3.Hartman K., Zimmerman M. Morphological Focus Marking in Guruuntun (West Chadic). – Berlin: Humboldt University, 2006.
4.Karimov A.A. Yuzta topishmoq. – T.: O‘zbekiston. – b. 37.
5.Ne’matov H.G‘., Sayfullayeva R.R., Zamonaviy o‘zbek tili. MorfologiY. – T.:Mumtoz so‘z, 2008. – b.
6.Musurmanov E., Ma Sui Ling. Xitoy folklori (Afsona va ertaklar), – Samarqand. 2014. – b.
7.Sayfullayeva R.R., Hozirgi o‘zbek tilida qo‘shma gaplarining formal-funksional talqini. – T.: Fan, 1994. – B. 309-310.
8.Ziyamuhamedov J.T., Shamsiyeva Z.F. “Liao Zhai (Pu Sung Ling) novellalari”. Toshkent: Muharrir. 2012.
9.Ziyamuhamedov J.T., Pu Sung Ling va O‘rta asr xitoy novellalari. Toshkent: Cho’lpon. 2016.
10.Xayrullayev X. Predikativlik hodisasi va uning ob’yektlari. –Samarqand: SamDCHTI, 2002. – b.
11.白话“聊斋”故事/从书编委会编. 外文出版社. 2012. – 页. 24.
12.王力. 中国文法中的系词 // 汉语史论文集. 北京: 商务印书馆. 1937. 212-276 页.
13.郭喜良. 关于系词是产生时代和来源论争的几点认识. 汉语史论集. 北京：商务印书馆.1988.
14. **馮勝利**. The copula in classical Chinese declarative judgment sentences // Journal of Chinese Linguistics 21. 1993. –P. 277-311.
15.汉语语料库. http://ccl.pku.edu.cn:8080/cll_corpus/search
16.http://ccl.pku.edu.cn.

T A Q R I Z
Х.Абдураҳмоновнинг "Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар" асарига
ТАҚРИЗ

Халқ оғзаки ижоди азал-азалдан халқ донишмандлигининг энг ёрқин намуналаридан ҳисобланади. Улар халқ ижрочилари тилидан ёзиб олиниб, авлоддан авлодга етказиб борилмоқда. Адабиётшунослар ва фольклоршунослар эса мазкур маънавий бойликларимизни атрофлича ўрганиб келмоқдалар. Бироқ уларнинг тил хусусиятларини ўрганиш ва тадқиқ этиш тилшуносларимиз томонидан тўлиқ ўрганилмаган. Шу нуқтаи назардан Х.Абдураҳмоновнинг "Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар"и айни шу жиҳатдан муҳим ва долзарб ҳисобланади.

Бу китоб илмий ходимлар, аспирантлар ва олий ўқув юртлари талабаларига мўлжалланган бўлиб, халқ оғзаки ижоди тилининг синтаксиси ўзбек адабий тили синтаксиси қоидаларига таянган ҳолда таҳлил этилган. Бунда халқ оғзаки ижоди намуналаридан кўпроқ мақолларнинг синтактик хусусиятлари, жумладан, мақолларнинг синтактик қурилиши, уларда содда гап турларининг қўлланиш принциплари, содда гаплар қурилишининг баъзи хусусиятлари, мақолларнинг синтагматик бўлиниши, мураккаб конструкциялар, боғловчисиз қўшма гаплар, мақоллар синтактик қурилишининг барқарорлиги каби бир қатор масалалар устида фикр юритилган.

Муаллиф дастлаб мақоллар тили синтаксисини ўрганиш тарихига эътибор қаратиб, ўзбек тилшунослигида бу масала, умуман, халқ оғзаки ижоди тили ўрганилмасдан қолаётганлигини; бошқа тилларда бу соҳага оид анчагина ишлар - диссертациялар мавжудлигини таъкидлайди ва рус тилшунослигида П.Глаголевский бу масалага биринчи марта эътибор берганлиги ҳамда ўз асарини мақоллар тили синтаксисига бағишлаб ёзганлигини эътироф этади. Шунингдек, И.А.Филлиповский, Г.С.Варлакова, А.Аннануров, Р.Сарсенбоев, Т.Қўрдабоев, Н.З.Гаджиева каби рус, қозоқ, туркман ва озабайжон тилларида тадқиқот олиб борганликларини ва бу ишларнинг мазмун-моҳиятини баён қилади, ўз муносабатини ҳам билдириб ўтади. Х.Абдураҳмонов "Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар" асарини ёзишда рус тилшуносларининг ишлари ва фикрлари методологик асос қилиб олинганлигини ҳамда унинг ёзилишида филология фанлари доктори А.Fуломов, М.Асқарова, F.Абдураҳмоновларнинг монографик ишларига суянилганлигини таъкидлаб ўтади.

Мақоллар тили синтаксиси ранг-баранг. Унда гапнинг кўрсатилган мақсадга кўра кўринишлари, гап бўлакларининг ифодаланиши, бир составли гаплар ва тўлиқсиз гапларнинг шаклланишига хос хусусиятларини тилшунослик нуқтаи назаридан текшириш муҳим натижалар беради. Айниқса, мақолларда гап бўлакларининг ифодаланиши, гап бўлакларининг формал хусусиятлари, бир составли гапларнинг баъзи турлари ўзига хос тарзда шаклланган. Асар муаллифи мақоллар тили учун ҳар хил мураккаб конструкция ва формалар ётлигини, кишилар мақоллар орқали кўпроқ насиҳат, маслаҳат, илтимос қилишини, шунингдек, маълум мақсаднинг амалга оширилишини шарт қилиб қўйишини, шунинг учун унда фикрнинг турлича шаклланишини ифодаловчи гап турлари чегараланганлигини қайд этади. Шу билан бирга, мақоллар тили синтаксисини тадқиқ қилар экан, ундаги синтактик категорияларнинг кенг тарқалган турлари ва хусусиятларини текширади. У, масалан, мақолларда содда, қўшма ва мураккаб гаплар, уларнинг турлари (мақолларда гаплар кузатилган мақсадга кўра тўрт хил

кўринишда учрайди: 1. Дарак гаплар. 2. Буйруқ гаплар. 3. Сўров гаплар. 4. Ундов гаплар; бир составли гаплар: шахси аниқ гаплар, шахси умумлашган гаплар, шахссиз гаплар, сўз-гаплар (мақолларда бу тури учрамайди), инфинитив гаплар (мақолларда бу тури учрамайди), номинатив гаплар (мақолларда бу тури учрамайди); тўлиқ гаплар ва тўлиқсиз гаплар; боғланган қўшма гаплар, эргашган қўшма гаплар, боғловчисиз қўшма гаплар; шарт феъли бошқарган кострукцияли мураккаб гаплар, равишдош бошқарган конструкцияли мураккаб гаплар) гап бўлакларининг ифодаланиши ва уларнинг баъзи морфологик хусусиятлари, эга ва кесим хусусиятлари, эга ва кесимнинг кўпинча қўлланмаслиги, мақоллар синтактик қурилишининг синтагматик бўлиниши, сўзларнинг такрорланиш ҳодисаси мақоллар тили синтаксисининг энг характерли хусусиятлардан эканлиги ҳақида қимматли фикрларни баён этади. Шунингдек, ишда мақоллардаги қўшма гапларнинг тез-тез учрайдиган типлари - боғловчисиз қўшма гаплар ҳамда уларнинг типлари ҳақида ҳам мулоҳазаларини ифодалайди. Жумладан, муаллиф: "Бошқа тиллар каби ўзбек тили ҳам боғловчисиз қўшма гапларга жуда бойдир. Боғловчисиз қўшма гапларнинг баъзи конструкциялари мақолларда айниқса типик бир ҳолдир. Шу сабабли уларни мақоллар асосида ўрганиш, бизнингча, жуда муҳим натижалар бериши турган гап", - дея фикр юритади ҳамда боғловчисиз қўшма гапларнинг мақоллар асосида ўрганилишининг ўзига хос илмий ва амалий томонларини, структура-семантик хусусиятларини ҳам таҳлил қилади.

Мазкур асар тадқиқотимиз мавзусига яқин бўлгани боис биз унда келтирилган мақоллар синтактик қурилишининг синтагматик бўлиниши ҳақидаги фаслга батафсил тўхталамиз.

Синтагмаланишнинг интонация, пауза, логик урғу кабилар билан характерланиши ва бошқаларни кўз олдимизга келтирсак ҳам содда, ҳам қўшма гаплар қисмларининг боғланишида интонация, пауза, логик урғулар муҳим ва асосий воситалардан бири эканлиги ойдинлашади.

Маълумки, гапда сўзлар ўзаро алоқага киришиб, сўз гуруҳларини, бирикмаларини ташкил этади. Сўзлар ўзаро грамматик жиҳатдан шаклланган бирикма тусини олади. бироқ ҳамма вақт ҳам бундай сўзлар гуруҳи сўз бирикмаси саналавермайди. Масалан, "ўт билан ўйнашган ёнар" гапида сўзлар ўзаро маълум гуруҳга кириб, грамматик жиҳатдан бир бутунлик ташкил қилиш билан бирга, улар интонация жиҳатидан ҳам кейинги сўздан ажратилиб талаффуз қилинмоқда. Бунда сўз ва сўз гуруҳларининг маълум семантик жиҳатдан шаклланган бутунлик тусини олишида интонация ҳам муҳим роль ўйнайди. Мазкур фикрлар орқали муаллиф ҳар бир синтагма бир ҳаво чиқариш йўли билан айтиладиган кичик синтактик бутунлик деган хулосага келади. Шунингдек, ҳар бир гап ҳар хил талаффуз қилинишини "умр савдоси - қийин савдо" мақоли мисолида таҳлил қилиб, синтагма икки пауза орасидаги нутқий элементлар эканлигини исботлашга ҳаракат қилади. Бунда сўзловчи "умр савдоси" бирикмасини талаффуз қилганда, қандайдир бирор нарсани бошқа бир нарсадан ажратиб кўрсатишга беихтиёр уринади. Шунинг учун сўзловчи ундан кейин қисқача пауза билан "қийин савдо" бирикмасини талаффуз қилади. Булар алоҳида синтагмалардир.

Ҳар бир синтагмада овоз тони маълум кўтарилиш ва пасайиш билан характерланади. Бунда синтагма охиригача овоз тони кўтарила боради. Кейинг синтагмадан ажралиб туриши учун ҳар бир синтагманинг кейиги сўзи, айниқса шу сўзнинг сўнгги бўғини кучли талаффуз қилинади. Унга урғу тушган бўлади. Масалан, одобли бола / элга манзур. Режасиз иш / қолипсиз ғишт. Бундай вақтда биринчи синтагманинг охирги сўзи кучли логик жиҳатдан ажратилиб талаффуз қилинади. Шундан кейин овоз тони пасайиб, қисқа тўхталиш - пауза бўлади.

Бироқ маллиф шуни уқтирадики, синтагмалашиш сўзловчининг қайси сўзга эътибор бериш-бермаслигига, сўзларнинг қайси сўз билан алоқага кириш-кирмаслигига боғлиқдир. Демак, мазкур ишда синтагма сўзларнинг грамматик, семантик ва фонетик жиҳатдан шаклланган бутунлигидир деб хулосаланган.

Маллиф ушбу асарида мақолларда мужассам бўлган фикрнинг таъсирчан ифодаланишига синтагматик бўлиниш хизмат қилишини таъкидлайди ва мақол-гаплар кўпинча икки синтагмага бўлинишини мисоллар асосида изоҳлайди: Меҳнат - /роҳат, яхши топиб гапирар / ёмон қопиб гапирар. Шу ўринда мақол-гаплар қурилишининг энг кўп тарқалган тури бу - бир эганинг бир синтагма, бир кесим бир синтагмани ташкил қилишини ва буни "тўғри / ўзади, эгри / тўзади; инсон қўли / гул; она билан бола / гул билан лола" каби мақоллар асосида далиллайди. Шунингдек, поэтик характердаги мақолларда айрим гап бўлаклари алоҳида бир синтагмани ташкил қилиши, бунинг учун маълум вазият бўлиши лозимлигини, масалан, эга ва кесим бир-биридан маълум масофада жойлашиб, эга ва кесимлар орасида бошқа гап бўлаклари бўлса, эга ҳам, кесим ҳам алоҳида-алоҳида синтагмаланишини қайд этади.

Маълумки, эга икки бош бўлакли гапларнинг бош бўлаги саналиб, гапда у мутлоқ ҳоким вазиятда бўлади. Мана шу жиҳат мақолларда ҳам акс этиши мазкур асарда таҳлилга тортилган. Шу билан биргаликда, ўзбек халқ мақолларида атоқли от билан ифодаланган эгалар қўлланилмаганлиги, рус халқ мақолларида эса атоқли отлар ва улар орқали ифодаланадиган эгалар тез-тез учраб туриши муаллиф томонидан таъкидлаб ўтилган. Шунинг учун мақолларда эгаларнинг отлашган сўз-сифат, сифатдош, бутун сўз бирикмалари орқали ифодаланишини таҳлилга тортганлигини ҳам айтиб ўтади. Кесимлар ҳақида ҳам тўхталар экан, мақолларда кесимлар конкрет замон маъносини билдирмаслигини, гарчи у маълум замон формасида бўлса-да, умумзамонни - муттасил давом этиб турувчи воқеа-ҳодисаларни билдиришини таъкидлайди. Мақоллардаги кесимнинг энг характерли хусусиятларидан бири сифатида кўпгина мақолларда кесимлар феълининг буйруқ-истак майли орқали ифодаланиб, у кўпинча II шахс, бирликда бўлишини қайд этади: Шакарли тилга ишонма. Музга суянма, ёвга сиғинма. Бундан ташқари, кесимлар кўпроқ -ар, -мас аффикслари орқали ясалган сифатдошлар билан ифодаланишини, улар кўпроқ боғловчисиз қўшма гап иккала компоненти кесими, эргаш гапли қўшма гапнинг бош гапи кесими бўлиб кела олиши (алоҳида олинган содда гап кесими вазифасида кам учраши)ни мисоллар асосида исботлайди: Олтин-кумушнинг эскиси бўлмас, ота-онанинг баҳоси бўлмас. Эшикдан кундош кирса, тешикдан уруш кирар. Қадрласанг, қадринг ошар, қадрсиздан ҳамма қочар.

Муаллиф мақолларда кесимларнинг кенг тарқалган тури - бу уларнинг феълдан бошқа сўз туркумлари билан ифодаланишини, айниқса от ва сифатлар кўпчилик мақолларда кесим вазифасини бажариб келиши ҳамда улар кўпинча алоҳида кесим вазифасини бажариб келиши билан бирга, бошқа сўз билан ёки феъл билан бирга , унинг от қисмини ташкил этиб, кесим бўлиб келишини қуйидаги мисоллар орқали далиллайди: Деҳқоннинг хазинаси - ер. Инсон қўли - гул. Ҳунар - зар, ҳунарсиз - хор. Ақлнинг ўлчови - идрок. Жаҳл - душман, ақл - дўст. Марднинг иши - меҳнат. Оғиз - айғоқ, тил - тайғоқ. Тежоғлиқ иш - бежоғлиқ. Ҳар ким элига, ўрдак қўлига. Қўл югуриги - ошга, тил югуриги - бошга. Тирикликнинг кучи - бирликда. Куч - билимда. Хазина ғойибдан эмас - меҳнатдан. Ош - каттадан, иш - кичикдан.

Мазкур ишда яна иккинчи даражали бўлаклар мақолларда ўзбек адабий тилидаги сингари кўринишда ифодаланганлиги, бироқ мақолларда иккинчи даражали бўлакларнинг шаклланишида, ташкил топишида восита бўлган грамматик

кўрсаткичлар иштирок этмаслиги ёки кам иштирок этиши ҳам таҳлилга тортилган. Мақолларда айрим гап бўлакларининг формал жиҳатдан тўлиқсизлиги энг қадимги даврларда ҳали сўзлар грамматик-семантик ҳолатларининг дифференциациялашмаган даврида яратилган мақолларда учрашини айтиб ўтади ва буни Маҳмуд Кошғарийнинг "Девону луғатит турк" асарида берилган мақоллар орқали уларнинг ҳозирги кўринишлари ўзбек адабий тилининг қонун-қоидаларига мувофиқ ифодаланишини солиштиради: Эр сўзи бир - эрнинг сўзи битта. Ош тотуғи туз - ошнинг таъми туз билан. Қўрқмиш кишига қўй боши қўш кўринур - Қўрққангга қўша кўринур.

Х.Абдураҳмонов кузатувлари давомида мақолларда гап бўлаклари тартиби нормал ҳолатдан ўзгача бўлиши, яъни инверсияга учраши ҳақида ҳам тўхталиб, қуйидаги фикр-мулоҳазаларини ҳам баён қилади:

Мақоллар таркибидаги сўзлар инверсияси 2 хил йўл билан бўлади:

I. Бу ҳол мақолларда (прозаик характердаги мақолларда) логик урғунинг қайси сўзга тушишига боғлиқ. Бундай вақтда логик урғу олган сўз кесимидан олдин, бошқа гап бўлакларидан кейин келади.

II. Мақоллар поэтик характерда бўлади (кўпроқ қўшма гап типидаги мақол назарда тутилади). Поэтик структурага эга бўлган мақолларда инверсия сатр (мисра)нинг ҳажмига, қофия, вазн ва бошқаларга боғлиқ. Бундай инверсия икки сатрли (асосан қўшма гаплар) мақолларга хосдир.

Прозаик типдаги мақолларда инверсия логик урғунинг қайси сўзнинг устига тушишига боғлиқ бўлса, поэтик характердаги мақолларда инверсия қофия ва вазн талабига боғлиқ ҳолда юз беради.

Муаллиф мақолларда логик урғунинг кесимга боғланган қайси сўзга тушган бўлишидан қатъи назар, уларда сўзларнинг одатдаги тартиби бузилишини, кесим одатдаги тартибига мувофиқ гапнинг охирида келса, логик урғу билан боғлиқ бўлган инверсия кесимдан бошқа гап бўлаклари ўртасида юзага келишини ва шунинг учун ҳам логик урғу қайси гап бўлагига тушса, ўша бўлак кесимдан олдин, бошқалардан кейин келишини таъкидлаб ўтади ҳамда мақоллар келтириб таҳлил қилади, фикрини далиллайди.

Хулоса қилиб айтганда, Х.Абдураҳмоновнинг 1971 йилда ёзилган мазкур асари нафақат ўз замони учун, балки бугунги кун учун ҳам қимматли манба саналади.

Докторант Хаитова Феруза

ISSN 2181-0796
Doi Journal 10.26739/2181-0796

TIL, TA'LIM, TARJIMA

ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД

LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/;
Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/;
Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000